

UZBeKISTON ReSPUBLIKASI XALQ T!LIMI VAZIRLIGI

NUKUS DAVLAT PeDAGOGIKA INSTITUTI

FALSAFA
(Ma`ruzalar matni)

Tuzuvchilar

Kazbekov B

Nukus 2012

1 - mavzu. Falafa, uning predmeti va jamiyatdagi roli

Reja:

1. «Falsafa» atamasining mohiyati va mazmuni.
2. Falsafaning baxs mavzulari va asosiy muammolari.
3. Falsafi muammolar bilan bog`liq oqim va ta`limotlar.
4. Falsafaning milliy va umuminsoniy tamoyillari.
5. Uzbek falsafasi, uning zamonaviy rivojlanish muammolari.

Bashariyat milodiy XX asr bilan hayrlashib, uchinchi ming yillikka qadam qo`ymoqda. Insoniyat bugungi kunga kelib, ijtimoiy haetning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqies rivojlandi. Odamzod o`zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko`p yangiliklar yaratdi. Dunening ko`plab sir-asrori kashf etildi, buyuk ixtirorlar qilindi.

Ma`naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to`plangan xikmatlar xazinasi eng muhim o`rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari bo`ladi. Ular o`z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta`limotlarida, muayyan darajada, ifoda etganlar jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g`oyalarni o`rtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari etaklovchi bayroq sifatida namoen bo`ladigan bu g`oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat qasb etadi.

Avvalo, **falsafa o`zi nima**, degan masalaga to`xtalib o`taylik. U insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardandir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o`zi kabi qadimiydir. U olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqieti, haet va inson, umrning mohiyati, borliq va yo`qlik kabi ko`plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir.

Falsafa asoslari baen qilingan aksariyat darsliklarda ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» so`zidan olingani va u «donishmandlikni sevish» («filo» - sevaman, «sofiya»- donolik) degan ma`noni anglatishi ta`qidlanadi. Bu - ushbu so`zning, atamaning lug`aviy ma`nosi bo`lib hisoblanadi. Asrlar davomida filosofiya so`zining ma`no-mazmuniga xilma-xil qarashlar, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o`rniga nisbatan turlicha munosabat va endoshuvlar bo`lgan, bo` atamaning mohiyat-mazmuni ham o`zgarib borgan.

«Filosofiya» atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII-III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelgan edi. o`sha davrda endigina shakllanib kelaetgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi.

Qadimgi Yunonistonda «Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma`lum bo`lgan, u buyuk alloma Pifagor ishlatgan. evropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim ssohasiga, to`g`rirog`i, «fanlarning otasi», ya`ni asosiy fanga aylangan.

Qadimgi duneda fanlarning barchassini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug`ullanishidan qat`i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to`g`risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma`noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o`rni haqidagi qarashlar tizimi bo`lib, duneni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi.

Bundan tashqari, qadimgi Yunonistonda yuz bergan buyuk uyg`onish davri o`ziga hos falsafiy mafkurani ham yaratganligi shubhasiz. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin haet to`g`risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo`lganini aksariyat olimlar alohida ta`kidlaydi.

Sharqda «Ikkinchi Arastu», «Ikkinchi muallim» deya e`tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy filosofiya so`zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, haet va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e`zozlash ma`nosida ishlatilgan.

Haet qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o`tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab etgan, o`zi va o`zgalar qadrini to`g`ri tushunadigan kishi huch qachon «Men - donishmandman» deya ochiq e`tirof etmaydi. Ayniqsa sharq xalqlari haetida bu hol ko`zga tashlanadi.

Ammo, Farobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda haetning qadriga etish-boshqa gap.

Shu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko'pdan-ko'p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muollim sifatida shuxrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

XIX asr nemis qadriyatshunosi T.Rikkert ham shunga o'xshash fikrni quyidagicha baen qilgan: «Odamzod olam va odam hamda haetning qadrini anglab, ular omanat bir narsa ekanini tushuna boshlagan davrlardan falsafiy fikrlashga kirishgan. Binobarin, birinchi faylasuf, kim bo'lganidan qat'i nazar, haetni qadrlaydigan kishi bo'lgani shubhasiz».

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U, bir tomondan, insonning voqealikni aqd vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyalar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jaraeni natijasidir. Bu ikki jixat bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunki behuda haelparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo'lish ilmiy bilimlarni egallash orqali ro'y beradi.

«Falsafa» atamasi «filosofiya»ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, keng ma'noda uni antik - qadimiy falsafada «donishmandlikni sevish» deb tushunilganini aytib o'tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T.Gobbs (qtii-qyuo) uni «tug'ri fikrlash orqali bilishga erishish», nemis faylasufi Hegel «umuman predmetlarga fikriy endashish», Lyudvig Feyerbax «bor narsani bilish», pragmatizm ta'limoti namoyandlari esa, «foydali narsalarni bilish jaraeni» deya talqin etgan.

«Falsafa» tushunchasi tor ma'noda madaniyat, san'at aqliy eki hissiy bilish usuli, vositasi tarzida ta'riflanadi. Falsafaga bo'lgan munosabatning xilma-xilligiga asoslangan xolda, unga yaxlit, umumlashgan ta'riflar ham berilgan.

Haqiqiy falsafa tafakkur mahsuli bo'lgan narsalarni oliy darajadagi haqiqat sifatida mutlaqlashtirmaydi. Bu borada Suqrotning «Men hech narsani bilmasligimni bilaman» degan e'tirofi haqiqat mezonidir. Xolbuki, Suqrot qadimgi Yunonistonning eng bilimli faylasufi bo'lgan.

Falsafiy bilimlar rifoji erishgan yutuqlarni tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu - ularni tamoman rad etish, ko'r-ko'rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy endashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Falsafa sirasini aytganda, ijtimoiy tafakkur rivoji yutug'i va insoniyat ma'naviy taraqqiati mahsulidir. U kishilarning olamni bilish, o'zlashtirish, faravon haet kechirich va o'z insoniy salohiyatlarini namoen etish ehtiejlari bilan uzviy bog'liqdir. Falsafiy ta'limotlar hamma davrlarda ham insoniyatning madaniyatini yanada yuksakroq bosqichga ko'tarishga xizmat qilgan.

Har bir falsafiy g'oya, mafkura, bilimlar tizimi asosan o'z davri xususiyatlarini aks ettirgan. Ular zamon ruhi va ma'naviyatini o'zida mujassamlashtirgan, davr muammolarini hal etishda ko'l kelgan. Shuning uchun Aflotun, Forobiy va Beruniy, Navoiy va Hegelning asar va ta'limotlarida ular yashab o'tgan davr g'oyalari aks etgan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buen o'tgan ikki ming yildan ziedroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan. Lekin zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiej sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqies ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o'tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab, «ustoz, fanning boshqa mohalariga oid ilmlar juda ko'payib ketdi. Endi falsafani o'rganishning hojati bormikano'» debdi. Shunda ulug' faylasuf bamaylihotir gap boshlab, «Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o'rganmaslik har qaysi nodonning ham qo'lidan keladigan ish bo'lib qoldi», degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvanot dunesini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va taqomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jaraenlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi.

Endi **Faylasuf kim**, degan savolga javob beraylik. Filosof so'zini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo'llagan. Bu tushunchaning ma'nosini u Olimpiya o'yinlari misolida qo'idagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya'ni o'zi va o'zligini namoen etish uchun, ikkinchi bir guruh - savdo-sotiq qilish,

boyligini ko'paytirish uchun, uchinchi esa, o'yindan ma'naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko'ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo'n misolga o'xshaydi. Ammo uning ma'nosi nihoyatda teran. Chunki, inson umrining o'zi ham shunday. «Dune teatrga o'xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o'z rolini duneni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunega uning sir-asrorlari tug'risida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini eyish-ichish, o'y-ro'zg'or tashvishlari bilan o'tkazadi. Boshqasi - nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo'yadi. Uchinchi esa, olam hikmatlarini o'rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo'larli haet kechiradi.

Qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta haetiy tajribaga ega bo'lgan, inson ma'naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlarga falsafa bilan shug'ullanganlar. Aslida, o'sha davrlarda falsafani o'rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko'zda tutilgan.

Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 500-430 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Dustim, sen hali eshsan, umringni bekor o'tkazmay desang, falsafani o'rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 341-270 yillarda yashagan) bu haqiqatni qo'ydagicha ifoda etgan: «z-o'zingni erga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o'zligingdan yuqori turish esa - faylasuflikdir».

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta'kidlab, shunday ezgan: «Ular, avvalo, boshqalarga bergan maslahatlariga o'zlari amal qiladilar~ ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar~ uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va Ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o'z haetiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko'tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand eki mutafakkir deb bo'lmaydi. Haqiqiy faylasuflar haetda nihoyatda kam bo'ladi. Ular o'z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, erqin tafakkurga ega bo'lgan bunday buyuk shaxslar umumbashariy taraqqiet miqesida tanilgan, teran insoniy g'oyalar, ma'naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo'lgan.

Falsafa fanning muammolari, o'z xususiyatlariga ko'ra, azaliy va eki o'tkinchi bo'lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo'lgan davrdaeq vujudga kelgan bulib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. Chunki insoniyat taraqqietining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga qo'yilaveradi. Ularni o'rganish jaraenida ilm-fan taraqqiy etib boradi.

Falsafada olamning asosida nima etadi, uni voqe etib turgan narsanig mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masla **«Substantsiya»** tushunchasi va uning mazmunini qanday tushunilishiga qarab o'ziga hos ifodolangan. Substantsiya deganda olam va dunedagi narsalarning mohiyati tug'risidagi fikr tushunilgan. Yunoniston faylasufi va matematigi Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan degan bo'lsa, Aflotun substantsiya - g'oyalardir degan, Demokrit esa, olamning asosida taomlar (atom tushunchasi o'sha davrda bo'linmas zarracha ma'nosida ishlatishgan) etadi deb tushuntirgan.

Bu masalalarni qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo'nalishlar ham yo'q emas. Masalan, olamning asosida nima etadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masala monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha - monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) - olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya'ni degan ma'noni ifodalaydi) - olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya. ya'ni ideya etadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) olamning asosida ko'p narsa va ideyalar etadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

Materializm - olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar etishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

Idealizm - olamning asosida ruh eki g'oyalar (ideyalar) etadi, dune voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Falsafada duneni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning gneseologiya (gnosis - bilish, logos - ta'limot) degan sohasi shug'ullanadi. Duneni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni - **gnostiklar**~ olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa - **agnostiklar** (yunoncha - bilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatadi) deb yuritiladi.

Dialektika - grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dune faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Xozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqda, taraqqiet va rivojlanishda deb tushunishdir. Unga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti va harakat yo'nalishiga ega bo'lgan barcha narsalar va voqealar bir-birlari bilan bog'liq va aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoen bo'ladi.

Masalan insoniyat tarixiga bu usulga asosan endoshilganida, u uzluksiz tarzda ruo' beradigan avlodlar o'rin almashuvi, birining o'rniga ikkinchisi kelishi, muayyan qadriyatlarini meros qoldirishi va yangilikning eskilikni inkor qilishidan iborat doimiy va takrorlanib turadigan jaraendir. Bashariyatning muayyan davrida esa, shu zamonning ijtimoiy manzarasini belgilaydigan turli urug' eki qabilalar, davlat, millat va xalqlar, oqim va yo'nalishlar, g'oya va mafkuralarning xilma-xil shakllarini ko'rish, ularning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda namoen bo'lishini kuzatish mumkin.

Falsafada mazkur tamoyillarga asoslangan tafakkurni - dialektik tafakkur, ana shunday duneqarashni - dialektik duneqarash, endashuvni - dialektik endoshuv, metodni - dialektik metod deb atash an'anaga aylangan. Shu bilan birga u eki bu olimning ushbu tamoyillarga asoslanadigan duneqarashi, falsafiy ta'limotlari ham bor.

Metafizika - grekcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'noda «fizikadan keyin» degan mazmunni ifodalaydi. Bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, Qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Aristotelning «Ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan. Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdagi narsa va xodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni kuproq qaratadigan usuldir.

Bu usul qo'llanganida olamning namoen bo'lish shakllari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jaraenlarning alohida qismi eki holatiga asosiy e'tibor beriladi. Voqea, xodisa va jaraenlarni doimiy o'zgarish xolatida o'rganish nihoyatda qiyin bo'lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o'zgarmay turgan holatini o'rganadilar, tadqiq etadilar.

Sofistika - qadimgi Yunoniston falsafasida vujudga kelgan tafakkur usulidir. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi «sopism» so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga tug'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni kuchma ma'noda baen qilinadi, ya'ni «Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» deganga o'xshash xolat nazarda tutiladi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.»Falsafa» tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz.
2. Falsafaning bahs mavzusi nima.
3. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi.
- 4 Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz.

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
3. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
4. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
5. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.

6. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
7. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
8. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
9. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
10. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.

II-mavzu. Qadimgi Sharq mamlakatlarining falsafasi

Reja:

1. Sharq - insoniyat tsivilizatsiyasining qadimiy o'chog'i.
2. Qadimgi Sharq falsafasi va uning milliy yo'nalishlari.

Sharq qadimiy madaniya o'chog'i va jahon tsivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. G'arb madaniyati tarixini o'rganish jaraenida Ovrupatsentrizm nazariyasi og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog'lik jihatini tahlil etganda ham Osetsentrizm g'oyalari ta'siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiet jahon tsivilizatsiyasining beshigi, dune xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e'tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz tsivilizatsiyasining Sharq tsivilizatsiyasi quchog'ida voyaga etgani va uning qadriyatlarini o'zida aks ettirganini, unga va butun dune madaniyatiga ulkan ta'sir ko'rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqietining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi tsivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat haeti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jaraenlarning muayyan tarzda namoen bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jaraenida «Eng qadigi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siesiy jaraenlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Eramizdan avvalgi turtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil xududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topgan. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yunalishda borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, rieziyet fanlari rivoji bilan bog'liq ekanini, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik haetda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o'rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu - o'sha davr uchun tabiiy hol edi, ya'ni u - davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda mifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo'lsa-da aksariyat hodisalarining falsafiy asosda izohlanishiga sabab bulgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo'lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu - o'sha davrlardan qolgan ezma manbalarda, xususan, «Xujayinning o'z quli bilan haetining mazmuni haqida suhbat», «Arfist qo'shig'i», «uz haetidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat» kabi bitiklari yaqqol namaen bo'lgan. Ularda haetning, umrning mazmuni, o'sha davrdagi odamlarga xos tuyg'ular baen qilingan.

Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar ezma manba - «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin ezilgan bo'lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodieti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitlar) shaklida etib kelgan. Bular - «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adxarvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib. «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob eki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarini astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sank'ya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa - astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm - nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-loyata, tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankx'ya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida modiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) etadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unurning turli teng miqdorda (proportsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular kuyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab aloqador bo'lmagan sabab.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan'-in' davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik duneqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va duneviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoen bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiefasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. U hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi - taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat haetidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtai nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi, u, ya'ni tartib dunening mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq haetida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Tszidir (VI-V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson haeti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni - tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiyligining e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Tsi», ya'ni beshta unsur - olov, suv, havo, er va eg'och eki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Zardo'shtlik ta'limoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardo'shtlikdir.

Bu ta'limotga Zardo'sht asos solgan bo'lib, Sharq va G'arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardo'sht, eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy eki afsonoviy shaxs ekanli xaqida aniq bir to'xtamga kelingan yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy asosga ega. Ya'ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz xududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. U o'z davrida xalqni ezgulik va adolat g'oyalari da'vat etish, haetbaxsh an'analarni shakllantirish, dehkonzilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardo'shtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. Unda qadimgi xalqlarning dune to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi

kuchlari-yaxshilik va emonlik, erug`lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, haet va o`lim borasidagi qarashlar o`z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma`lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o`zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiet tarixida muhim o`rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo`shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko`pgina qismini endirib yuborgani haqida ma`lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayirim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o`qiy olmagan sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni eqish to`g`risida ko`rsatma bergan, degan fikrlarni baen etadilar. Aslida unday emas. Bu - tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo`lsa-da haspo`shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o`z zamonida fanlarning otasi nom olgan falsafani fan darajasiga ko`targan, buyuk donishmand sifatida etti iqlimda tan olingan Arastudan 20 yil mobaynida muttasil ta`lim olgan edi. Binoborin, Shoh Filippning o`g`li Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tushunmaydigan bir kimsa deb ta`riflash tarix haqiqatiga to`g`ri kelmaydi.

Markaziy Osieda buddaviylik ham o`z urniga ega. U diniy falsafiy ta`limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning ohiri va V asr boshalirda vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta`limotga asos solgan donishmand Sidxarta urug`idan chiqqan Gautama xisoblanadi. Keyinchalik u «Budda», ya`ni nurlangan degan laqabga ega bulgan. Buddaviylik islomga qadar .rta Osieda taqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o`rin to`tadi. Bu ta`limot .rta Osiega eramizdan avvalgi II-I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga kura, uni Toxaristonga balxlik savdagorlar olib kelishgan. Qushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi.

**Moniy ta`limoti** yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardo`shtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar ezgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan. Moniy hatto «Moniylik ezuvi» nomli alifbo xam tuzgan. Uning ta`limoticha, haetda dastavval nur dunesi - yaxshilik va zulmat dunesi - evuzlik bo`lgan. Ular o`rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsuridan (ruh - nur farzandi, jism - zulmat mahsuli) iborat. Moniylik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta`limot bo`lgani sababli hukmron mafkura qarshiligida duch kelgan.

Moniylik ta`limoti asosida **Mazdak ta`limoti** yuzaga kelgan. U eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (ru0-two yillar) bo`lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o`z qarashlarida halq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, xurlik yo`lida olib borgan xarakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko`payib ketgan. Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. .rta Osieda Muqanna, Ozarboyjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag`allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo`ladi.

Markaziy Osieda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta`limotlar, ular ilgari surgan g`oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatiga ega. Sanab o`tilgan qadimgi diniy-falsafiy ta`limotlar, ya`ni zardo`shtiylik, uning bosh kitobi - «Avesto», Moniy ta`limoti, «Moniy ezuvi», mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da`vat etgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Sharq madaniyati taraqqietining ilk davrlari deganda nimani tushunasiz.
2. Qadimgi hind falsafiy maktablar nechta guruhga bo`linadi

Adabiyotlar.

11. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
12. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
13. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
14. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
15. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
16. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
17. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
18. Falsafa. (Darslik). T. 2007.

19. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
20. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.

3. Mavzu Qadimgi Yunoniston va Rim falsafasi. (i soat)

Reja:

1. Antik dune va Yunoniston falsafasi.
2. Qadimgi zamon falsafasini o'rganishning ahamiyati.

Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar - antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy - ilmiy, ijtimoiy - ahloqiy ta'limotlar o'rganiladi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi ywr-tru yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining etuk siesiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va xodisalar dastlabki ibtido - suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va modiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini ezgan, biroq asar bizgacha etib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dune - cheksiz, gazsimon apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo - olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyushishidan suv, er, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi **Geraklit** (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiening g'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunega kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov - olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Harakat butun tabiatga, barcha jism va xodisalariga xosdir. Abadiy harakat - abadiy o'zgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar o'rtasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish noto'g'ri.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siesiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha erda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha duneni bilish jaraeni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideyallashgan raqamlar etadi~ narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar maxsulidir. Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» to'g'risidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar o'rnatgan tartib ijtimoiy haetda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha demokratiya bu tartibotning buzilishidir.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI-V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osieda dunega kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sahat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskeyning ezishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarimigina omon qolgan, xolos. U ko'pxudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, o'simlik dunesiga daxldor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri eramizdan avvalgi t0r yili tug'ilgan Parmenid tomonida rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490-430 yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatiga **sofistlar falsafasi** katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislaridan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darjada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli - Sokrat) - qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy haetida faol ishtirok etgan, eshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, xurfikrli inson, kambag'al dan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan».

Uning haeti fojiali tugagani to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. o'z davrida Afinadagi hukmron tuzum tartib-qoidalariga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun ruhoniylar uni dahriylikda hamda eshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siesiy ayb quyilgan. Garchand qutilish imkoni bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadaq zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. Xolbukiy Suqrot va uning shogirdlari Afinada amal qilgan qonunlarni notug'ri va adalatsiz deb hisoblagan hamda ularni qattiq tanqid qilgan, ammo, shunday bo'lsa-da, ularga buysungan. Shu ma'noda, Suqrot o'zini aybdor deb topgan sud hukmiga itoat etgan va o'zini uning ixtieriga topshirgan. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan xikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-kuyda, maydonlarda, xiebonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirilgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin birona ham asar ezmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin.

Suqrotning shogirdi **Aflotun** (asli - Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomodir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida baen qilgan. Aflotun 428 yil 21-mayda Delos orolida tug'ilgan. .zidan keyin 35 dan zied dialog shaklidagi asarlar ezib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini birdan-bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

Aflotun «**Aflotun dunesi va soyalar dunesi**» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va yashaydigan dune esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiet g'oyalar dunesiga xos, soyalar dunesidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunesining qonuniyatlarini hamma ham bilolmaydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan aql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunesi bilan kifoyalanadi.

Aflotunning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limoti uning duneqarashida markaziy o'rinlardan birini tashkil etadi. U faqat antik davr falsafasi - ontologiya va gnoseologiyaning klassigi bo'lib qolmay, mumtoz antik siesiy nazariya va pedagogikaning bilimdoni ham bo'lgan. Aflotun ijtimoiy-siesiy masalalarga doir «Davlat», «Qonunlar», «Siesat» va «Kritiy» nomli asarlar ezib qoldirgan. «Davlat» asarida jamiyat haqida, uning ideal siesiy tuzumi to'g'risidagi qarashlarini markaziy ta'limoti - g'oyalar nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda ilgari surgan.

Aflotunning shogirdi va safdoshi **Arastu** (384-322 yillar) (asli Aristotel') qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. o'n etti eshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiya o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) shu erda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filippning II taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandr ga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Binobarin keyinchalik duneni zabt etib, jahongorlik maqomiga ko'tarilgan iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqies bo'lgan. Filippning o'limidan keyin Aleksandr taxtga o'tirgach, Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 eshlarida «Likkey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Evbey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha erda vafot etgan.

Arastu zabardast olim bo'lib, mantiq, psixologiya, falsafa, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asarlar ezib qoldirgan. Uning barcha asarlari borliqni o'rganishga qaratilgan. Mantiqqa oid asarlarning barchasini «Organon» («Qurol») nomli asariga jamlagan.

Faylasuf olamdagi narsa va hodisalar to'rtta sababga ega. Bular - moddiy sabab, ya'ni modda (materiya)~ shakliy sabab eki shakl~ yaratuvchi sabab~ pirovard sabab eki maqsad sabablaridir. Yaratuvchi sabab, Arastu talqinicha, harakat manbaidir. Masalan, ota va ona bolaning ulg'ayishi

sababchisidir. Arastu pirovard sabab (maqsad sabab) vositasida insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham tatbiq etmoqchi bo'lgan.

Harakat olam singari abadiydir. Ayni payitda, olam o'zining abadiy sababi, ya'ni harakatlantiruvchi kuchiga ega.

Yunon falsafasida **Demokrit**ning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq - modiy dune, abadiy va poensiz, cheksiz-chegarasiz realliqdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy iftidodir. Atomlar - bo'linmas va o'zgarmos, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddaning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda na jamiyatda xech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb ezgan.

Me'er, deydi faylasuf, axloqning tabiat insonlarga in'om etgan kuch va qobiliyatga mos kelishidadir. Donolik uchta hosil keltiradi: yaxshi fikrlach~ yaxshi suzlach~ yaxshi harakat qilish. Demokritning axloqiy qarashlari o'z davridagi amaliy ma'naviy munosobatlarning umumlashmasidir. Uning ta'limoti bugungi kunda insonlarni axloq-odobga, dienatga da'vat etadi.

Epikur (341-270 yillar) - qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onag'a ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam - moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar - bo'linmas, olam - jism va bo'shliqdan iborat, deb ezgan edi u. Barcha jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona haetni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushinamiz, deydi Epikur.

Epikur ta'limotini rimlik **Lukretsiy Kar** (eramizdan avvalgi 99-55 yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida» nomli asari bilan iashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb ezgan Lukretsiy, baxtli haet kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Qadimgi Misr falsafasiga xos xususiyatlarni sanab bering.
2. «Veda»lar nima va qachon paydo bulgan.
3. Buddaviylik ta'limotining mohiyati nimadan iborat.
4. Konfutsiylik nima.
5. Lao Tszi falsafasida Dao qonuni nimani anglatadi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Filosofы i filosofiya. M. 1998.

4-mavzu. Urta asr G`arb falsafasi

Reja:

1. G`arb falsafasining xususiy tamonlari
2. Sxolastika falsafasi
3. Nominalizm va realizm

evropada Qadimgi Yunon va Rimdan o`rta asrlar falsafasigacha, ya`ni miloddan ilgarigi I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo`ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jaraenni ko`rish mumkin: 1. Hristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi 2. Urta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustivor yo`nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o`sha davr falsafasining qiefasini belgilaydi.

Gnostiklar Bu davr falsafasida o`z o`rniga ega bo`lgan gnostitsizm eramizning 150 yillarida o`zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta`limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida evuzlikda mutlaqo sof, inson esa o`z tabiatining ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g`alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunening navbatdagi falsafiy dini bo`lib qolar edi va shunday bo`ldi ham. Etr yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e`lon qildi.

Dualizm - gnostitsizmning asosiy yo`nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dune o`rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta`kidlaydilar. Ular ta`limotida materiya hamma vaqt uvuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy duneni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e`lon qilingan darveshlik (asketizm) o`rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishisha sabab bo`ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetlar so`zining lug`aviy ma`nosi «himoya qilish», -demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo`lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta`qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o`z asarlarida mushriklik (ko`p xudolik) adabietlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, eki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanilganlar.

Apologetlar asarlarida ikki an`ana yaqqol sezilib turadi. Ya`ni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklik tomonidan xristianlikka qo`yilgan ayblar - g`ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinchii apologetiya», «Ikkinchi apologetiya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta`kidlash lozim.

«Patristika» - so`zi «ota» («padre») so`zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G`arbda episkoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo`lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640 ta da`vatlaridan ko`pchiligi avlie Pavel nomlarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qullash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G`arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo`lgan Avreliy Avgustin (354-430) bo`lib hisoblanadi. U faylasuf va islohietchi bo`lgan. Avgustin o`z haetini episkoplikka, tadqiqotchilikka, adabietga bag`ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da`vat va 200 ga yaqin nomalar ezadi. Uning o`sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig`inish» 401 yilda ezilgan. Bu asarda u o`zining xristianlikkach bo`lgan haetini ezadi. Muqaddas kitob «Bibliya» oyatlari ramziy - timsoliy baen qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar ezgan.

«Sxolastika» - so`zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo`lib, «o`qish joyi», «maktab» ma`nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o`qituvchilik qilganlarni, eki umuman saroy maktabidagi o`qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o`rganishda falsafani tatbiq qilgan o`rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma`lum darajada ilohietni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur erdamida quvvatlashga bo`lgan intilish deb ham baholash mumkin. .sha davrda ilohietni

muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angel'm Ketterberyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberysk shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angel'm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Birinchisi «Monopoliya» - xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot - kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson haetda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzluksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni xudo deb ataymiz.

Angel'mning ikkinchi asari «Prologion» xudo borligining neduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa ob'ektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo'lmaganda edi, narsa komil bo'lmas edi. Agar xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, xudo realikda mavjuddir. Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlari mo'tadil realistlar deb atalganlar. Ularning yirik vakillari P'er Abelyar va Foma Akvinskiylar bo'lgan.

Britaniyada tug'ilgan **P. Abelyar** (q0uo-qqrw) juda eshligidanoq o'z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar - mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik eki universalliy dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi abzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo'llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga aqloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z haetini xudoga bo'ysondiradilar. Bu qarash ahloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Foma Akvinskiy (1224-1202) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiet bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti erdamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani eritishga bag'ishlangan. U ilohietning sistemali baen qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi.

Akvinskiy ta'limoticha, dune ierarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida er va r elementdan iborat bo'lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dune o'rtasidagi joyni egallaydi. Duneviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. erdan uzoqlashgan sari u ilohiylashib boradi. Sayeramiz dunesinning tepasida farishtalar dunesi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida g'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

Usha davrning mashhur faylasuflaridan biri **Vil'yam Okkam**dir (qe0o-qero). Uning fikricha, ilohiet aqidalari ratsional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoraladi. Okkam, shuningdek, universaliiylarning ob'ektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliiylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rojder Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z haetini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular erdamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XVII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik

o`rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o`rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o`rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri - 1150 va 1300 yillarda - Foma Akviniyskiyning mo``tadil realizm nominaliz ustidan g`alaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohietchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko`p jihatdan uyg`onish davri falsafasiga ta`sir ko`rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (ratsionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

evropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o`rin tutadi. Ular bilim va ma`rifatning o`chog`i sifatida 1200 yillarda vujudga keldi. 1400 yillarga kelib, evropada we ta universitet mavjud bo`lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug`ulanish tashkil etar edi.

Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo`ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolon`ya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolon`ya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsata boshlaydi. Abelyarning o`qituvchi sifatidagi shuhrati ko`p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Universitetlar, shuningdek, talabalarning chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Frantsiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford universiteti ko`chib o`tishlariga sabab bo`ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo`zg`olon ko`tarishi va 1209 yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko`chib o`tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar Qadimgi Yunoniston va Rimda, shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo`lgan ustoz va shogirdlar to`planib ilm o`rganadigan, o`rgatiladigan va ilmiy bahslar olib boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo`lsalar-da, ammo fan sohalarining ko`pligi tufayli alohida ilm o`chog`iga aylanib qoldilar. Ularning tajribasi keyinroq butun dunega tarqalib ketdi.

Takrorlash uchun savollar

1. Nominalistlar va realistlar o`rtasidagi qarama-qarshilik
2. Sxolastikaning avjga chiqqan davri nechanshi yillarda - Foma Akviniyskiyning mo``tadil realizm nominaliz ustidan g`alaba qozondi.

Adabiyotlar.

15. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
16. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
17. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
18. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
19. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
20. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
21. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
22. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
23. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
24. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
25. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
26. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
27. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
28. Философия и философия. М. 1998.

5-mavzu. Islom falsafasining shakllanishi

Reja:

1. Ilk o`rta asrlar falsafasining mohiyati va o`ziga xos xususiyatlari.
2. Islom dini va falsafasi. Tasavvuf va uning oqimlari.

Mazkur mavzuga asos bo`lgan davr falsafasi arab istilosi va mamlakatimizda islom dinining taraqqiy etishi bilan uzviy bog`liqdir. Bu falsafa, ba`zi chet ellik mutaxassislar aytgani kabi, faqat arablar madaniyatining bir qismi emas. Balki bizning Vatanimiz farzandlari ulug` bobokalonlarimizning islom diniga, islom falsafasiga, butun arab dunesi va jahon tsivilizatsiyasiga katta ta`sir ko`rsatgan ta`limotlari dunega kelgan davr falsafasi hamdir.

Arab bosqishi va islom dini. Movarounnahr arablar tomonidan zabt etilishi arafasida Turk qog`onoti tizimiga kirar edi. U mayda amirliklardan iborat bo`lib, ular o`rtasida tinimsiz to`qnashuvlar ro`y berib turar edi. Ayniqsa, Turk qog`onoti bilan sosniylar Eroni o`rtasidagi to`qnashuvlar o`ta shiddatli tusda yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu xuxud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi xalqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siesiy hamjihatlikning yo`qligi, o`zaro qirg`in-barotlarning avj olishi sabab bo`ldi.

Movarounnahrda arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so`zi arabcha o`zini topshirish, itoat, bo`ysunish, tinchlik kabi ma`nolarini anglatadi. Islom dini bayrog`i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo`yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil topgan.

Qur`on va hadislarda islomiy ta`limotning asosi baen qilingan. Qur`on - muqaddas kitob. Unda islom qoidalari, iymon-e`tiqod talablari, huquqiy va ahloqiy me`erlar o`z ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

«Sunna» esa hadislar majmui bo`lib, Qur`ondan keyin turadi va uni to`ldiradi. Unda Muhammad payg`ambarning so`zlari, xatti-harakatlari naqlar va hadis shaklida jamlangan.

Qur`on va sunnadan keyingi muhim manba - shariatdir. Shariat (to`g`ri yo`l, ilohiy yo`l demakdir) - islomda huquqiy, ahlog`iy me`er va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo`nalishlar - sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta`limot, marosimchilik, ahloqiy-huquqiy me`rlarga oid masalalarda o`zaro faqrlanib turadi.

Abu Mansur Moturidiy (melodiy orr yilda vafot etgan) kalom ilmining aql maqomiga alohida e`tibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Mu`taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur`onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini eqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir (yoo-uri yillar). Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohietining o`ziga xos falsafiy ta`limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur`onga tayanib, jannat va do`zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo`qligini, lekin insonning Olloh oldida o`z qilmishlari uchun mas`ul ekanligini asoslab berishga harakat qilgan.

Bunday ma`naviy jaraenlar bilan enma-en islomda **mashshoiyunlar va tabbiiyunlarning** (Arastu falsafasi va tabiatni o`rganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy ma`naviyatning duneviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro`y beraetgan jaraenlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini ko`rsatib turibdi.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma`naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko`pgina ichki sabablar va ba`zi tashqi unsurlar - buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tsavvurlari, sharqiy xristian tarkidunechiligi, neoplatonizm kabilarning ta`siri ostida) paydo bo`ladi. Olloh va olamning porlab turishi, fano bo`lish, orif shaxsining tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini sufiylar, deb ataganlar va «so`fizm» atamasi shundan paydo bo`lgan. Ilk so`fiylar aholining kambag`al toifasi orasida shakllangan. Ularning qarashlari istilochilar zulmi, adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlikka qarshi norozilik belgisi sifatida ham yuzaga kelgan.

Tasavvufning muhim jihatlari yirik musulmon ilohietchisi Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G`azzoliyning (1059-1111) «Diniy ilmlarning tiriltirilishi» asarida baen etilgan.

Olohnı aql bilan anglash mumkin emasligini ta'kidlaganlar. U faqat qalb, maxsus ruhiy harakatlar - iltijo-ibodatlar ko'magida bilib boriladi.

Tasavvufda **kubraviya, yassaviya, naqshbandiya** tariqat-suluklari keng tarqalgan.

Kubraviya tariqatining asochisi **Najmiddin Kubro**dir (1154-1226). Xevada tug'ilgan, ezgan asarlari orasida «Sharhussunna val-masolih», «Usuli ashara», «Favoihul-jamol» kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqqatining mohiyati o'nta usulda mujassamlashgan. Bular - tangriga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuhd fi dune - har qanday lazzatdan o'zini tiyish, tavakkul - Olohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat - xilvatni ixtier qilish, mulozamat az-zikr - uzluksiz zikr, tavajjuh - Haqqda muhabbat qo'yish, sabr - nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba - tafakkurga g'arq bo'lish, rizo - tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatgan va shahid bo'lgan. Mug'ullar Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib, unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifoya ekanini bildirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'rgan. Rivoyat qilishlaricha, ul zot qartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko'mak bergan. Buni ko'rgan shogirdaliridan biri «Ustoz, anchadan beri bayroq ko'tarib charchadingiz, uni menga bering», deganida, u «Agar kuchim bulganida qilich eki kamon olgan bo'lar edim. Bayroqni bizga qo'yingda, siz e qilich eki nayza bilan eg'iyga qarshi kurashing», degan ekan. U bayroqni shunchalik mahkam ushlagan ekaniki, xalok bo'lganidan keyin qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'lmaganidan, bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan.

Yassaviya tariqatining asoschisi **Xoja Axmad Yassaviy**dir (1166 vafot etgan). U Turkistonnin Sayram muzofotida tug'ilgan, mashhur mutasavvif Yusuf Hamadoniyning (1140 yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga etgan, orif maqomiga erishgan. Yassaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomiga turgan, so'ng esa bu maqomni Abduholiq G'ijduvoniya qoldirib, Yassi - Turkiston shahriga qaytadi va o'z tariqati, yo'l-yo'riqlarini tashviq etish bilan mashg'ul bo'ladi.

Yassaviyning oddiy xalq tushunadigan uslubda ezilgan, tassavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o'z aksini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga etishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riezat, chilli, zikrga alohida ahamiyat berib, haetining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. Yassaviy tariqati Turkiston o'lkasi, Ozarboyjon, Turkiya, Shimolda - Qozongacha, G'arbda - Bolqongacha keng tarqalgan.

Bahouddin Naqshband (1348-1398 yillar) naqshbandiya tariqatining asoschidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil - ba eru dast - ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Inson Oloh inoyati natijasi bo'lib, bu duneni unutib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Olohda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi.

Naqshbandning ta'kidlashicha, shariat - ahdga vafo, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va tilbirligi. Tariqat esa, o'zidan kechish, fano bo'lishdir. Haqiqat - behuda ishlardan uzoqlashish, haq ishlarga bog'lanish. Demak, shariat - qonun, tariqat - yo'l.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta'limotlari ma'naviyatimiz tarixida juda katta urin tutgan. Ular ma'naviy taraqqietda muhim ahamiyatga molik bo'lib, o'z ta'sirini haligacha yo'qotmagan.

Vatanimiz tsivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Uning hududida arab xalifaligidan nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag'rikengligi tufayli yangi marralarga erishdi.

Diniy bag'rikenglik va duneviy bilimlar takomili. Musulmon Sharqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz xududidan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Oloh, inson va tabiat masalalari ilohiet va duneviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Bironta buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o'tmagan.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Abu Hanifa, imom Moturudiy va imom Burhoniddin Marg'inoniylar peshqadamlik qilganlar.

Imom Buxoriydan (810-870 yillar) yirik ilohietchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan ishonchli deb topganlarini maxsus to'plam holiga keltirgan. Bu to'plam «Sahihi Buxoriy» nomi bilan mashhurdir.

Imom iso Termiziydan (824-892) «Payg`ambarning alohida fazilatlarini», «Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola», «Tarix» va boshqa asarlar meros bo`lib qolgan. Imom Termiziy hadislarni muntazam ravishda to`plab, muayyan tarbiga solgan va yaxlit bir kitob shakliga keltirgan.

**Abu Hanifa an-Nu`mon** hanafiya mazhabiga asos solgan, barcha islom tarqalgan xududlarda o`z mavqeiga ega bo`lgan. Bu mazhabning muhim jihatlari kalom va ilohiet sohalarining piri Abu Mansur Moturidiy (vafoti orr y.) ning «Tavhid» va «Ta`vilot» asarlarida va Burhoniddin al-Marg`inoniy (1123-1197) ning «Hidoya» to`plamida o`zining erqin ifodasini topgan. Ularning asarlarida aql maqomi va mantiq ilmiga, ilm va dalilga keng o`rin berilgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Yassaviya tariqatining asoschisi **Xoja Axmad Yassaviy** nechanchi yil vafot etgan).
2. **Tasavvuf va uning tariqatlari**

Adabiyotlar.

29. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
30. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
31. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
32. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
33. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
34. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
35. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
36. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
37. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
38. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
39. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
40. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
41. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
42. Filosofı i filosofiya. M. 1998.

6-mavzu O`rta asrlarda Markaziy Osieda falsafiy fikir taraqqiati

Reja:

1. **O`rta asrda sharq uyg`onish davrining mohiyati va mazmuni**
2. Temur va temuriylar davri falsafasi, uning ahamiyati.
3. Temurning haeti, faoliyati, jahon va Vatan tarixidagi o`rni.

**Muhammad al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-Farg`oniy (taxm. 797-865)** butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo`shgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bag`dodda «Donishmandlik maskani» («Bayt ul-hikma») ga rahbarlik qilgan. Uning «Astronomiya jadvali», «Hind hisobi to`g`risida risola», «Qesh soati to`g`risida risola», «Musiqqa haqida risola», «Tiklash va qarshi qo`yish hisobiga oid muxtasar kitob» kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor bo`lgan Ahmad al-Farg`oniy (taxm. 798 y. da Quvada tug`ilgan) astronomiya va matematika sohalarida nom taratdi. Uning «Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «Astronomiya asoslari», asarlarida koinot xaritasi tuzildi. er va fazoviy sayeralar hajmi, iqlimlar, jo`g`rofiy kengliklar to`g`risida kuzatuvchilar orqali asoslangan yangi ma`lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo`nalishlariga asos solingan.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosi tasavvur qilib bo`lmaydi. **Abu Nasr Forobiy** (873-950) - musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinchi ustoz» unvoniga muyassar bo`lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalomiga qy0 dan zied asar mansub bo`lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarining dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag`ishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko`rinishda: «Vujudu vojib» (olloh) va «vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida

talqin qiladi, barcha narsalar «vujudi vojib» tufayli yashash xuquqiga ega bo'ladi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy.

Olam sifat, miqdor, javhar, aksidentiya (muhim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Ular fazoviy jismlar, aqlli mahluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o'simliklar, minerallar va to'rtta unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko'rinishda namoen bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniy (1973-1908) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan wi tasi bizgacha etib kelgan. Uning tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishivu, Qesh va Oyning tugilishi, zarra, inertsiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, er qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, er qiefasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma - xil olamlar to'g'risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiejarini qondirishdi. Bilish sezgilar etkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov - tajriba xizmat qiladi. Ular tufayli ashelarning muhim jihatlarini o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jaraenining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko'ra, inson qiefasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiefasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafikkirning idealidir.

Abu Ali ibnSino (980-1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziedroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimning «Shifo kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vujudi vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir.

Ibn Sino Zakarie ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi. masalan, alloma ular ko'magida xastaning xolati, kelajakda kutilaetgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, inson va atrof-muhit o'zaro munosabati muammolraini hal etishga urinadi.

Mutaffakir o'z asarlarida ilm va ahloq-odob uyg'unligi, inson kamoloti, baxt-saodat, ijtimoiy adolat, kishilarning o'zaro xamkorligi, hukmdorning burchi to'g'risida qiziqarli g'oyalarni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, barchani bir xil ijtimoiy mavqega erishtirib bo'lmaydi. Aslida ular uchun muayyan sharoit yaratib bermoq lozim. Barchaning boy va mansabdor bo'lishi eki hammaning qashshoq bo'lishi jamiyatning tanazzuli va inqirozidir. Lekin inson o'zgalarga mehr-oqibatli, g'amhur bo'lmog'i, kerak vaqtda saxovat va murruvat qo'lini nochorlarga uzatishi zarurdir.

Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336-1405) Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja ilg'or qishlog'ida dunega keldi. Uning eng asosiy tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u mug'ullarning bosqinchilik va vayronkorliklariga qarshi kurashib, Urta Osiyeni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlarning o'zaro nizolariga barham berib, kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi. Uning davrida «Kuch - adolatda» tamoyili amalga oshdi, iqtisod va madaniyat yuksaldi, o'zga mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi.

Amir Temur mohir sarkarda sifatida nom qozondi. U o'z haetini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar buned qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go'zal xududiga aylandi.

Temurning yana bir ulkan hizmati shuki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olimu fuzalo va din arboblarni to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono

Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqand eng go'zal shahar edi. Ispan sayehi R.G.Klavixo Samarqandning go'zalligiga qoyil qolgan edi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi.

Usha zamonning eng mashhur tarixchilari **Mirxond (1433-1498) va Xondamir (1475-1535)** edilar. Mirxond Hirotida tavvalud topib, shu erda ijod qilgan. Uning asosiy tarixiy asari 7 jildan iborat bo'lib, «Nabiralar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollari haqida poklik bog'lari» deb ataladi. U olti jildini ezib vafot etadi, ettinchisini nabirasi Xondamir ezib tugatadi.

Xondamir ham Hirotida tug'ilib, eshligidan tarixnavislikka havas qo'yadi. U Agrada vafot etadi. Uning muhim risolalari «Makorim ul-axloq», «Habib us-siyar», «Vazirlar uchun qo'llanma» va boshqalardir. Mantiq ilmining yirik vakillaridan biri **Sa'diddin Taftazoniy**dir (1322-1392) u Niso viloyatiga qarashli Taftazon qishlog'ida dunega keladi. eshligidan ilohiet fanlari, arab tili, nutq san'ati va mantiq bilan shug'ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi. Turkiston, Hirot, Jom, "ijdivon madrasalarida talabalarga dars berdi. Taftazoniy shuhrati, ilmiy ishlari Yaqin va .rta Sharq mamlakatlariga keng tarqaldi. Temurning taklifi bilan alloma Samarqandga kelib, shu erda umrining oxirigacha yashadi.

Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Muhimlari: «Tahzib al-mantiq val-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish») «Muxtasar al-ma'oni» (Ritorikaga oid «Qisqacha ma'nolar»), «Al-irshod al-hodiy», (Arab tili grammatikasiga oid «Yo'l boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid at-tolibin» («Falsafa va kalomga oid «Tolibi ilmlarning maqsadlari») va boshqalar. Taftazoniy o'tmish olimlarining juda ko'p asarlariga sharhlar ham bitgan.

.sha davrning yana bir atoqli allomasi **Mir Sayyid Sharif Jurjoni**y Astrobod shahri yaqinida tug'ilgan. Jurjoni y Istanbul, Qohira, Hirot, Sheroz shaharlarida bo'lib, ulardagi olimlardan ilm sirlarini o'rganadi. qeiu yildan boshlab Samarqand madrasalarida mantiq, falsafa, falakiet, fiqh va adabiet, munozara ilmi va boshqalardan dars beradi.

Jurjoni y 50dan ortiq risolalarning muallifi bo'lib, ularning aksariyati mantiq, fiqh falsafa va tabiatshunoslikning muhim muammolariga bag'ishlangan. Olimning «Atta'rifot» («Ta'riflar»), «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishining qoidalari haqida risola»), «Sug'ro» («Kichik dalil bo'la oladigan hukm»), «Kubro» (Katta dalil bo'la oladigan hukm), «Avsat dar mantiq», («Mantiqda o'rta xulosa»), «Risolayi vujudiya» («Borliq haqida risola») va boshqa asarlari mavjud. Bulardan tashqari, Jurjoni y salafklarining, xususan ibn Sino, Chag'miniy va Nasriddin Tusiyklarning asarlariga sharhlar ezganligi ma'lum.

Mir Sayyid Sharif Jurjoni y mantiq ilmi sohasida ham o'z fikrlarini baen qilgan. Uzining qarashlarida mantiq ilmini falsafadan ajratmay, ayni bir vaqtda uning huquq va til bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini isbotlab beradi. Shuning uchun ham, XIV-XV asrdan boshlab islom madrasalarida mantiq ilmini o'qitish huquq va tilshunoslik fanlari bilan bog'liq holda olib borildi.

Jahon ilm-fani taraqqietiga katta ulush qo'shgan buyuk falakietchi olim va davlat arbobi **Muhammad Tarag'ay Ulug'bek** (qeor-qro) matematika va falakiet sohasida barkamol ijod qilgan. Uning otasi Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo edi. Ulug'bek eshligidan ilm bilan qiziqdi, unga taniqli olimlar Qozizoda Rumiy va G'iesiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo'lsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga ko'p kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kime va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning duneqarashida Aflotun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Farg'oni y, Forobi y, ibn Sino, Beruni y va boshqalarning asarlari muhim o'rin egalladi.

Ulug'bekning ulkan ishlaridan biri uning Samarqandda, Ko'hak tepaligida, Obi Rahmat arig'ining bo'yida, rasadxona barpo etganligidir. Ushbu rasadxona qurilishi qrwr yilda boshlanib, qrwo yilda tugallandi. Olimning eng muhim asari «Ziji jadidi Ko'ragoni y» deb ataladi. Undan tashqari, Ulug'bek matematikaga oid «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», astronomiyaga bag'ishlangan «Risolayi Ulug'bek» va tarixga oid «Turt ulus tarixi» kitoblarini ezdi. Ulug'bek mantiq ilmi, fiqhshunoslik, musiqa va adabiet nazariyasini yaxshi bilar edi. Olimning «Ziji» ikki qism, muqaddima va qqqi yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

Ana shunday olimlardan biri G'iesiddin Jamshid al-Koshiy (1430 yilda vafot etgan) bo'lib, u yirik riezietchi va falakietchidir. Uning asarlari «Miftoq ul-hisob» («Hisob kalidi»), «Risola al-muhitiya» («Doira haqida risola») va boshqalardir. XVI asrdan boshlab evropa mamlakatlarida uning kashfiyatidan foydalana boshladilar.

Tarihda Ali Qushchi nomi bilan mashhur bo'lgan Alouiddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403-1474) Ulug'bekning shogirdidir. U ilmiy ishlarini falakiet va rieziat sohasida olib bordi. Uning asarlari: «Arifmetika ilmi haqida risola», «Mantiq risolasi», «Astronomiyaga oid risola» va boshqalardir.

Ali Qushchi «Astronomiyaga oid risola»sida Oy va Qush tug'ilishi qonuniyatlarini ilmiy asoslab berdi. Olim tabiat sirlari va uning qonuniyatlarini o'rgandi, jismlar harakati va ularning oddiydan murakkabga o'tishi to'g'risida o'z fikrini ilgari surdi.

Umuman shuni ta'kimlash lozimki, Ulug'bek va u asos solgan astronomiya maktabi koinotdagi hodisalarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi, o'sha vaqtgacha fanga ma'lum bo'lmagan hodisalarni idroq qilib, inson aql-zakovatining bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, keyingi davrlarda yashagan olimlarga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Urta asr mumtoz adabietining vakili, ulug' shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) dir. Jomiyning Navoiy ustoz deb hisoblar edi. Uning qalamiga mansub asarlar «Nafaqot ul-uns», «Hujjat ul-asror», «Musiqqa haqida risola», «Naqshi fusos», «Vohid atamasi haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Bahoriston» va boshqalardir.

Jomiyning eng yirik asari «Haft avrang» bo'lib, unga «Tuhfat ul-ahror», «Suhbat ul-abror», «Yusuf va Zulayho», «Suhbat ul-asror», «Layli va Majnun», «Salamon va Absol», «Xiradnomayi iskandariy» dostonlari kiradi.

Barcha musulmon mutafakkirlari kabi Jomiy ham xudo abadiy, mutlaq va dunedagi hamma narsalarning sababchisidir, xudo mavjud bo'lganda, borliq yo'q edi, dune o'zining boshlang'ichini Ollohdan olgan, demak, xudo hamma narsaning yaratuvchisidir, deb hisoblaydi.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan siymolardan biri, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441-1501). U Temuriylar xonadoniga taadduqli bo'lib, otasi G'iesiddin kichkina Shahrisabzdan Qobulga borib qolgan barlos bekларidan edi. Navoiy Hirotda Husain Boyqaro saroyida turli lavozimlarda ishladi, qruw yilda boshlab vazir etib tayinlandi. Shoir mamlakat obodonchiligi ravnaqi va osoyishtaligi yo'lida ko'p ishlar qildi. Maktab, madrasa, masjid va xonaqolar, ko'priklar, rabotlar, shifoxonalar qurdirdi, muhtoj va kambag'allarga erdam berdi, olimu shoirlarga homiylik qildi.

Naviy ijodi boy bo'lib, asarlari turli mavzularga bag'ishlangan. «Xamsa» ya'ni «Hayratul abror», «Farhod va Shiyin», «Layli va Majnun», «Sab' ai sayar», «Caddi Iskandariy» dostonlari hamda «Lison ut-tair», «Majolisun nafois», «Mahbubul qulub», «Holati Pahlavon Muhammad», «Mezon ul-avzon», «Muhokamat ul-lug'atayn» va boshqalar. Bulardan tashqari, Navoiy «Hazoyyinul maoniy» («Ma'nolara xazinasini») nomli she'riy to'plam yaratgan bo'lib, u rt ming misraga yaqin g'azal, ruboiy, qit'a va fardlardan tashkil topgan.

Shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy uxshatish va ramziy iboralar erdamida, zohiriy va botiniy ma'nolarda baen qilinadi.

Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g'oyasi muhim o'rinni egallaydi - shoirning «Xamsa»siga kirgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarining asosiy qahramonlari Iskandar, Farhod, Shirin, Layli, Majnun va boshqalar komil inson sifatida talqin qilinadi. Ular mehnatsevar, o'z kasbini ustasi, doimo o'zgalarga erdam beruvchi, shijoatkor va jasur, aqlli va bilimdon, saxovatli, to'g'ri so'z, sofdil, kamtar, o'zida xulq-odob, adolat, sabr-toqat, nafsni t'iyish, olijanoblik kabi fazilatlarini mujassamlashtirgan shaxslardir.

Navoiy xalq orasida insonparvarlik g'oyalarini tarqatdi, turli millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni ulug'ladi. Forobiy, ibn Sino, Beruniy va boshqalar singari, mukammal jamiyat haqida fikr yuritdi. Xalqni farovonlikka, baxt-saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm-istibdoddan holi bo'lgan davlat tuzumini orzu qildi. U ilm-fan egallashni afzal bildi, mol-mulkka, boylikka hirs qo'yishni, tamagirlikni qoraladi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, tinchlik, osoyishtalik va boshqa go'zal fazilatlar, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari, nasihatimiz so'zlari respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat

qilmoqda. Usha davrning ko'zga ko'ringan mutafakkirlaridan biri **Kamoliddin Xusayin Voiz Koshifiy** (taxm. 1440/1450 - 1505 yillarda yashagan) bo'lib, Urta Osiyo va Hurosonda ahloq falsafasi rivojiga hissa qo'shgan.

Koshifiy Sabzavor shahrida tavallud topadi, keyinchalik Abdurahmon Jomiyning taklifi bilan Hirotga ko'chib keladi. U qolgan umrini Hirotida o'tkazadi va shu erda vafot etadi. Koshifiy katta olim va mudarris bo'lib etishadi, butun umrini ilm-fan va nasru-nazm ravnaqiga bag'ishlaydi. U Navoiy va Jomiy bilan do'stona aloqada bo'ladi. «Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallus qilur, sabzavorlikdur. Yigirma yilg'a yaqin borkim, shahardadur va mavlono zufundun va rangin va purkor voqe' bo'libtur. Oz fan bo'lg'aykim, dahli bo'lmag'ay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mashhur ishlari bor...» - degan edi Navoiy uning haqida.

Temur avlodidan bo'lgan **Zahridin Muxammad Bobur** (1483-1530) o'sha davrning eng ma'rifatli podsholaridan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug'ilgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan saltanatga asos soldi. Bobur davrida hind dieri gullab yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli kishilari Mahatma Gandi va Javaharlal Neru Jahon, Avrangzeb va Akbar kabi temuriyzodalarga juda katta baho berganlar.

Takrorlash uchun savollar

1. Islom dini to'g'risida nimalarni bilasiz.
2. Tasavvufda komil inson taomilini Siz qanday tasavvur qilasiz.
3. Tasavvufdagi kubraviya, yassaviya va naqshbandiya tariqatlari to'g'risida nimalarni bilasiz.
4. Mashhur muhaddislardan kimlarni bilasiz.
5. Cizning nazaringizda diniy bag'rikenglik nima.

Adabiyotlar.

43. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
44. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
45. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
46. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
47. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
48. Spirkin A. Filofofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
49. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
50. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
51. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
52. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
53. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
54. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
55. Filofofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
56. Filosoфы i filosoфиya. M. 1998.

7-mavzu Uyonish davri evropa falsafasi.

Reja:

1. Uyg`onish davri evropa falsafasining mohiyati va mazmuni
2. Nikolay Kuzanskiyning falsafiy qarashlari
3. Nikolay Kopernikning tabiiy ilmiy qarashlari

Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg`or taraqqiet davrlaridan biri edi. Uyg`onish davrida haetning hamma tarmog`ida muhim, ilg`or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o`zgarishlar yuz beraetgan edi.

Uyg`onish davrida evropada falsafaning rivojlanishi katta hissa qo`shganlardan biri nemis **Nikolay Kuzanskiy**dir (1406-1461). Kuzanskiy ta`limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni baen qiladiki, hatto ma`lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o`tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha endoshishidir. Ushbu masalalar bo`yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g`oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan baen qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo`shgan uyg`onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi **Nikolay Kopernik**dir (1473-1543). Ma`lumki, fan tarixida Kopernik o`zining fanda tub o`zgarish yasagan geliotsentrik ta`limoti bilan mashhur bo`lgan. Uning ta`limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan qesh va yulduzlarning harakatlari aslida urning o`z o`qi atrofida kundalik aylanishidan va qesh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi er emas, qeshdir. Kopernikning buyuk kashfieti dunega teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to`ntarish yasadi. Bu kashfiet Bibliyaning dune tuzilishi haqidagi va o`zgarmas deb tanilgan ta`limotiga zarba berdi. Agar er olamning markazi emas, balki Qesh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo`lsa, unda duneni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo`lib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik **Jordano Brunodir** (1548-1600). U Neapol yaqinida tug`ilgan. .zining ilg`or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo`ladi. Uzoq vaqt Shvetsariya, Frantsiya, Angliya va Germaniyada quvginda yuradi. 1592 yilda Bruno italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o`zining ta`limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga huqm qilinadi, 1660 yil qu fevralda Rimda Gullar maydonida eqib o`ldiriladi.

Bruno geliotsentrik nazariyani himoya qilish va targ`ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta`limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak, uning ta`limoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko`p dunelar bizning qesh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko`rib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar - bu boshqa planeta sistemalarining qeshi. er - cheksiz dunening kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy-ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta`limotini qesh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Takrorlash uchun savollar

1. Nechanchi yilda Bruno italiyaga qaytib keladi
2. Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo`shgan uyg`onish davrining mutafakkirlari

Adabiyotlar.

57. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
58. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
59. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.

60. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadingi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
61. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
62. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
63. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
64. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
65. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
66. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
67. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
68. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
69. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
70. Filosofы i filosofiya. M. 1998.

8-mavzu Yangi davr va marifatparvarlik falsafasi

Reja:

1. Yangi davr falsafasining mohiyati va mazmuni
2. F.Bekonning emperizm tiliymotining asoschisi
3. T.Gobbsning ijtimoiy siesiy qarashlari
4. Marifatparvarlik falsafasi

Ingliz falsafasi. .sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri **F.Bekon** (1561-1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dune, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunesini eski chegaralar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon kitobi»). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrlardagi taraqqietiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini qo'rish uchun, tug'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini urab tashlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuv ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spetsifik xususiyatlari natijasida yangilishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri eki noaniq termonologiyalarga tanqidiy endoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan , u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan eki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'ridaki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqlidir. U tajriba ma'lumotlarini ratsional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalanmasligi kerak, o'rgimchakka o'xshab haetdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makrli falsafasini to'qimasligi kerak. Bekon ta'limoticha, olim asarlariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim.

Bekon o'zining ijtimoiy-siesiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat haetida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Uning ta'limotini **Tomas Gobbs** (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlantirgan. Gobbs modidiylikni asosiy substantsiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoen bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushunturgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jaraenidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqieti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida **Jon Lokk** (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan ezilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R.Dekartning «tug'ma g'oyalar» tug'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jaraenda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siesiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatnii qonun chiqaruvchi tizimi 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari~ 3. Ittifoq fedarativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Urta asrlardagi evropa falsafasi taraqqietida Frantsiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu boroda R.Dekart, Lametri, Gel'tseiy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R.Dekart (1596-1650) falsafasida dualizm asosiy o`rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida etadi va xudoga buysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog`liq bo`lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R.Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhur bo`lib hisoblanadi. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R.Dekart ratsionalizm ta`limotining asoschisi bo`lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo`lmaydigan jaraendir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o`sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo`lib, o`z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduktsiya usulini falsafaga kiritgan olim bo`lib hisoblanadi.

Lametri va Gel`vetsiy, Didro va Golbax o`z davrida frantsuz haetida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo`lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-xuquqlari muammolariga alohida e`tibor qaratganlar. Frantsuz millatini ma`naviy jihatdan yuksaklikka ko`tarish va ma`rifatli xalqqa aylantirish uchun o`z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishishning yo`llari va usullarini ko`rsatib berganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko`p tomlik «Entsiklopediya» o`sha zamonning ma`naviy muammolarini ma`rifatli yo`l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko`rsatib berilgan «evropa qomusi» darajasiga ko`tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko`pgina ma`rifatparvar frantsuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo`lib, o`zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy nuqtai nazaridan echilishi, xalqchilligi va tilining frantsuz millati haet tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr evropasining tengi yo`q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o`zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan quio-qiir yillardagi Frantsuz inqilobi qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlar deklaratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqietining eng ustivor ma`naviy mezonlariga aylantirdilar.

Takrorlash uchun savollar

1. Ijtimoiy-siesiy qarashlariga ko`ra Loka davlatning o`ziga xos quyidagi tamoyillari
2. T.Gobbsning ijtimoiy siesiy qarashlari

Adabiyotlar.

71. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
72. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
73. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
74. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
75. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
76. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebник). M. Gadariki. 2000.
77. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
78. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
79. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
80. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
81. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
82. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
83. Filosofiya (Uchebник). M. YuNITI, 2000.
84. Filosofы i filosofiya. M. 1998.

9-mavzu XVIII-XIX asrlardagi nemis klassik falsafasi

Reja

1. Nemis klassik falsafasining ilim fan taraqqietiga qushgan hissasi
2. I.Kantning falsafiy qarashlari
3. Gegelning dialektik taliymoti
4. Feyerbaxning antropologik falsafasi

Nemis falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa G'arbiy evropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siesiy jihatdan qoloq edi. Ammo frantsuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ximiya fanlari yutuqlarga erishdi, tabiatni o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi. Matematika fanida yangi ixtirorlar qilindi. Bu ixtiro va yutuqlar hamda insoniyat jamiyatining rivoji haqidagi nazariyalar borliqni o'rganishning uslubi va nazariyasi bo'lib xizmat qiladigan rivojlanish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqishni tarixiy bir zaruriyat qilib qo'ydi. Mana shunday tarixiy sharoitlar taqozasi bilan XVIII asrning II yarimi va XIX asr boshlarida nemis falsafasi vujudga keldi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri **Immanuil Kant** (1724-1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan qesh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zarba berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqalarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant ta'limoti bo'yicha, falsafaning eng muhim muammolari bo'lmish - borliq, axloq, degan masalalarini tahlil qilish uchun eng avvalo, inson bilimining imkoniyatlari va chegaralarini aniqlamoq kerak. Bizning bilimlarimiz narsaning xodisasini, ya'ni bizga qanday holatda namaen bo'la olishini (fenomen) bila oladi. Ular bizning tajribamiz mazmunini tashkil qiladi. «Narsa o'zida»ning bizning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasida sezgilar xaosi vujudga keladi. Bu kaos bizning aqlimiz quvvati bilan tartibga solinadi va bir butunga aylantiriladi. Biz tabiat qonunlari deb bilgan narsalar aslida aql tomonidan xodisalar dunesiga kiritilgan aloqadir. Boshqacha qilib aytganda, bizning aqlimiz tabiatga qonunlar kiritadi. Lekin xodisalar dunesiga inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalarning mohiyati, ya'ni «narsa o'zida» mos keladi. Kant inson aqlining cheksiz qudratiga ishonchsiz qaraydi. Inson bilimining nisbatan cheklanganligiga u ma'lum axloqiy ma'no beradi. Uningcha, agar inson mutlaq bilimga ega bo'lsa, unda axloqiy burchni bajarishi uchun kurash ham, intilish ham bo'lmardi.

Kant ta'limoti bo'yicha, makon va zamon g'oyalari insonga uning tassavurlaridan oldin ma'lumdur. Makon va zamon real emas, balki faqat tushunchada, g'oyalardir.

Bilish nazariyasida Kant dialektikaga katta o'rin beradi. Qarama-qarshilikni bilishning zaruriy omili sifatida qaraydi.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji **Gegel** (quu0-qieq) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishadi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. .sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Kantning «narsa o'zida» haqidagi ta'limotiga qarama-qarshi qilib, shunday ta'limotni ilgari surdi: «Mohiyat namoen bo'ladi, hodisa mohiyatdan ajralmasdir». Hegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning ob'ektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «duneviy aql», «mutlaq g'oya» eki «dune ruhi» etadi. Uz-o'zini anglash jaraenida duneviy aql uch bosqichni bosib o'tadi:

1. Uz-o'zini anglovchi mutlaq g'oyaning o'z xususiy qobig'ida bo'lish bosqichi~ tafakkur jaraenida, ya'ni bu holatda g'oya dialektika kategoriyalari va qonunlari tizimida o'z mazmunini, mohiyatini namoen qiladi. Bu bosqich Hegel falsafasining mantiq bosqichidir~

2. "oyanning o'zidan «begonalashuvi» ya'ni tabiat hodisalari shaklida namoen bo'lish bosqichi, ya'ni bu bosqichda tabiatning o'zi rivojlanmaydi, faqat kategoriyalar sifatida rivojlanadi. Bu bosqich Hegelda tabiat falsafa bosqichidir~

3. G'oyaning tafakkurda va insoniyat tarixida rivojlanish bosqichi. Bu bosqich Hegel falsafasida ruh falsafasi bosqichidir. Mana shu yakkuniy bosqichda mutlaq g'oya o'ziga qaytadi va uzining inson ongi va o'z-o'zini anglash shaklida o'z mohiyatiga qaytadi.

Rivojlanish g'oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jaraenda miqdor o'zgarishlarning tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Hegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida baen qilingan.

Hegel fikricha, tarix duneviy ruhning eki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoen bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoen bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jaraen qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunesi~ 2. Yunon dunesi~ 3. Rumo dunesi~ 4. German dunesi:

Insoniyat tarixini mana shunday bosqichlarga bo'lib, ularga baho berishda Hegel ochiqdan-ochiq irqchilik ruhidagi ta'limotga yuz tutadi. Uningcha, sharq xalqlarida erkinlik bo'lgan, faqat yagona zuravon hukmronning erkinligi tan olishgan. Shuning uchun bu xalqlardagi erkinlik - bir tomondan xukmronning zulmi, hirslarning keng quloch eyishi, ikkinchi tomondan ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish xalq ruhiga xos bo'lgan bir xususiyat bo'lgan. U yunon-rumo dunesida esa, erkinlik bo'lgan, lekin ular juda cheklangan, faqat ayirim kishilar uchun amal qilgan. Shuning uchun yunon-rumo dunesining davlatchiligi qullikni inkor qilmagan.

Hegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan xoli emas edi. Chunki uning falsafiy ta'limotida bilimning ob'ektiv asosi mutlaq ruhdir, maqsadi esa shu mutlaq ruhning o'z-o'zini anglashidir, oxirgi bosqich o'z-o'zini anglash bilan yakunlanadi. Hegel falsafasi mana shu masalani amalga oshirishga qaratilgan.

XIX asrning oxiridan boshlab g'arb mamlakatlarida, Hegel falsafasi atrofida turli falsafiy maktablar oqimlar vujudga keladi. Bu falsafiy maktablar ichida ma'lum nufuz va ta'sirga ega bo'lgan oqim «esh hegelchilar» oqimi edi. Bu oqimning o'sha davrdagi asosiy namoyandalari orasida aka-uka Bruno va Edgar Bauerlar alohida ajralib turar edi.

Dastlab mana shu oqimga mansub bo'lgan K.Marks (1818-1883) va F.Engel's (182-1895) keyinchalik materialistik jihat va ateistik tamoyillar ustuvor bo'lgan, qarama-qarshiliklarning kurashi tamoyili mutlaqlashtirilgan o'z ta'limotini ishlab chiqdilar. Uning asosiy nazariyalarini haetga tatbiq qilishga dav'at qildilar. Ularning ta'limoti marksizm falsafasi degan nom oldi. Keyinchalik bu falsafa sotsialistik lager deb atalgan mamlakatlarda davlatning mafkuraviy doktrinasiga aylandi, «ilmiy kommunizm» g'oyalari asosida insoniyat tarixining tabiiy jaraenini proletariat diktaturasi deb atalgan davlat va hokimiyat yuritish usuli orqali zo'rlik bilan o'zgartirish ta'limotini ko'pchilik ommaga, siesiy partiyalarga, mafkuraga singdirishga harakat qildi.

Takrorlash uchun savollar

1. I.Kantning falsafiy qarashlari
2. Feyerbaxning antropologik falsafasi

Adabiyotlar.

85. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
86. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
87. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
88. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
89. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
90. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
91. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
92. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
93. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
94. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
95. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
96. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
97. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.

98. *Filosofy i filosofiya*. M. 1998.

10-mavzu Noklassik falsafasining shakllanishi va rivojlanishi

Reja

1. Noklassik falsafasining xususiy tamonlari
2. Pozitivizm falsafasi
3. Ekzistentsializm falsafasi
4. Postpozitivizm falsafasi
5. Neotomizm falsafasi

XX asrning boshlaridan 80 - yillarning oxirigacha dunening juda katta xududida hukmronlik qilgan bu mafkura sobiq Ittifoq tarqalishi bilan uning xududida o'z ustuvorligini yo'qotdi. Uning katta salbiy oqibati ayniqsa o'tmish madaniy va falsafiy merosiga bo'lgan munosabatda yaqqol namoen bo'ldi. Bu falsafaning metodologik printsiplari - sinfiylik va partiyaviylik xolis xulosalar chiqarishga imkon qoldirmas edi. Ularga mos kelmaydiga har qanday ta'limot qoralanar, hatto butunlay inkor qilinadi. .tmish merosining qay darajada umumbashariy, umumjahon ahamiyatiga ega ekanligi e'tibordan chetda qolardi.

So'nggi yillarda sotsialistik lagerning parokandalikka uchrashi, sobiq ittifoq tarikibiga kirgan ko'pgina jumhuriyatlarda shu jumladan, .zbekistonda mustaqil milliy davlatlarning vujudga kelishi, ularning o'z xalqi milliy ruhiga xos va mos mafkura metodologiyasi asosida muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib boraetganligi marksistik falsafaning haet talablariga javob beraolmaydigan, xalqlarning ruhiga et bo'lgan g'ayramilliy ta'limot ekanligidan dalolat beradi.

Bu ta'limotning ba'zi tarafdorlari G'arbda «neomarksizm» oqimiga birlashganlar. Ularning bir qismi marksizmni isloh qilish, zamonga moslashtirishga harakat qilsalar, boshqalari esa yana Marksga qaytish lozim, deb hisoblaydilar. Kezi kelganda ta'kidlash joizki, marksizmga vaqt o'z bahosini berdi. Ana shu bahoni xolis qayd etish bu ta'limotning mustabid tuzum mafkurasiga aylantirilishi qanday oqibatlarga olib kelgani yaqqol ko'rsatish uchun asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mazkur ta'limot to'g'risida umuman gapirmaslik emas, balki uni tanqidiy tahlil etish orqali, tahiyat va mazmunini ochib berish, oqibatlarini yaqqol ko'rsatishga imkon yaratadi.

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiet sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. Bu esa falsafiy fikrning taraqqietida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalish va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqsad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma-xil oqim va yo'nalishlar mavjud. Uz navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadri, biror ta'limotni mutlaqlashtirmaslikdir. Bag'rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta'limotlar rang-barangligini ta'minlaydi.

An'anaviy falsafada, turli g'oyaviy tizimlarga bo'linishiga qaramay, muhim muammolarni hal etishda ma'lum bir umumiylik mavjud edi. Hozirgi zamon falsafasida aksincha, falsafiy muammolarning ko'p xilligi va o'ziga xosligi, turli-tumanligi, ular asosida falsafiy oqimlarning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

An'anaviy falsafada aql - inson mohiyatining belgilovchisi, deb talqin etilgan bo'lsa, endi ratsionalizmga qarshi insonning mavjudligi (ekzistentsializm) muammolari, hamda uning noratsional mohiyati ilgari surila boshladi. Ya'ni ilgari ma'rifatparvarlik g'oyasi ustuvor bo'lsa, endilikda ko'proq inson huquqlariga e'tibor kuchayib ketdi. Falsafa gueki, mavhumlikdan aniqliq tomon bordi, umumiy emas, aniq-ravshan masalalarni hal qilish boshlandi.

An'anaviy falsafada hodisalar mexanika qonunlari asosida tushuntirishga harakat qilingan bo'lsa, endi bunday tahlil doirasidan chetda qolgan muammolar o'rganila boshlandi.

Bugungi kunga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «**neo**», ya'ni yangi, zamonaviylashgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat haetidagi o`rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta`limotlarni asosan ikki yo`nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri - **stsientizm** (lot scienta - fan) ya`ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqietining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy duneqarash. Stsientizm g`oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta`limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi - **antistsientizm**, ya`ni fan taraqqietini jamiyat haetiga salbiy ta`sir ko`rsatishini asoslovchi falsafiy duneqarash. Bunday duneqarash ekzistentsializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba`zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqietining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat haetini xavf ostiga qo`ymaslik talabi bilan bog`likdir.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko`pchilik nemis olimi **Artur Shopengauer** (1788-1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoen bo`lishi, irodani esa ongsiz ko`r-ko`rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari - irodaning namoen bo`lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo`lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irrotsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson haeti doimo aylanib turgan iroda g`ildiragiga bog`likdir.

Shopengauer ta`limotini davom ettirgan nemis faylasufi **Fridrix Nitsshe** (1844-1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo`lgan irodadir». Nitsshe inson borlig`ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning dierimizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta`limotini o`rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g`oyasi ilgari surilgan. U o`z ortidan irodasiz kishilar ommasini etaklashga qodir bo`lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo`lgan. Nitsshening tsivilizatsiya va madaniyatning so`nishi va barham topishi to`g`risidagi g`oyasiga asoslanib, qoqi yilda G.Shpengler «evropaning so`nishi» degan asarani ezadi.

Utgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma`naviy turg`unlikdan chiqishning yo`lini G`arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko`rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo`ldi.

Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo`lgan neotomizm ham eqlab chiqdi. Neatomizm shu bugunga qadar ham o`z mavqeini yuqotmagan bo`lib, katolik cherkovi tomonidan qo`llab-quvvatlanadi. bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikanning faoliyati muhim o`rin tutadi.

Neotomizm - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo`lib, u o`rta asrlardagi (III asr) Foma Akvinskiyning ta`limotini qaytadan tikladi. U (neo - yangi, tomizm - «foma», transkriptsiyada «toma» bo`lib o`zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta`limoti demakdir. Bu ta`limotga ko`ra, ilm va e`tiqod o`rtasida to`la muvofiqlik, uyg`unlik bor. Ular bir-birini to`ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat.

Neotomistlar duneni, jamiyatni xudo yaratgan, jamiyat taraqqietini xudoning rejasi asosida boradi, deydlar. Diniy teologiya oqimi bo`lganligidan neotomizm albatta, ilohiy qadriyatlarni ustuvor qo`yadi. Ammo u din va uning jamiyatdagi o`rniga, o`zining nomi kelib chiqishiga sabab bo`lgan, Foma Akvinskiy zamonidan farqli endoshadi. XX asrda bunday o`taketgan aqidaparastlikka o`rin yo`q. Neotomizm hozirgi tsivilizatsiyali duneda tsivilizatsiyalashgan ta`limot sifatida maydonga chiqmoqda. Uz navbatida bu demokratiya ustivor bo`lgan haet tarziga muayyan darajada mos keladi.

Neokantchilik XIX asr o`rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I.Kant o`z davrida qo`ygan ilmiy bilishning umumiyli va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta`limotga ko`ra, inson haetidan kimdir o`z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o`zi hoqlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamotchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, unga zid ish qilmaydigan, ammo o`z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqietini bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo`nalida ishlaetgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germeneytika kabi falsafiy qarash namoendalari misol bo`ladi.

Neopozitivizm oqimning yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo - yangi~ pozitiv - ijobiy degan ma`noni anglatadi. Neopozitivizm "arbda XIX

asrning w0-yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqietisiz mavjud bo'la olmaydi. Falsafa - ob'ektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilaetgan ilmiy, ya'ni ijobiy (pozitiv) xulosalarni o'rganib, tahlil qilib ularni mantiqan bir tartibga, sistemaga solishi kerak.

Kont falsafaning o'zi mustaqil ravishda ob'ektiv dune to'g'risida hech qanday aniq bilimlar logika qonunlari shu paytgacha yig'ilgan bilimlarni baholashi, uni «absolyut g'oya, ruh» to'g'risidagi ortiqcha fikrlardan tozalashi kerak va yangi falsafani yaratishi kerak, deb ta'lim bergan.

Neopozitivistlar **verifikatsiya printsiptini** ilgari suradilar (lot. Veritas - haqiqat.) ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu printsipt keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng **postpozitivizm** (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **fal'sifikatsiyalash metodini** ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyligini mantiqiy - lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60-70 yillariga kelib, nepozitivizmning mavqei kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va germenevtika chiqdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi - Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasini bilish uning ob'ektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday printsiptga, umumiy mantiqqa ega.

Germenevtika - qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun erga yuborilgan elchisi - Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika - tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalarga asosiy diqqatini qaratadi.

Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jaraenida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi haetning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat.

Bu oqim vaqillari Shleyermaxer va Dil'tey fikricha, biror bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30-yillariga kelib «**ekzistentsial falsafa**» rivojlandi. Ekzistentsiya - tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistentsiyalizm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunesi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida umumlashtirdi.

Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor zielilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistentsial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi.

Ekzistentsializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri - duneviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel') bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra inson o'zining yaratish jaraenini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib etishishi doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan loyihaga o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratiladigan ichki holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, chunki bunda inson o'zi, boshqlarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistentsializm vakillari Yaspers va Marsel' fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida xudoga qarab unga etishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlilikali onlarda, tashvishda, elg'izlikda namoen bo'ladi. «ahlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha anglaydi. Haet va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistentsialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi **pragmatizm** AQShda keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foydaga» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch.Pirs, U.Djems, J.D'yui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmui sifatida ta'riflaydilar.

Insonning hatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini xatosiz turuvchi vosita - intellektidir. J.D'yui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga erdam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga erdam berishdan iborat. D'yui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Djems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa eki hodisadir.

Pragmatizm AQSh ijtimoiy-madaniy haetining qadriyatlarini ifoda etib, u erdagi ishbilarmonlar, menedjerlar, siesatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazarietchilarini xalqning duneqarashi o'zgarishida, xozirgi amerikacha haet tamoyillarini keng ommaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J.D'yuini «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar.

Jamiyat taraqqietiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII-XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj.Viko, XVIII asrda yashagan I.G.Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoendasi Xegel katta xissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqietini to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiet va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdori.

Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bol. Yangi davr falsafasida tarqalgan ana shunday oqimlardan biri **marksizm** bo'lib, uning asoschisi nemis iqtisodchisi va faylasufi K.Marksdir (qiqi-qiie). Uning ijtimoiy falsafasi kapitalizmga sinfiy kurashning mutlaq antogonizm darajasiga ko'tarilishi, oxir-oqibat proletariat diktaturasining o'rnatilishi va shu yo'l bilan sinfsiz jamiyatga o'tishni targ'ib qiladigan va real haetni aks ettirmaydigan nazariyadir.

Keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limot dastlab K.Marks va F.Engel's ezgan «Kommunistik partiya manifesti»da baen qilingan. Uning nazariy asoslari K.Marksning «Kapital», F.Engel'sning «Anti-Dyuring» va «Tabiat dialektikasi» asarlarida ta'riflab berilgan bo'lib, ijtimoiy haetda salbiy oqibatlariga olib keldi. U borliq tushunchasini materiya bilan aynanlashtirgan, ruhni butunlay inkor qilgan, materializm va ateizmni mutlaqlashtirgan.

Bu ta'limotning K.Kautskiy, V.Plexanov boshliq mu'tadil tarofdarlari keyinchalik sotsial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V.Lenin boshchiligidagi tarofdarlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida inqilobiy sakrash yo'lini tanlashga olib keldi va Rossiyaning terror yo'liga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi duneqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin to'tishi ma'lum bo'ldi. Marksning hozirgi davrdagi tarofdarlari «**neomarksizm**» oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashi mutlaqlashtirmaslik, inqilobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlarini jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqietini belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmaqda.

Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O.Shpengler (1880-1936) va ingliz tarixchisi A.Toinbi (1889-1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O.Shpengler o'zining «evropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir - biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmga) bo'ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, eshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich - madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi - uning tanazzuli («tsivilizatsiya»).

O.Shpengler evropotsentrizimga, ya'ni barcha madaniyatlarni evropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi.

Yana bir olim A.Toinbi esa o'zining qw jidlik «Tarixni o'rganish» asarida madaniyatlarning lokal rivojlanish g'oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti Shpengler kontseptsiyasidan o'zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o'z haetini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiet zaruriyat va erkinlikning o'zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqietning davriy modeli duneviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g'oyasi bilan boyitilgan.

Toynbi G'arb xristian tsivilizatsiyasining tanazzulga qarab boraetganligini ko'rsatib, uning oldini olish yo'lini ma'naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi. Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqietining tsivilizatsion kontseptsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqietining bosh mezoni - sanoatning rivojlanish darajasidir.

Takrorlash uchun savollar

1. Rim imperiyasi haetining so'nggi davrlaridagi falsafiy oqimlarni sanab bering.
2. «yg'onish davri» tushunchasini qanday talqin etasiz .
3. Milliy falsafiy maktablar deganda nimani tushunasiz.
- 4 Milliy falsafiy maktablarning umuinsoniy yutuqlari nimalarda namoen bo'ladi.
5. «Nemis klassik falsafasi»mi eki «Nemis milliy falsafasi»mi. Bu masalaga sizning munosabatingiz.

Adabiyotlar.

99. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
100. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
101. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
102. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
103. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
104. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
105. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
106. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
107. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
108. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
109. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
110. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
111. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
112. Философия и философия. М. 1998.

11-mavzu. Borliqning mazmuni va mohiyati

Reja:

1. Borliq va uning mavjudlik shakllari.
2. Borliq va yo`qliq, mavjudlik va reallik.
3. Ontologiya tushunchasi

Borliq tushunchasi. Faylasuflar qadim zamonlardan *buen»borliq»* va *«yo`qlik»* haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko`plab asarlar ezishgan. Xo`sh, borliq nima. Bu savol bir qarashda juda oddiy ko`ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo`q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog`lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq - ob`ektiv reallikning qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o`y-haellarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar ob`ektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta`limotni izohlaydigan qismi - **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Vol`f qo`llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o`rganadi.

**Yo`qliq** hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham intihosi ham yo`qliqdir. Bu ma`noda yo`qliq cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo`qliq chekingan joyda borliq paydo bo`ladi. Demak, borliqning bunedkori ham, kushandasi ham yo`qlikdir. Borliq yo`qlikdan yo`qlikgacha bo`lgan mavjudlikdir. Yo`qlikni hech narsa bilan qieslab bo`lmaydi. Fanda yo`qlik nima, degan savolga javob yo`q.

Borliq haqidagi kontseptsiyalar. Tarixdan ma`lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g`oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osie tuprog`ida vujudga kelgan zardo`shtiylik ta`limotida borliq qesh va olvning hosilasidir, alanganib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi, deb hisoblangan. Chunki bu g`oya bo`yicha, har qanday o`zgarish va harakatning asosida olov etadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot borliqni bilim bilan qieslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo`ladi, insonning bilimi qancha keng bo`lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunening atomist olimi Demokrit borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo`lmagan narsa yo`qlikdir.

**Islom ta`limotida esa borliq** bu ilohiy voqelikdir. Ya`ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta`limotlari bo`lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta`limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, Forobiy fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o`zidir. Beruniy fikricha, borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida etadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. evropada o`tgan olimlar David Yum va Jorj Berkli borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan.

Hegel borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoen bo`lishi, deb ta`riflaydi. Ko`pgina naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya`ni shu aktual olamga bog`lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo`lib o`ziga butun mavjudlikni, uning o`tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo`qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabietlarda borliqni ob`ektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o`ziga ob`ektiv va sub`ektiv reallikni, mavjud bo`lgan va mavjud bo`ladigan olamlarni, moddiylik va ma`naviylikni, o`tmish va kelajakni, o`limni va haetni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g`oyalar, o`y-xaellarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoen bo`lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat ob'ektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jismoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potentsial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat ob'ektiv reallikni, balki sub'ektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik-borliqning hozirgi paytda namoen bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga aen bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabietlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borlig'i** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jaraenlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (eki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning itirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- **inson borlig'i** (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga hos bo'lgan insoniy borlig'i)~

- **ma'naviy borliq** (individuallashgan va ob'ektivlashgan ma'naviy borliq)~

- **sotsial borliq** (ayrim odamning tarixiy jaraendagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jaraenlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida etuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substantsiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa - moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini» - substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l - hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substantsiyasini axtarishning bu usuli gueki meva iste'mol qilaetgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, ko'chatiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima etishini, ya'ni ilk materiyani, azaliy materiyaning «bobokolonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida etuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'ektlarni, butun ob'ektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy. «Tomdir» deb ezishadi.

Albatta bu ta'riflarni bir eqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko'proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi mumkin bo'lgan reallik nazarda tutilgan.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkonibo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Olamning klassik mexanika nuqtai nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o'rnini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug'dirdi. Bu o'zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta'rifga sezgilarimizga bevosita eki bilvosita (ya'ni turli asboblar~ qurilmalar vositasida) ta'sir etuvchi, degan qo'shimcha kiritishdi. Shunday qilib, bu ta'rif gue materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ya'ni modda va antimodda ko'rinishlarini qamrab oluvchi ta'rifga aylandi.

Materialistlar materiyani ob`ektiv reallik, deb ta`riflashadi. Ob`ektiv reallik inson sezgilariga bog`liq bo`lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo`lgan voqelikdir. Bu butun mavjudlikning sub`ektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Ob`ektiv reallikning mavjudligi qanday namoen buladi. Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o`rganishga to`g`ri keladi. Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha «atribut» so`zi bilan ataladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Borliq haqidagi kontsepsiyalar.
2. Falsafaning borliq haqidagi ta`limotni izohlaydigan qismi nima deb ataladi

Adabiyotlar.

- 1.Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
- 2.Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
- 3.Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
- 4Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
- 5.Skirkbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
- 6.Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Философия и философия. М. 1998.

12-mavzu Falsafada materiya va substantsiya muammosi Reja

1. Substantsiya muammosi, uning mohiyati
2. Materiya haqida materialistik va ideolistik endashuvlar
3. Harakat, fazo va vaqt, makon va zamon.

Borliqning atributlari. Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo'ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir, Ular: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va boshqalar. Borliq o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoen bo'ladi. Endi borliqning atributlari, ya'ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to'xtab o'taylik.

Harakat. Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo'lmaganida edi, erug'lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo'lar edi, ya'ni biz uni ko'rmagan bo'lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekularlar, atomlar, elementar zarrachalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham bo'lmasdi.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o'zgarishlarning asosida etuvchi o'zaro ta'sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o'zaro ta'sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta'minlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. .zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlarga takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jaraenlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan endashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiy bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u eki bu ko'rinishda namoen bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, erning Qesh atrofida, Oyni er atrofida harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin er bag'rida ro'y beraetgan murakkab geologik jaraenlarni, er sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

.zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. **Rivojlanish** bu - muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiiy o'zgarishidir.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekularlardan, molekularlar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o'zining atrofida boshqa jismlarning va ulardan tarqalaetgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos ettirish jaraenida ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Takrorlash uchun savollar

2. Materiya haqida materialistik endashuvlar
3. Harakat, makon va zamon.

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T.

2000.

2. Karimov I. Falsafa fanidan leksiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.

13-mavzu O`zaro aloqadorlik va rivojlanish kategoriyalari **Reja**

1. Asosiy falsafiy kategoriyalar
2. Dialektikaning asosiy qonunlari
3. Falsafaning asosiy tamoyillari

Rivojlanish jaraeni ham ikki turda bo`ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo`yicha, jismda har qanday sifatiy o`zgarish ro`y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifatiy tuzilish darajasi o`zgarmasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo`lgan Queshdagi ravojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko`ra, hozir sirtida y ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo`lgan Quesh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya`ni Queshning markazidagi termoyadro energiyasi so`ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quesh shisha boshlaydi va er orbitasini ham o`z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so`ngra esa «qora karlikka», keyin bo`lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o`zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o`zgarmaydi, ya`ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o`simliklar va hayvonot olamining paydo bo`lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o`zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o`rganiladi. Materialist bo`lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritidilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoen bo`ladi~

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jahatdan ketma-ket bog`lang`an, ya`ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir~

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o`zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir.

Harakat shakllarini turlash bo`yicha quyidagi tabiiy-ilmiy kontseptsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur kontseptsiya bo`yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekularning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo`nalishida ajraladi, 1) harakat rivojlanishning yuqori yo`nalishida biologik harakat shakllanadi~ 2) harakat rivojlanishining quyi yo`nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiet ijtimoiy harakatga olib boradi.

Ijtimoiy harakat bizga ma`lum bo`lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo`lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o`zaro munosabatlari, jamiyat miqesidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo`lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o`ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. **Fazo** narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli eki uzluksizligini ifodalasa, **vaqt** hodisalarning ketma-ketligi, jaraenlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, hajmga ega. Fazo - vaqtning muayyan lahasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fozoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi xodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, forsiy til ta'sirida ezilgan adabietlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substantsial va relyatsion endashishlar mavjud. Substantsial kontseptsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substantsiya. Hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion kontseptsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

Fazo va vaqtning xususiyatlari. Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari esa, borliqning tub sifatiy jihatlarni ifodalaydi. Bunday xususiyatlarga uzuksizlik, bog'langanlik, o'lchamlilik, kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytmaslik, bir o'lchamlilik kabi xususiyatlar qo'shiladi.

Fazo (vaqt) ning metrik o'zgarishlari borliq strukturasini jiddiy o'zgartira olmaydi, topologik o'zgarishlar esa borliqning sifatiy o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Masalan, bir bog'langan sistemaning ko'p bog'langan sistemaga o'tishi fazo topologiyasini tubdan o'zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo'llar paydo bo'ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig'dirish mumkin bo'ladi. lcham darajasi ko'p bo'lgan sistema o'lchov darajasi kam bo'lgan sistemaga nisbatan ko'rinmas va murakkab bo'ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o'zgarishi topologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egrilik darajasi kuchli o'zgarsa, bir bog'langan fazo ko'p bog'langan fazoga aylanishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha
2. Borliqning asosiy yashash shakllariga

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma'ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.

14-mavzu Inson borlig'i Reja

1. Inson borligining uziga xos xususiyatlari
2. Ongning tabiyati va mohiyati
3. Individual va ijtimoiy ong borlig'i

Inson - falsafaning bosh mavzusi. Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rnini falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini rubeqa chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «Uzlingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq «ijdivoniy insonni «kichik olam» deb hisoblagan.

Tabiat madaniyat, siyosat, tsivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoen bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-birida farqlanadi.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar kiradi.

Falsafa tarixida inson to'g'risidagi ta'limotlarda biologizm, sotsiologizm, psixologizm kabi yo'nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sotsiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa, ma'naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariga bir eqlama endashishga asoslangan edi.

Uz-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak mas'uliyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin baen etish va ijtimoiy-siesiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo'lida hatto haetini qurbon qilish shaxs haetining bosh maqsadiga aylanadi.

Uzbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilaetgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Inson tarixining yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqietidagi uzluksizni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi~ tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqietida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoen bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Ong nima. inson azal-azaldan o'zigagina xos bo'lgan ongning nima ekanligi to'g'risida o'ylab, bahslashib keladi. Bu bahslarning bir jihati, ong tabiat mahsulimi eki inson ongi ilohiy yaratilganmi. degan masaladan iborat. Ikkinchi jihati esa, inson duneni doimo bir xil anglaganmi. Ya'ni asrlar davomida inson ongi takomillashib kelganmi eki hamon o'sha-o'shami. degan muammo bilan bog'liq.

«Uzingni bilsang, olamni bilasan», - degan edi Suqrot. Aforizmga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham siru sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, degan g'oya etibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buen uni o'ylantirib kelaetgan muammolardan biri ongning mohiyati, uning kelib chiqishi masalasidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ongning tabiatni anglash masalasi - eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli, xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiet, sotsiologiya kabi fanlarning tadqiqot mavzui doirasiga kirgan bo'lsa-da, ongning mohiyati, uning turli ko'rinishlari o'rtasidagi munosabat kabi masalalarni o'rganish bilan aynan falsafa shug'ullanadi.

Ongning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jaraenida turli xil javoblar bo'lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namaoen bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy.

Ong moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday endoshuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan.

Falsafa tarixida «**Vul'gar materializm**» deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday endoshuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi.

Ho'sh, ong tarixan qachon va qanday omillar ta'sirida shakllangan. U haqiqatan ham miya bilan bog'liqmi.

Ong tarixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liqdir. Uzoq vaqt davomida inson, uning ongi planetar, ya'ni er shari doirasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani masalaga kengroq doirada endashish zarurligini ko'rsatmokda. Chunki fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat erda kechgan jaraenlar bilan cheklab qo'yish to'g'ri emasligini, u koinot evolyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik va ijtimoiy harakatnin tashuvchisi ekan, harakat shakllari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari qo'yi shakllariga bog'liqligini, tayanishini, ulardan o'sib chiqishini unutmaslik lozim. Boshqacha aytganda, ular o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud.

In'ikos shakllari evolyutsiyasi va ong. Ong in'ikosning oliy shaklidir. Xo'sh, in'ikos deganda nima tushuniladi. In'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Buning uchun esa, hech bo'lmaganda, ikkita ob'ekt bo'lishi va ular o'rtasida o'zaro ta'sir bo'lishi lozim. Eng umumiy ma'noda, har qanday predmetlarning u bilan ta'sirlashuvda bo'lgan boshqa predmetlarning ta'sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog'liq xossasiga in'ikos deyiladi.

Shu ma'noda in'ikos hamma joyda mavjud. Ayni paytda har bir holatda u o'ziga xos xususiyatga egadir. Chunonchi, notirik tabiatdagi in'ikos bilan tirik tabiatdagi in'ikos bir-biridan tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in'ikos oddiyligi bilan ajralib tursa, tirik tabiatda u murakkab xarakter kasb etadi.

Ayni paytda axborotli in'ikosning o'zi tirik tabiatning har bir darajasida yanada murakkablashib, o'ziga xoslik kasb etadi. Mana shunday murakkablashuv jaraeni psixik in'ikosning shakllanishiga zamin yaratdi. Aynan psixik in'ikos darajasida voqelikka aktiv munosabat ham shakllanadi, in'ikosning ilgarilab borshidan esa, o'z navbatida, uning o'ziga xos, yuqori shakli bo'lgan ongning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi.

Ong va miya. Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo'lgan tizimdir. Aynan uning murakkabligi ang paydo bo'lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bunday holat ham uzoq davom etgan evolyutsiyaning tabiiy hosilasidir.

Ammo yuksak darajada tashkil topgan miyaning o'zi ham hali ong paydo bo'lishi uchun etarli emasligini unutmaslik lozim. Bu miya normal funktsional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart.

Shu o'rinda vul'gar materialistlar qarashlariga yana bir marta murojaat qilish lozim. Agar ular haq bo'lganida edi, hayvonot olamiga tushib qolgan inson bolalarida ham ong shakllangan bo'lishi kerak edi. Ular hayvonlar orasida bo'lganida ham jigar safro ishlab chiqareveradi. Ammo, miya hodisa ekanligi va u faqat jamiyatdagina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Ong va ruhiyat (psixika). Ong psixik in'ikosning o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu psixika va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Gap inson psixikasi haqida ketganda ham, u ong tushunsiga nisbatan keng qarovlilik kasb etishini unutmazlik lozim.

Z.Freyd fikricha, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o'zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson haeti va faoliyatida ong bilan qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega.

Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuitsiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga oladigan bo'lsak, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti deyish mumkin. Ong osti hodisalari ham psixik jaraenlarning muhim bo'g'inidir. Z.Freyd fikricha, ular ongsizlik bilan ong o'rtasidagi chegaraviy sohadir.

«Gap tagida - gap bor, kosa tagi - nim kosa» naqlida ong ostida xos bo'lgan xususiyatlar ifodalangan, deyish mumkin. Negaki, har qanday faoliyatimizda ayni vaqtda biz uchun ahamiyati bo'lmagan holatlar bo'ladi. Ammo, bu ular kuzatishdan, nazoratdan chetda qoladi, degani emas. Biz uchun ahamiyatli xarakter kasb etganda, ular ong ostidan ong sferasiga ko'chishi mumkin. Masalan, biror joyga boraetganda, asosan, maqsadga tomon harakat qilinadi, ammo yo'lda uchragan boshqa narsa va hodisalar ham kuzatiladi, esda qoladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, ong osti inson ongli faoliyatining o'ziga xos kuzatuvchisi, zarur bo'lgan hollarda tsenzori sifatida chiqishdek sifatarga ega, deyish mumkin.

Ongning tuzilishi. Ong o'zaro aloqada bo'lgan turli unsur (element)lardan tashkil topgan murakkab ma'naviy tuzilishga ega.

Ong in'ikosning o'ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks ettiriladigan ob'ekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va ratsional shaklda o'z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Ong tuzilishining yana bir unsuri xilma-xil ko'rinishlarda namoen bo'ladigan kechinmalardir. Ularda in'ikos ob'ektiga munosabat gavdalanadi. Bilimlarimizning chuqurligi va ko'lamliliigi, hissiyatlarimizning namoen bo'lishi eki bo'lmasligi intilishimiz - irodamizga bog'liq. Iroda kuchi olamni anglash jaraenida yuzaga keladigan har qanday to'siqlarni engib o'tishga, ko'zlangan maqsad yo'lida tinmay harakat qilishga yo'l ochadi.

Ong va til. Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladi. Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular erdamida jonzodlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Xatti-harakat eki boshqan belgilar erdamida uzatilaetgan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo'ladi. Bundan farqli o'laroq inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan xoli bo'lishi, unga bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Boshqacha u o'zida o'tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunesida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko'rsatuvchi muhim xususiyatdir.

Til qayd qilinganidek, belgilar tizimidir. Fan yuksak taraqqiy qilgan hayvonlarda axborot uzatishga xizmat qiladigan murakkab belgilar tizimi mavjud ekanligi va u hayvonot olami evolyutsiyasi bilan bir paytda takomillashib borganligini isbotlamoqda. Demak, til yo'q joydan, birdaniga paydo bo'lib qolmagan. Ong in'ikos shakllarning uzoq davom etgan evolyutsiyasining tabiiy hosilasi bo'lganidek, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashish borishi jaraenining zaruriy natijasidir.

Shu bilan birga milliy tillar bir qatorda ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan internatsional til-fan tili, uning tushunchalari va formulalari ham borligini unutmazlik kerak.

XX asrda qo'llanish doirasi tobora kengayib boraetgan elektron hisoblash mashinalarining «beysik», «fortan» kabi tillari yaratildi. Komp'yuterlarning ijtimoiy haetdagi roli tez o'sib boraetgan hozirgi davrda bu «til»lar axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jaraenlarning yanada tezlashaetganligini ko'rsatmoqda.

Ong va til munosabati haqida gap ketar ekan, til o'ziga xos tarixiy xotira rolini o'tashini ham unutmazlik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Zero, millat tilida uning o'zligi,

bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkur tarzi aks etadi, mustahkamlanadi. «Ona tili, - deb ezadi Prezidentimiz, bu millatning ruhidir. .z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar».

Shunday ekan, mustaqilliq sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e'tibor berilaetganligi milliy o'zligimizni anglashimizning o'tish jaraenida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qarolmog'i lozim.

Uz-o'zini anglash, uning shakllari. Inson ob'ektiv voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechaetgan jaraenlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega.

Uzini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoen bo'ladi. Uz-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga - sub'ektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Insonning kamol topish jaraeni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o'zining imkoniyatlarini o'zi baholashga o'rganib boradi. Aynan mana shu davrda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jaraenida u mansub bo'lgan madaniyatning o'rni nihoyatda katta. Zero, aynan madaniyat xalq, millat to'plagan tajriba, bilimlarni o'zida mujassamlashtirishgan holda shaxs duneqarashi shakllanishiga faol ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham shaxs madaniyati, xulqu odobi, ongi o'z-o'zini anglashining darajasini belgilovchi indikator sifatida namoen bo'ladi.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jaraeniga turli ijtimoiy-iqtisodiy, siesiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta'sirlar mavjudligi shaxsning o'z-o'zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta'minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagina ijtimoiy muammo shaxs haetini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta'sirlar domiga tortishi mumkin. «Mana shunday bir vaziyatda odam, - deb ezadi I.A.Karimov, - o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan haetiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan duneqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli mafkuralarning bosimiga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi tayiqlariga bardosh berishi amri-mahol».

Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib boraetgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

Ong va axborot. Keyingi yillarda «Informatsion portlash» tushunchasi ham tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu komp'yuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch - qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning engillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. Asrimizning o'rtasida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan komp'yuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi q0 millionlab murakkab operatsiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Ayirim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o'n yilda, informatsiya olish esa har e-r yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o'zlashtira oladimi, degan savol ko'ndalang bo'lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo'lmagan yaqin o'tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o'zlashtira olar edi.

Takrorlash uchun savollar

1. Psixika va ong koinot evolyutsiyasining tabiiy natijasi deganda nimani tushunasiz.
2. Ong nima. Nega u ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega deyiladi.
3. Ong va tilning birligi deganda nimani tushunasiz.
4. Uz-o'zini anglash nima.
5. «Informatsion portlash» nimani anglatadi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.

2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kulanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kulanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Filosofı i filosofiya. M. 1998.

15-mavzu. Gnoseologiya bilish nazariyasi

Reja:

1. Bilish va bilim - falsafiy tahlil mavzui.
2. Bilishning ob`ekti va sub`ekti. Inson bilishining asosiy bosqichlari.
3. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari. Metod, nazariya va metodologiya.
- 4 Haqiqat tushunchasi. Uning shakllari.
5. .zbekiston istiqloli va bilimli eshlarni tarbiyalash masalalari.

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o`rganish falsafa tarixida muhim o`rin egallab kelmoqda. Inson o`z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o`z-o`zini o`zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug`ullanuvchi maxsus sohasi - gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko`p qirrali, murakkab va ziddiyatli jaraendir. **Gnoseologiya** asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug`ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiylaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo`yadi.

Xususan XVII asr o`rtalarida evropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o`rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug`ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g`oyani olg`a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg`u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I.Kant bilish natijalarining haqiqiyliyi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo`yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima. Bilish insonning tabiat, jamiyat va o`zi to`g`risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma`naviy faoliyat turidir. Inson o`zini qurshab turgan atrof-muhit to`g`risida bilim va tasavvurga ega bo`lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug`ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo`lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro`y beradi.

Insoniyat ko`p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o`zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jaraenida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o`ziga xos bo`lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g`arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o`rganuvchi maxsus soha - etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o`rganish bilan shug`ullanadi. Nazariy bilishning ob`ekti, sub`ekti va predmeteni bir-biridan farqlash muhim.

**Bilish ob`ekti.** Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san`atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jaraen, munosabatlar bilish ob`ektlari hisoblanadi. Bilish ob`ektlari moddiy, ma`naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo`lishi mumkin. Bilish ob`ektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo`lgan borliqni qamrab oladi. Bilish ob`ektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

**Bilish sub`ekti.** Bilish bilan shug`ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish sub`ekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish sub`ektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish ob`ekti, ham bilish sub`ekti sifatida namoen bo`ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborot emas, balki bilish jaraenida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan-fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat

qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi.

Bilish predmeti sub'ektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish ob'ektning ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlari bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: qo'yi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning qo'yi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, **hissiy bilish** deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalaniishi uchun erdam beradi. Bilishning qo'yi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xael tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga erdam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, **aqliy bilish** (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari erdamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoen bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoen bo'ladi.

Tushuncha. Aqliy bilish eki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jaraenida orttirgan barcha bilimlari mujassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarining mahsuli sifatida shakllandi. Har bir fan o'ziga xos tushunchalar apparatini yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I.Kantning fikricha, narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ya'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jaraenida biron bir bilimga ega bo'lamiz.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash eki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu tasdiqlash eki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodolovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini e tasdiqlaydi eki inkor etadi. Masalan, «inson aqli mavjudotdir», degan hukmda insonga xos eng asosiy belgi - aqlning mavjudotligi tasdiqlanayapti.

Xuloso - aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo'lishi, ya'ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga eki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo'lishi ham mumkin.

Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xaelni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi **intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilish**dir. .zining butun borlig'ini fan, din, siesat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, echimini kutaetgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir.

Ilmiy bilish fakt va dallilarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dallilar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha - **metodologiya** deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar~ 2) umumiy ilmiy metodlar~ 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi. Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduktsiya, qieslash va modellashirish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga koʻr-koʻrona sigʻinish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqieti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim oʻrin tutadi. **Haqiqat** inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish eki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat oʻz mazmuniga koʻra hamisha obʼektivdir. Yaʼni uning mavjudligi ayrim kishilarning hoqish-irodasiga bogʻliq emasdir. Masalan, .zbekistonning milliy mustaqilligi obʼektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish eki olmasligidan qatʼi nazar, bu haqiqat oʻz mazmunini saqlab qalaveradi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning oʻziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos boʻlgan obʼektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezon deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr oʻrtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo boʻlgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli endashuv vazifasini qoʻya boshladi.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obʼekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik koʻrsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez oʻzgaruvchi sistemalar bilish obʼekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos boʻlgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab maʼnaviy haetini, ijtimoiy-siesiy munosabatlarni, qarashlar va gʻoyalarni ham oʻrganadi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni toʻgʻrisida zarur bilimlarga ega boʻlish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan etuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida oʻrin tutadi. Bilish nazariyasi boʻlajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy laeqat va qobiliyatlarni shakllantirishga koʻmaklashadi. Milliy mustaqilliq yillarida gnoseologiya oldiga qoʻyilaetgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqieti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini taʼminlaydigan omil va mexanizmlarni oʻrganish, ulugʻ ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Takrorlash uchun savollar

1. Gnoseologiya nimani oʻrganadi.
2. Bilish nima.
3. Hissiy va ratsional bilishning oʻziga xosligi nimada.
- 4 Bilish obʼekti, subʼekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini koʻrsating.

Adabiyotlar.

15. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
16. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
17. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
18. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
19. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
20. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
21. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
22. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
23. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
24. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
25. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
26. Falsafa. (Uquv qoʻllanma. M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
27. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
28. Filosofы i filosofiya. M. 1998.

16- mavzu Falsafiy antropologiya

Reja

1. Inson falsafa nuqtai nazaridan
2. Falsafiy antropologiyani paydo bulishi va rivojlanishi
3. Sharq falsafasida inson muammosi

Antropologiya inson mohiyati, uning tabiat va jamiyatdagi o`rnini, o`ziga xos xususiyatlarini o`rganish bilan shug`ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to`laroq ochish uchun «men», «ong», «shaxs», «ruh» tushunchalari qo`llanadi. «Men» - insoning o`zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashdir.

Insonning ma`naviy ehtiylarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham bireqlamalikka olib kelishi, etilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to`g`ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Antropologiya insonning ma`naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali olam mohiyatini bilish mumkin, degan g`oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta`rifiga ko`ra, ma`naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iymon-e`tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. Yuksak ma`naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdur.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida tarixiy shart-sharoit, ayniqsa, g`oya va mafkura muhim o`rin tutadi. Bozor munosabatlariga o`tish davrida mujudga kelgan muammo va vazifalar yangi barkamol insonni voyaga etkazishni taqozo etdi. Unga xos fazilat va sifatlar Prezident Islom Karimov asarlarida asoslab berilgan.

Bozor iqtisodieti inson ehtiylarini to`laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o`zgarganligi~
- mehnatga yangicha munosabatni rag`batlantirishga erdam beruvchi omillar~
- o`z qobiliyati, qiziqtirishlariga mos bo`lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi~
- shaxs tadbirkorligi va ish bilarmonligining qo`llab-quvvatlanishi~
- turli mulk shakllarining vujudga kelganligi~
- shaxs erki va huquqlarining kengayganligi~
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi~
- demokratik qadriyatlar rivoji~
- ma`naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma`naviy ehtiylarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirishlaetgan barcha islohotlar inson manfaatlarini, uning ezgu maqsadlarini ruebga chiqishini ta`minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandir.

Insonning jamiyatdagi o`rni, qadr-qimmatini borasida milliy istiqlool o`z oldiga qo`ydagilarni maqsad va vazifa qilib qo`yadi:

- insonning qadr-qimmatini joyiga qo`yish~
- inson uchun baxtli haet sharoitlarini yaratish~
- insonning o`zligini anglashi, ijtimoiy burch va vazifalarini ado etishi, sog`lom avlodlar uzluksizligini ta`minlashi, kelgusi avlodlarga yaxshi xotiralar qoldirishi va iymon-e`tiqodi butun bo`lishi uchun qulay sharoitlar yaratish.

Shaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviy bog`liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiet yo`lida paydo bo`lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o`z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g`oyalarga sodiq bo`lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

Bozor munosabatlariga o`tish sharoitida inson qobiliyatlari to`laroq namoen bo`ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jaraenida kishilarning boy va qashshoq guruhlarga ajralishi tabiiy qonuniy jaraendir. .zbekistonda amalga oshirilaetgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati - aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalanihida, ko`p bolali oilalar, nafaqaxo`rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanihida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoen bo`lyapti.

Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishga ega ekanligidan dalolat beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Borliq va yo`qlik tushunchalari to`g`risida nimalarni bilasiz.
2. Mavjudlik va reallik nima.
3. Harakat va uning asosiy shakllari to`g`risida so`zlab bering.
4. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma`nolarni anglatadi.
5. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi.

Adabiyotlar.

29. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
30. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
31. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
32. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
33. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
34. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
35. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
36. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
37. Falsafa. (Ukuv kulanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
38. Falsafa asoslari. (Ukuv kulanma). T. «Uzbekiston», 2007.
39. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
40. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
41. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
42. Философия и философия. М. 1998.

17 - mavzu. Globallashuv falsafasi.

Reja:

1. Globallashuv Yangi falsafiy mavzu
2. Globalla muammolarning mohiyati va turli darajalari
3. Globalla muammolarning klassifikatsiyasi

Jamiyat nima. - Insoniyat azal-azaldan jamoa bo`lib yashaydi. er sayerasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quesh tizimidagi ana shu mitti sayerada yashaetgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma`noda jamiyat odamzodning umri, haeti o`tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog`liq barcha o`zgarish va jaraenlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat xududidagi odamlar haeti, tsivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo`llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo`lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a`zosi deb ataladi.

Jamiyat - tabiatning bir qismi, ya`ni ijtimoiy borliq bo`lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o`rtasida amal qiladigan juda ko`plab munosabatlar yig`indisi, degan turlicha ta`riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtieji paydo bo`ldi. Prezident Islom Karimovning qator asarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslari yaratildi.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo`lib, jamoa bo`lib uyushishga nima majbur qilga, degan masala qadim zamonlardan oq ulug` mutafakkirlar e`tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish - uni ilohiy kuch, xudo bilan bog`lab izohlashdir.

Duneviy qarashlarga ko`ra, odamlar o`zlarining moddiy va ma`naviy ehtiejarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo`lib birlashishga ko`nikkan. Kishilar haeti tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo`lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jaraenda o`zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma`naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma`naviy ehtiejarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jaraenida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari - oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o`rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so`z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma`naviy ehtiejarini qoldirishga erdam beradi.

Insonning moddiy ehtiejlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o`zini himoyalash, zurriet qoldirish qabildan iboratdir. Ma`naviy ehtiejlarga olamni bilish, o`zlikni anglash, duneqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san`at, g`oya, mafkura go`zallik bilan, ma`naviy kamolot yo`lidagi intilishlar kiradi.

Insonning asl mohiyati moddiy ehtiejlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoen bo`ladi. Inson aqlli ehtiejarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma`naviy olamni uyg`unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o`z maqsadlariga mos ravishda o`zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma`naviy va moddiy ehtiejarini madaniy shakllarda oqilona va to`laroq qoldirish imkoniga ega bo`ladi.

Jamiyatning moddiy haetiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo`lgan iqtisodiy shart-sharoitlar~

- ziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, eqilg`i, kommunikatsiya vositalari~

- moddiy ne`matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste`mol qilish~

- ishlab chiqarish jaraenida kishilar o`rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui~

- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar~

**Jamiyatning ma`naviy haetiga** olamni tushunish, jamiyat va inson to`g`risidagi qarashlar, nazariyalar, ta`limotlar, g`oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta`lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassalari va boshqalar kiradi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiylari qondirilishida mehnat, mulk va tehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqies ahamiyatga ega. Mehnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanidagan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o'ziga xos o'rin egalaydi, jamiyat taraqqietiga muayyan hissa qo'shadi.

Jamiyat taraqqietini to'g'risidagi nazariyalar. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiet sabablarini diniy ong taraqqietidan izlagan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliy bunday nazariyaning bir eqlama va xato ekanini ko'rsatadi.

Jamiyat haetiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siesiy barqarorlikka ehtiy sezadi.

Barqarorlik - jamiyat taraqqietining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siesiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud sieiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, sieiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruebga chiqarilib bo'lgan, uning bundan keyingi taraqqietini yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud sieiy tuzum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini haetga tadbiq etadi. Insoniyat haeti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jaraen va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siesiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siesiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga etadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarini namoen etadi. barkamol insonni shakllantirish, uni haetga, mehnatga tayerlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotining mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilaetgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ael muqqadasligi o'zbekona qadriyatdir. Xadisi sharifda ona va aelning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz xususiyatlariga mos bo'lgan yangi alifboga o'tish uning mavqei oshirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Davlatning jamiyat haetidagi o'rni va ahamiyati. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqietining muhim yutug'idir.

Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siesiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. .zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha endashish zarurati vujudga keladi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqietning o'zbek modeli kontseptsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o'rin tutadi. Mamlakatimizning siesiy, huquqiy haetida amalga oshirilaetgan tub islohotlar siesiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

Fuqaroliq jamiyatini barpo etish - .zbekiston taraqqietining bosh maqsadi. **Fuqaroliq jamiyati** kishilarning yuksak axloqiy-siesiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqietining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqaroliq jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarini barpo etish kishilarning yuksak siesiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siesiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ruebga chiqarish maktabidir.

Yurtimizda fuqaroliq jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. .z navbatida, ma'naviy etuk avlod jamiyat taraqqietiga salmoqli hissa qo'shadi. Shunday etuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va haetga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Insoniyat jamiyatining taraqqietini hech qachon va hech qaerda oson, beto'siq kechmagan. Har doim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat stixiyasining natijasi o'laroq namoen bo'ladigan er silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, qesh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokazolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siesiy-madaniy haetga oid bo'lgan antropogen muammolardir.

Jahon miqesida yuz bergan jaraenlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda insoniyat uchun o'tkir, dolzarb bo'lib turgan **global muammolar** quyidagilardan iborat:

a) er yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarini oldini olish (urush va tinchlik muammosi)~

b) atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammo):

v) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo):

g) er yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash~

d) ochlik, qashshoqliq va qolloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ulardan keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish~

e) xavfli kasalliklarni tugatish~

e) inson ma'naviy-axloqiy muhiti sofligini ta'minlash (etikologiya muammosi) va boshqalar.

Bu muammolarning har biri u eki bu darajada ijtimoiy-siesiy, iqtisodiy, huquqiy nuqtai-nazardan ilmiy tahlil etilgan. Ayni vaqtda davrimizning umumbashariy muammolarini falsafiy talqini ham ilmiy adabietlarda o'z ifodasini topmoqda.

Global muammolarni falsafa nuqtai nazaridan o'rganishda dastavval ularning mohiyati, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo'llarini umummetodologik jihatlarini tadqiq etishga e'tibor berilmoqda. Buning uchun bu muammolarni tahlil qilishda falsafaning tarixiylik, mantiqiylik, tizimiylik kabi tamoyillariga suyanilmoqda. Global muammolar insoniyat rivojlanishining natijasi hisoblansa-da, hozirgi zamon sharoitida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning ham oqibatidir.

Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra ularni uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiati, turli mintaqa davlatlarining xilma-xil manfaatlarini bilan taqozo etilgan muammolar.

Ikkinchi guruhi, «inson - jamiyat» tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar.

Uchinchi, «jamiyat - tabiat» tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar.

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansa-da bu sohalaridagi umumiylik, dastavval, butun insoniyatning haeti shart-sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir.

Ikkinchi tomondan, ular u eki bu darajada hozirgi davrning bosh omili - fan-texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. Bizning davrimizda fanning rivojlanishi sur'atlari g'oyat kattadir. Fanda erishilgan kashfiyatlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlasa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Bularning natijasi o'laroq erishilgan kashfiyatlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib keladi.

er yuzida inson paydo bo'lgandan beri kishilar turlicha madaniy darajasi, xohish-istaklari va hokazolari bilan bir-biridan farq qilib kelganlar.

Insoniyat o'zining bir haet tarzidan ikkinchisiga, masalan, ko'chmanchi chorvachilikdan dehqonchilikka o'tishi jaraenida tayer mahsulotlarni iste'mol qilishdan, ularni qayta tayerlash va ekin ekib, ularni yangitdan etishtirishga o'tishi bilan ijtimoiy munosabatlar rivojlanib ketdi.

Xususiy mulkchilik munosabatlarning qaror topishi bilan kishilik jamiyatida hukm surgan sodda ko'rinishdagi ijtimoiy tenglik barham topib, uning o'rniga mahsulot olish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar yuzaga keladi. Kishilar ijtimoiy haetining tashkil etilganligi jamiyat ilgarilama harakatida notekislik va mavjud muammolarni hal etishda urushlardan vosita sifatida foydalanish zaruriyatini keltirib chiqardi. Hozirgi vaqtda eng katta global muammo bo'lgan urush va tinchlik muammosini ana shu tarzda jamiyat ichki rivojlanishi jaraenlari maydonga keltirgan.

Ma'lumki, urush va tinchlik muammosi mamlakat ichida eki uning tashqarisida, mamlakatlar o'rtasidagi munozarali masalalarni hal etishda siesiy zo'raonlik ishlatish, exud uni istisno etishni bildiradi. Tinchlik xalqlarning xohish-irodasi, orzu-umidi bo'lsa, urush esa, aksincha, hukmron kuchlarning siesati oqibatidir. ezma edgorliklarning guvohlik berishicha, so'nggi y ming yil davomida, er yuzida 15 mingdan zied urushlar sodir bo'lgan. Shu davr ichida atigi 300 yilgina urushsiz kechgan.

Amerikalik olim R. Klarkning «Urush ilmi va tinchlik» kitobida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, turli davrlarda yuz bergan urushlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1820-1850 yillarda er yuzida q mlrd. aholi yashagan, ow urushda 800 ming kishi halok bo'lgan, 1860-1899 yillarda 1-6 urushda 1,3 mln., 1900-1949 yillarda esa 117 ta urushda 1425 mln. odam qirilib ketgan. Ko'rinib turibdiki, urushlar va qurbonlar soni aholining o'sishiga qaraganda tezroq o'sgan. Kitobda ko'rsatilishicha, urushlar va halok bo'lgan kishilar sonining oshib borishi natijasida shunday kun keladiki, Sayera aholisi urushlarda qirilib ketishi mumkin. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda siesiy manfaatlarining ustunligi urushlarning kelib chiqishiga imkon tug'dirdi.

Bizning davrimizda ham mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar sohalarida zo'rovonlikka intilish, buning uchun yalpi qirg'in qurollarini ko'plab ishlab chiqish bilan harbiy ustunlikka erishish u eki bu davlatlar tashqi siesatining muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Shunday bir vaziyatda, termoyadro urushiga yo'l qo'yilgudek bo'lsa, jahon miqesida shunday halokat yuz beradiki, uning natijasini hisob-kitob qiladigan mavjudotning o'zi bo'lmay qoladi. 1945 yil 6 va 9 avgustida ikkita kam quvvatli atom bombasining amerikaliklar tomonidan Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlari ustida portlatilganligi oqibatlari ham buni yaqqol ko'rsatgan edi.

Insoniyatga 50 yildan ko'proq vaqtdan beri xavf solib turgan atom dahshati oqibatlarini matematikaning hozirgi yutuqlari asosida modellastirish ko'rsatdiki, bizning davrimizda to'plangan 50 mingdan ortiq yadro zaryadlarini 100-150 megatonna (Xirosimaga tashlanganidan 10-15 marta katta) quvvatga ega bo'lgan qismi (bitta atom suv osti kemasidagi portlovchi modda 200 megatonna) portlatilsa, Amerika, Ovro'pa va Osiedagi asosiy shaharlar eng'in ostida qolib ketishi, bir oydan so'ng er ustidagi atmosfera harorati 15-20, Sibir` markazida va ayrim mintaqalarda esa 40-45 pasayib uning aylanishi (tsirkulyatsiyasi) mutlaqo o'zgarishi, Shimoliy yarim shardan janubga qarab tarqalgan nur o'tkazmaydigan qora qatlam butun sayerani qoplab olishi yuz beradi.

Chuchuk suvning barcha manbalari muzlaydi, barcha ekologiyaviy aloqalar uziladi, hosil haloq bo'ladi. er ustidagi haet tugaydi. Aftidan, okeanlarda ham shu hodisa ro'y beradi. Bularning hammasi

shuni ko'rsatadiki, yadro quroli siesat vositasi, va hatto urush vositasi ham bo'lmay, balki insoniyat uchun o'z-o'zini halok etish qurolidir.

Global muammo sifatida tinchlikni ta'minlash harbiy harajatlarni keskin kamaytirishni ham taqozo etadi. Negaki, 1900 yildan beri harbiy ishga ajratilgan mablag'lar 30 martadan ko'proq oshib, 90-yillar boshida 100 mlrd dollardan ham yuqori bo'ldi. Harbiy eki u bilan bog'liq ishlab chiqarish sohalarida 60 mln. kishi faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, muntazam qo'shinlarda 25 mln. dan ortiq shaxsiy tarkib, 10 mln. yarim harbiy qo'shilma, harbiy muassalarda ishlovchi 5 mln. fuqaroviy kasb egasi bor.

Hozirgi vaqtda oddiy qurol yarog'larning ham vayronlik keltiruvchi kuchi yadro quroli darajasiga yaqinlashib qolmoqda.

Sayerada global tinchlikni ta'minlash ehtiejleri 130 dan ortiq rivojlanaetgan mamlakatlarda ijtimoiy jaraenlarni jadallashtirish vazifalari bilan o'zaro bog'liqdir. Bu davlatlar uzoq vaqt mobaynida G'arb davlatlarining mustamlakasi eki ularga boshqa vositalar bilan bog'liq bo'lib qolgan edi.

Global muammolardan yana biri ochlik, qashshoqliq va savodsizlikni oldini olish uchun rivojlangan va rivojlanaetgan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni oldinin olishdan iborat.

Rivojlanaetgan mamlakatlar turlicha tarzda va turlicha muddatlarda kechgan kurashlardan so'ng siesiy mustaqillikka erishgach, yangidan yaratilgan siesiy tizimlar asosida o'z iqtisodietini, davlat tizimini barpo etishga kirishdilar. Ularning ichidagi bir qancha mamlakatlar sobiq sotsialistik tuzum davlatlari bilan g'oyaviy, savdo-iqtisodiy va harbiy siesiy sohalarida keng hamkorlik qilgan edi. Lekin bularda ham, boshqalarida ham iqtisodietda, uning bilan taqozo etilgan ijtimoiy haetning barcha sohalarida qoloqlik davom etaveradi.

Tashqi omil ilgari mustamlaka eki qaram bo'lgan xalqlarning o'tmishi bilan bog'liqdir. .tmishda ularning xo'jalik haeti zo'rlik bilan o'zgartirilgan, ko'pincha turg'un holda bo'lgan qoloq siesiy munosabatlar saqlab qolingan edi.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin ham sobiq mustamlakalarda metropoliyalar yirik markazlarining iqtisodiy ta'siri davom etishi ularning xo'jalik taraqqieti yo'nalishi ustivor darajada sobiq metropoliya bilan mavjud aloqalarni davom ettirishga qaratildi. Natijada xalqaro monopolistik guruhlarining qoloq mamlakatlar ustidan ho'jayinlik qilishi davom etaveradi.

Aksariyat rivojlangan davlatlar «uchinchi dune» mamlakatlariga xomashe manbai, salmoqli bozor va kapital chiqarish uchun qulay soha sifatida qaraydilar. Pirovardida, rivojlanaetgan mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning tashqi omillariga bog'liq bo'lib qolmoqdalar.

Ichki - omil bu sobiq mustamlaka mamlakatlari iqtisodietining ko'p ukladlili, uning ichida belgilovchi mavqe mayda tovar ishlab chiqarishga asoslanligidadir. Ma'lumki, bu uklad ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xalaqit beradi.

Sobiq mustamlakalardagi qoloqlikni ifodalaydigan jihatlardan yana biri shundaki, rivojlanaetgan mamlakatlarning aksariyatida amaldorlarning o'z vatani oldidagi burchi, ma'suliyati va vazifalarini tug'ri ado etish o'rniga kuchli iste'molchilik kayfiyatida bo'lishidir. Ular vatanparvarlik tuyg'usini o'ziga xos tushunadilar. Ko'p hollarda ular pastdan yuqorigacha poraho'rlikka moyildirlar. Buning natijasida rivojlanaetgan mamlakatlarga kelitiraetgan zararning qanchalik kattaligi o'z-o'zidan ravshandir.

«Uchinchi dune» mamlakatlarida aholi asosiy qismining turmush tarzida qadimiy an'analarni o'zgarmsdan saqlanib kelinaetganligi ham rivojlanishiga jiddiy zarar keltirmoqda. Chunonchi, rivojlanaetgan mamlakatlardagi an'anaviy duneqarash va din mehnat, jamg'arish, vaqtni tejash singari masalalardagi iqtisodiy o'sish talablariga mos kelmaydi.

Rivojlanaetgan mamlakatlar ijtimoiy qoloqliligining ko'лами keng, uning omillari shunday taibatga egaki, bu qoloqlik hech qachon o'z-o'zidan bartarf etilmaydi, aksincha chuqurlashib borish mayliga ega. Aholining ko'pchilik qismi qashshoqligini ortib boraetganligi ijtimoiy ofatga aylanib qolmoqda. Mamlakat miqesidagi iqtisodiy qiyinchiliklar u eki bu tarzdagi umumdavlat dasturini amalga oshirish imkonini bermayapti.

Bunday katta xavfning mavjudligi taraqqiyparvar kuchlarni o'ylantirib qo'ymasligi mumkin emas. Ularning tashabbusi bilan rivojlanaetgan mamlakatlarning muammolari BMT darajasida bir necha marta muhokama ob'ekti bo'ldi. Bu muammolar hozir ham bu tashkilot diqqat - markazidadir.

Hozirgi vaqtda insoniyat ma'naviyati sofliğini saqlab, uni ma'naviy qashshoqlikdan, ma'naviy tanazzuldan asrash ham umumbashariy muammoga aylanib bormoqda.

Gap shundaki, zo'ravonlik va nafrat kishilar o'rtasidagi munosabatlarda chuqur ildiz otib, ma'naviy muhitni tobora zaharlamoqda. Buni to'xtatib qolish va keskin kamaytirishga erishish vazifalari insoniyatning dune miqesida kuch-g'ayratlarini birlashtirishni taqozo etmoqda.

Albatta, «etikoxavf», «etikofalokat» nomi bilan qayd etilgan hodislar u eki bu darajada insoniyat rivojlanishining o'tmishida ham uchragan va tsivilizatsiyaning yo'ldoshi bo'lib kelgan. Bir tomondan madaniyat rivojlanib, boyib, tobora umuminsoniy tus olib borsa, ikkinchi tomondan turli-tuman manfurlik va og'u timsoli bo'lgan jinoyatchilik, banggilik, fahsh, terrorchilik, ichkilikbozlik kabi illatlar ham kuchayib bordi.

Yaqin vaqtlargacha ma'naviy muhitni global darajada buzuvchi yuqoridagi illatlarning tabiatini izohlashda marksistik va «burjuacha» deb atalgan qarashlar mavjud edi. Chunonchi, birinchi nuqtai nazarga ko'ra, bularni faqat antagonistik jamiyatlar tug'diradi. Bu jamiyatlar o'niga sotsializmni barpo etish bilan ularning ijtimoiy ildizlari yo'qotiladi, deb hisoblanilardi.

Lekin ijtimoiy amaliy bunday qarashlarning xaeliy ekanligini ko'rsatdi. Dunening barcha qismida, shu jumladan, sobiq sotsialistik tizim mamlakatlarida, etiko-xavf mohiyatiga ko'ra umumiy ekanligi ma'lum bo'ldi. Bunday farq esa xavfli illatlarning namoen bo'lishi, turlari va tarqalganligi darajasini ifodalaydi, xolos. Chunonchi, AQSh bo'yicha shunday ma'lumotlar ma'lum: mamlakatda (1970-1980 yillarda) jinoyatchilik 3 marta, uning o'sish sur'atlari esa 10 baravar oshdi.

Bundan o'n yilcha oldin AQSh Prezidenti R.Reygan shunday degan edi: mamlakatda har 10 soniyada qasddan odam o'ldirish, har 10 soniyada - nomusga tegish, har 10 soniyada - haetga xavf soladigan hujum, har 30 soniyada avtomobil o'g'irlash va hokazolar sodir bo'lmoqda.

Bunga o'xshagan ahvolni boshqa mamlakatlarda ham ko'rish mumkin. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy jinoyatchilik soni oshib bormoqda

Jinoyatning bu ko'rinishi jamiyat rivojlanishining o'tish davri, deb atalgan bosqichlarida ayniqsa yalpi tus oladi. Chunonchi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan mamlakatlar hozirgi sharoitda bu hodisa bilan to'qnash kelib turibdi

«Eng qadimiy kasb» egalari ham etikologiyaviy muammoni keskinlashtirishda o'z «hissalarini» qo'shmoqda. Fahsh savdosi ko'p mamlakatlarda rivojlanib bormoqda. Shimoliy Ovro'pada pornofil'mlar, adabietlar chiqarishdan olinaetgan foyda o'nlab mlrd. dollardir.

Etikologiyaviy muammo tarkibida terrorchilikning o'rni alohidadir. Terrorchilik ijtimoiy antogonizm bilan bir vaqtda, uning shakllaridan biri sifatida kelib chiqqan. Uning xillari tobora ko'payib bormoqda. Hozirgi vaqtda siesiy terrorchilikdan tashqari, iqtisodiet bilan bog'liq terrorchilik ham kuchayib bormoqda. Chunonchi, havo qaroqchiligi yo'li bilan tayeralarni olib qochish, odamlarni garovga olish va evaziga pul olishga urinishlar tez-tez ro'y berishini axborot vositalari tarqatib turibdi. Terrorchilik o'zining bir qator belgilariga ko'ra uyushgan tus olmoqda. Pornografiya, islovatxonalar, so'ngra bangilik moddalarni tarqatish maqsadida davlat tizimidagi amaldorlarni sotib olishga erishib, o'z faoliyatini davom ettiraetgan mafiya buning yaqqol timsolidir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, erdagi haetni saqlab qolishning asosiy sharti yalpi qirg'in urushlarining oldini olish hamda sayeramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish uchun insoniyat kuch-g'ayratlarni birlashtirish lozim bo'ladiki.

Rivojlanaetgan mamlakatlardagi iqtisodiy qoloqlik bilan bog'liq bo'lgan yana bir global muammo - aholining hozirgi o'sishidir. Agar bu mamlakatlardagi iqtisodiy ahvol jamiyat rivojlanishi ichki qonuniyatlari bilan taqozolangan bo'lsa, demografiyaviy portlash insonning xohish-irodasi, mavjud an'analarga sodiqligi, madaniy darajasi, turmush mezonlari va xokazolar bilan belgilanadigan jaraendir.

er sathida ilk paleolit davri boshida 100-200 ming, so'ng paleolit boshida - 1 mln., neolit boshida - 10 mln., oxirida 10 mln, eramiz boshlarida - 230 mln. odam yashagan. Sayeramizdagi aholining soni hozirgi vaqtda, 5,5 mlrd. dan ortdi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2000 yilda er yuzidagi aholining soni y milliard 200 ming kishiga etadi. Bu raqamlarda aholining soni o'sib borganligi qayd qilingani ko'rinadi. Aslida esa bu raqamlar odamlarni tegishli moddiy vositalar (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va h.k.) bilan ta'minlash,

zarur ma'lumot darajasi, tibbiy va huquqiy xizmat, tegishli ijtimoiy muhofaza, esh avlod tarbiyasi masalasini ham kun tartibiga qo'yadi.

Olimlar aholining o'sishi bilan bog'liq masalalarga XVIII asrdaeq e'tibor berishgan. Xususan, ingliz iqtisodchisi R.T.Mal'tus bundan 200 yil avval shunday ezgan edi: «Agar past tabaqa sinflar nodonligi va buzuqligiga qaramasdan ko'payib boraversa, u holda ma'rifatli sinflar o'zlarining yaqinlariga bo'lgan nasroniylarcha muhabbati bilan hech nima qila olmaydilar»~ «Ota-onasi farzandining yashashini ta'minlash uchun zarur kapitalga ega bo'lmasa, bu farzandning yashashga qanday haqqi bor. Bunday farzand faqat xayr-ehsonga ko'z tikishi mumkin», «Boshqa kishilar tomonidan egallangan dunega kelgan odam... bu duneda mutlaqo ortiqchadir».

Mal'tusning bu qarashlari bilan hozirgi davrda ilgari surilgan nuqtai nazarlar umumiyday ko'rinadi. Masalan, Rim klubining taniqli vakili, matematik J.Forreyster modeli bo'yicha Massachusetts texnologiya instituti (AQSh) professori Denis Medouz va uning xodimlari tomonidan tayerlangan «.sish chegaralari» kitobida insoniyat rivojlanishining beshta parametrlaridan biri bo'lgan demografik portlash haqida gap boradi.

Muallif fikricha, agar aholining o'sishi hozirgi sur'atlar bilan borsa, 2000 yilga kelib hamma unumdor erlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi doirasiga tortilib bo'ladi. Nounumdor, sahro erlarni o'zlashtirish, dengiz suvini chuchuklashtirish, sun'iy oziq-ovqat yaratish va hokazolar esa juda katta xarajatni talab etadi. 2100 yilga kelib esa, bu resurslar tugaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, o'lim ko'payadi va h.k. Natijada, falokat ro'y beradi.

Mualliflar aholining ko'payishi masalasida mamlakatlar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni o'zgartirish kerak, deb ta'kidlaydilar.

Aholi o'sishi mintaqaviy xususiyatga ega. Mutlaq o'sishda mamlakatlarda aholi yillik o'sishi juda past bo'lsa-da, bu erda aholi uzoq umr ko'rishi eng yuqoridir.

Umuman, demografiyaviy portlashni izohlashda aholining qaysi joyni manzil qilganligiga ham ahamiyat berish lozim. Negaki, rivojlanaetgan mamlakatlarda asosiy aholi qishloqlarda, rivojlangan mintaqalarda esa shaharlarda yashaydi. Keyingi 20 yilda «uchinchi dune» qishloq aholisi 16. o'sdi (2,47u mlrd. kishi) va 2000 yil oxirida bu ko'rsatkich 17. bo'lishi kutiladi. Ma'lumki, qishloq shaharga qaraganda qoloq ishlab chiqarish, o'tmish an'analari saqlanib qolgan, ilgari qashshoqlik va ochlik hukm surib kelgan joydir. Aholining ko'payishi asosida zarur jamg'armalar va kapital mablag'larning etishmasligidan rivojlanaetgan mamlakatlarda yalpi qashshoqlik vujudga kelmoqda.

Dune bo'yicha ham shaharlar va ularda yashovchi aholi tobora ko'payib bormoqda. Bu sohadagi o'sish qour yildan qoor yilgacha 45. bo'ldi. Asr oxiriga borib, bu raqam 48. ga (3 mlrd. kishiga) etadi. Tabiiyki, stixiyali kechaetgan bu jaraenda echilishi zarur bo'lgan muammolar ham ko'payadi.

Aholining ko'payishi bilan birga uning tarkibida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda nafaqaxo'rlarning soni aholining ko'pchiligini tashkil etadi va ularning miqdori asr oxirida y0. ga etadi.

Demografik o'sish mavjud resurslarni taqsimlashga ham ta'sir etadi. Chunki, insonning muhim ehtiejarini qondirish uchun zarur hajmdagi tabiiy resurslar bo'lishi talab qilinadi. Bundan tashqari, aholi zich joylashgan mintaqalarda oddiy falokatlar ancha ko'p qurbonlar keltiradi.

«Inson va Jamiyat» tizimiga borib taqaladigan jiddiy global muammolardan yana biri, xavfli kasalliklarni tugatish vazifasidir. Bu kasalliklar, birinchi navbatda, aholi ko'payishini boshqarish va tashkil etish yo'lga qo'yilmagan mamlakatlardagi ochlik, oziq-ovqatlar tarkibidagi oqsillarning kamligidan ham kelib chiqmoqda.

Ma'lumki, jahon miqesida ochlik xavfi mavjudligi birinchi marta BMT tomonidan 1950 yilda tan olingan. .shanda insoniyatning qariyb yarmi etarli miqdorda kaloriyalı oqsil iste'mol qilaolmaetgani aytilgan edi. Halqaro tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanaetgan mamlakatlarda 60-yillarda 60. aholi u eki bu darajada ochlikdan azob ko'rgan bo'lsa, 20. aholi muntazam ochlikdan qiynalgan. 70-80 - yillarda bu sohada xalqaro miqesda ancha ish qilinganiga qaramay, muayyan darajada ochlikka duchor bo'lgan aholining mutloq miqdori 0,i mlrdni tashkil etgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga (etarli miqdordagi mablag'ning ajratilmasligi, malakali mutaxassislar etishmasligi va h.k.) ko'ra, jahon aholisining 40. vodoprovod suvi, kanalizatsiya va sanitariya xizmatidan foydalanmaydi. Bunday ahvol rivojlanaetgan mamlakatlarda ko'plab uchramoqda. .uz-o'zidan ravshanki, bularning hammasi epidemiyalar tarqalishiga olib keladi.

Rivojlanaётgan mamlakatlarda sil, bezgak kabi kasalliklar keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda bularning qatoriga SPID ham qo'shilmoqda. Shuningdek, yurak, ruhiy-asab kasalliklari, rak va shu kabilarning ko'payganligi ham tashvishlidir.

Kishilik jamiyatning tabiat bilan munosabatlari va ularning ifodasi bo'lgan faoliyat turlari g'oyat xilma-xildir. Ular ichida belgilovchisi moddiy ishlab chiqarish faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyat tufayli sayera qiefasi shunday o'zgardiki, oqibatda bir qator jiddiy muammolar kelib chiqdi. Ular - ekologik muammolar deb atalmoqda.

Ekologik mummolar ikki shaklda - tabiiy hodisalar va inson faoliyati ta'sirida yuz beradi.

XX asr boshlaridan beri ayniqsa, uning ikkinchi yarmi davomida ekologik falokatlar soni ko'payib bormoqda. Agar y0-yillarda inson va atrof-muhit uchun xavfli oqibatlar keltirgan rt ta yirik ekologik falokat yuz bergan bo'lsa, i0 yillarda bularning soni i0 ga etdi.

Ekologik muammolar rivojlangan va rivojlanaётgan mamlakatlarda birday uchraydi. Ayni vaqtda Afrika, Osie va Lotin Amerikasi mintaqalarida birinchi turkumdagi ekologik muammolar uchrasa, sanoati rivojlangan Ovro'pa, Shimoliy Amerika kabi mintaqalarda ikkinchi turkumdagi, ya'ni texnologik falokatlar oqibatlari uchraydi. Rivojlanaётgan mamlakatlarda ham bu turkum muammolar asta-sekin paydo bo'lib bormoqda. Chunki texnikaviy ravnaq bu mamlakatlar haetiga qanchalik tez kirib borsa, undan oqilona foydalanish talabi shunchalik o'tkir bo'lib bormoqda.

Inson ishlab chiqarish faoliyatining umumbashariy xarakteri bilan bog'liq qo'yidagi ekologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

1. er yuzidagi o'rmonlar hajmi har yili qq mln gektarga qisqarib bormoqda. Osie va Lotin Amerikasi tropik mintaqalaridagi o'rmonlarda esa yangilanib turadigan o'simlik resurslarining asosiy zaxiralari to'plangan. Bunda tashqari, Sayeraning boyligini tashkil etgan bu o'rmonlar biosfera an'anaviy funktsiyalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega. rmon ular tabiiy suv aylanishini ham ta'minlaydiki, o'rmonlardagi suv bug'lanishi hisobiga eg'ingarchilikning q/w qismidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Bu esa tuproq yuzasiga mo'tadil ta'sir ko'rsatadi, ozuqa bo'ladigan mineral moddalarning tiklanib turishligi ta'minlanadi.

2. Rivojlangan mamlakatlardagi eq mln gektarga yaqin erlar «kislotali emg'ir»lardan zararlangan va bug'langan. Bu «emg'irlar» biosferada tez tarqalib o'rmonlarga salbiy ta'sir etadi, barglari sarg'ayib tushib ketgan daraxt oqibatda halok bo'ladi. Zararlangan daraxtlarning fiziologik kuchsizlanganligi natijasida o'simlik xo'r hashoratlar ko'payishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Kislotali eg'ingarchilik havo va suvni zararlashi tufayli kishilarda yurak, o'pka, oshqazon-ichak kasalliklari avj oladi va allergiyaga moyillik kuchayadi.

Tuproq eroziyasi tufayli ishlanadigan er maydonining wy mln. gektarida har yili hosildorlik pasayib bormoqda. Suv va havo eroziyasidan AQShda unumdorli tuproq har yili e,q mlrd tonnagacha ishdan chiqmoqda. Bu etishtirilgan bir tonna bug'doy hisobiga y tonna tuproq yo'qotilishini bildiradi. Shuning uchun AQShda dehqonchilik ixtieriy qisqartilib, erlarning zaxiralarini saqlaydigan fermerlarga har yili har bir akr (0,rga) er uchun ri dollar to'lanishi to'g'risida qonun qabul qilingan.

3. XX asrning ikkinchi yarmida «katta qurg'oqchilik»larning tez-tez bo'lib turishi natijasida cho'llar maydoni yiliga y mln gektarga kengaydi. Natijada, o'simlik va hayvanot olamida salbiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Agar ilgari chullar hosil bo'lishi faqat tabiiy yo'l bilan yuz bergan bo'lsa, endilikda insonning o'rmonzorlarga yaroqli erlar nisbatining buzilishi, aholining tinimsiz ko'payishi natijasida sun'iy tarzda sodir bo'lmoqda.

4 Sanoatlashgan mamlakatlardagi minglab ko'llar biologiyaviy o'lik holga kelib qolmoqda. Har yili jahon suv xavzalariga ew kub km. tozalanmagan sanoat oqava suvlari kelib tushmoqda. Turli maqsadlar uchun suvga bo'lgan ehtiej tobora oshib borishi natijasida suv sarfi ham shunga yarasha ko'payib bormoqda. Afrika, Shimoliy Amerika va boshqa qator mintaqalarda er osti suvi manbalari kamayib, sifati keskin o'zgarib bormoqda.

5. Atrof-muhitga antropogen ta'sir etish, uni texnogen bulg'ash oqibatida hayvanot va o'simlik olami uchun jiddiy xavf yuzaga keldi. Har yili ko'plab hayvon va o'simlik turi yo'qolishi oqibatida w0 yildan so'ng mavjud turlarning beshdan bir qismi batamom barham topishi mumkin. Bu esa hayvanot va o'simlik olami genofondining qisqarishigagina olib kelmay, er biosferasida oqibati jiddiy bo'lgan o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

6. er yuzidagi ekologik o'zgarishlar oqibatida 2050 yilga borib atmosferadagi o'rtacha harorat 1,5-4,5 darajagacha ko'tarilishi kutilmoqda. Atmosfera yuqori qismlarida ozon qatlami siyqalanib,

Antarktida va Arktika ustidagi «tuynuklar» kengayib bormoqda. Ozon qatlamining emirilishi natijasida barcha jonli mavjudotlarga halokatli ta'sir etadigan qesh radiatsiyasi nurlari uchun yo'l ochilib ekologik falokatlar (o'simliklarda fotosintez jaraenining qisqarishi, kontserogen moddalar ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklarning ko'payishi va h.k.) ro'y berishi mumkin.

7. Tabiatda inson sog'ligi uchun xavfli bo'lgan metallar va ular birikmalarining yig'ilib qolishi tufayli zamondoshlarimiz tanasida, ibtidoiy odamlardagiga qaraganda, kadmiy (yurak kasalliklarining sababchisi) 70 marta, qo'rg'oshin (ateroskleroz va buyrak kasalliklari sababchisi) - 10, simob (asab kasalliklarini chaqiruvchisi va gepatik o'zgarishlar sababchisi) -19 marta ko'p to'plangan. Havoni bulg'ovchi moddalarning soni 100 dan ortadi, ularning ko'pi zaharli, ba'zilar esa kontserogen xususiyatlarga egadir.

Global muammolar tizimida jahonning barcha mamlakatlarida energiya quvvatining yangi manbalarini topish zaruriyati ham tobora birinchi o'ringa chiqmoqda.

Ma'lumki, energiya quvvati resurslari ikki xil - qayta tiklanmaydigan (neft, gaz, ko'mir) va tiklanadigan (suv quvvati, eg'och va h.k.) bo'ladi. Shuningdek, quvvat manbalarini tashqi (qesh) va ichki resurslari (masalan: atom yadrosi) tarzida ham tasnif etish mumkin.

Hozir atom reaktorlaridan orqali energiya elektr quvvati ishlab chiqarishning qt. ga to'g'ri kelmoqda. Keyingi paytlarda atom quvvatidan foydalanish xususida xilma-xil va qarama-qarshi fikrlar oldinga surilmoqda. Chernobil fojiasi bu boradagi tashvishlar o'rinli ekanini ko'rsatmoqda.

Jahon okeani resurslarini o'zlashtirish masalasi ham XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insoniyat oldida turibdi.

Umuman olganda, tsivilizatsiyaning butun tarixi davomida okean zaxiralari va imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalasi insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Okean kislorod etkazib beradi, g'oyat katta miqdordagi ma'dan xomashesi zaxiralari ega, oqsil xomashesi olish uchun zarur bo'lgan biomoddalarning salmoqli hajmda hosil etadi, iqlimni tartibga solib turadi va muhim transport yo'li hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda, hozirgi vaqtda jahon okeani jamiyat ilgarilama harakati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardandir.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz.
2. Jamiyatga xos belgilarni sanang.
3. Jamiyatning kelib chiqishi to'g'risidagi qanday nazariyalarni bilasiz.
4. Fuqaroliq jamiyati nima.
5. Jamiyatning rivojlanishida ma'naviyat qanday o'rin tutadi.

Adabiyotlar.

43. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
44. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
45. Aristotel «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
46. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
47. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
48. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
49. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma'ruzalar matni). T, 2001.
50. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
51. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
52. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
53. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
54. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
55. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
56. Философия и философия. М. 1998.

18-Mavzu. Mantiq ilmining predmeti va ahamiyati.

Reja:

1. Tafakkur mantiq ilmining urganish ob`ekti sifatida.
2. Tafakkur shakllari va qonunlari haqida tushuncha.
3. Formal mantiqning predmeti va vazifalari.
4. Mantiqnik urganishning ahamiyati

«Mantiq» arabcha suz bulib, ma`nosi buyicha «logika» suziga muvofiq keladi. «Logika» atamasi esa, grekcha «logos» suzidan kelib chiqqan bulib, «fikr», «suz», «aql», «qonuniyat» kabi ma`nolarga ega. Uning kupma`noligi turli xil narsalarni ifoda qilishida uz aksini topadi. Xususan, mantiq suzi, birinchidan, ob`ektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «ob`ektiv mantiq», «narsalar mantig`i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bulish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar urtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig`indisini (masalan «sub`ektiv mantiq» iborasida), va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini urganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining urganish ob`ektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» arabcha suz bulib, uzbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» suzlarining sinonimi sifatida qullaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan urni, bilishning boshqa shakllari bilan bulgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub`ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog`liq bulgan, uning ma`lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bulgan narsalarni tushunib etishga buysundirilgan buladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar uz oldilariga ma`lum bir maqsadlarni quyadilar. Ular urganilishi lozim bulgan predmetlar doirasi, tadqiqot yunalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya`ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon buladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma`lumotlar olinadi.

Yaissiy bilish q ta shaklda: sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. **Sezgi** predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta`mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. **Idrok** predmetning yaxlit yaqqol obrazi bulib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil buladi. Alohida olingan sezgilardan farqli ularoq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. **Tasavvur** esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma`lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma`lum bir umumiylikka ega bulgan) ta`sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir. Masalan, tanishingizga uxshagan kishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki qurmoqchi bulgan imoratingizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilaisiz.

Yaissiy bilishning barcha shakllariga xos bulgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish ob`ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) sub`ektga (indivdga, tug`rirog`i, uning sezgi organlariga) bevosita ta`sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog`liq bulgan boshqa predmet-signal ta`sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

Turtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog`liq tarzda uziga xos xususiyatga ega buladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bula olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan uzining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yuli bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning ob'ektini qayd etish orqali asoslanadi.  z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yunaltiladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan kursatmalari asosida jinoyatchining portreti yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish uz imkoniyatlari, chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar tuplami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot beradi. Unda mavjud predmetlar urtasidagi aloqadorlik (masalan muz bilan havoning harorati urtasidagi bog'lanish) urganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda hissiyotimiz bizni aldab quyadi. Masalan, uzoqdan sizga qarab yurib kelayotgan kishini tanishingizga uxshatasiz, lekin yaqinroq kelganda uning boshqa kishi ekanligi ma'lum buladi. Boshqa bir misol. Endi tanishgan kishingiz haqidagi dastlabki taassurot (bu asosan uning tashqi tomonidan kurinishiga qarab hosil qilinadi), u bilan muloqatda bulgandan keyin uzgaradi. Mana shu urinda «Kiyimiga qarab kutib olishadi, aqliga qarab kuzatishadi» degan maqolning hissiy bilish bilan aql urtasidagi uzaro munosabatni, farqni yaxshi ifoda qilishini ta'kidlash lozim. Yuqorida qayd etib utilgan holatlar bilishda tafakkurga bulgan ehtiyojni, uning mohiyatini, bilishda tutgan urnini chuqur anglashga yordam beradi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-ratsional (lotincha ratio-aql) bilish bosqichi bulib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular urtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega

1) Unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli ularoq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraktlashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilardagi) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ongga ega bulish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson»tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar urtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini urnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida uxshash va muhim belgilariga kura sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiq iy sinfga birlashtirilib, ular urtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2) Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar urtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon buladi.

3) Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bulmagan narsalar-yuqori darajada ideallashgan ob'ektlarni (masalan absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini urganish, hodisalarni oldindan kurish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4) Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush tulqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his

etadigan shaklga kiradi va odamlarning uzaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bulish shaklidir.

2. Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

TAFAKKUR SHAKLI fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi) dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida kurib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (tuplami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bulgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida uzining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bulgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. «Ilmiy nazariya» tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid bulgan va ular haqida yaxlit tasavvur beradigan, ma'lum bir metod yordamida qurilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bulgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga kura bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. «uz maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalariga egaligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «predmetlarning birorta sohasiga aloqadorligi», «predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkoniyat berishi», «ma'lum bir metod yordamida qurilishi», «tushunchalar sistemasi shaklida bulishi» ilmiy nazariyaning muhim belgilari hisoblanadi. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar urtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bulish yoki bulmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan «Temir-metall» degan hukmda predmet (temir) bilan uning xossasi (metall ekanligi) urtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquqdan ilgari paydo bulgan» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) urtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bulgan bu hukmlar tuzilishiga kura bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) urtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning Sga xosligi tasdiqlangan. Umumiy xolda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) S-R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar urtasidagi munosabatlar
2. Tafakkur shakllari

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan leksiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil'e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma'ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo'llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Философия и философия. М. 1998.

19-mavzu. Mantiq fani rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Reja:

1. Qadimgi dunyoda mantiq ilmining shakllanishi va rivojlanishi.
2. Urta asrlarda mantiq ilmining taraqqiati
3. Yangi davrda mantiq ilmi.
4. XX asrda mantiq ilmining rivojlanishi.

Har bir fan kabi mantiq ilmi ham uzining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqqa oid dastlabki an`analalar Kadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Ularning shakllanishiga notiqlik san`ati, matematika ilmining rivojlanishi va shu kabilar katta ta`sir kursatdi. Shuni aytish kerakki, Kadimgi dunyoda Aristotelgacha bulgan davrda mantiq falsafa tarkibida mavjud bulgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan.

Kadimgi Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi uch davrni uz ichiga oladi: 1) ilk budda mantig`i (er. av. VI-V asrlari); 2) n`yaya, vaysheshika maktablarining mantiqiy ta`limoti (er. III-V asrlari); 3) budda mantig`ining rivojlangan davri (er. VI-VIII asrlari).

Hind mantiqshunoslari bahs – munozarada nima isbotlanayapti va qanday isbotlanayapti, degan masalani ajratib kursatishgan. Ular isbotlashning elementlarini (tezis, asos, misol, birxillik, har xillik, bevosita hissiy qabullash, xulosa, avtoritet va shu kabilarni) batafsil tahlil etganlar. N`yaya maktabining vakillari xulosa chiqarish masalasini urganishga katta xissa qushdilar. Shuningdek, ular besh qismdan iborat sillogizm nazariyasini yaratdilar:

1. tezis (tepalikda olov bor)
2. asos (tepalikdan tutun chiqayapti)
3. misol (qaerda tutun bulsa, sha erda olov bor)
4. shu holatga nisbatan qullash (bu tepalikda tutun bor)
5. xulosa (demak, tepalikda olov bor).

Qadimgi Hind mantiqshunoslari Dignaga, Dxarmakirti va ularning shogirdlari tomonidan tushuncha, hukm, ayniqsa xulosa chiqarish bilan bog`liq masalalar kengroq, chuqurroq tahlil qilindi. Dignaga xulosa chiqarishda mantiqiy asosga xos bulgan uch xususiyatni kursatib utadi: mantiqiy asos xulosa chiqarish ob`ekti bilan bog`liq buladi, bir turdagi ob`ektlar bilan bog`liq buladi, xar turdagi ob`ektlar bilan bog`liq bulmaydi. Bu xulosa chiqarishning asosiy shartlari bulib, ularning buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Dxarmakirti xulosa chiqarishning «uzi uchun» va «boshqalar uchun» turlarini, shuningdek, muhokamada uchraydigan mantiqiy xatolarni batafsil urgangan.

Kadimgi Hindistondagi shakllangan mantiq an`analari Kadimgi Gretsiyada mantiq ilmining paydo bulishiga ta`sir kursatgan.

Kadimgi grek falsafasida mantiq masalalari, dastlab, Parmenidning «Tabiat tug`risida» asarida, Eleylik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta`limotida u yoki bu darajada kurib chiqilgan. Aristotelgacha bulgan mantiqiy ta`limotlar ichida Demokritning mantiqiy ta`limoti, Sokratning induktiv metodi va Platonning dialektikasi diqqatga sazovordir.

Demokrit (er. av. 460-370) mantiqiy ta`limotida fikrning chinligi masalasi muhim urin tutadi. U kuproq induksiya va analogiyani urganishga e`tibor beradi, haqiqatni bilish uchun yakka buyumlarni kuzatish, his qilish orqali umumlashtirish zarur, deb ta`kidlaydi. Hukmni sub`ekt va predikatning uzaro aloqasidan iborat, deb ta`riflaydi. U etarli asos qonunini ontologik asosda tushuntiradi. Demokritning mantiqiy ta`limoti keyinchalik Aristotel` va F. Bekon ta`limotlariga sezilarli ta`sir kursatgan.

Sokrat (er. av. 469-399) ta`limotiga kura buyumlarning mohiyatini bilib bulmaydi. Inson, avvalo, uz-uzini bilishi kerak. Bilim umumiylik tug`risidagi tushunchadir. Haqiqatni aniqlash uchun uziga xos usul darkor. Bu usul vositasida urganilayotgan buyum haqida umumiy tushuncha hosil qilinadi va shu tushunchaga asoslanib buyum haqida fikr yuritiladi. Haqiqatni aniqlash uchun muxolif fikridagi ziddiyatlar urganiladi. Predmet haqidagi tushunchalar ziddiyatli bulsa, demak bilim yuzaki buladi. Sokrat haqiqatni aniqlashda induksiya va definitsiyadan foydalanishni tavsiya etadi.

Induktsiya - kundalik hayotdagi yakka misollar asosida umumiy tushunchalarni hosil qilish usulidir. Definitsiya - bahs jarayonida tushunchalarni ta'riflashdan iborat. Bu usulni Sokrat «mayevtika» deb ataydi.

Platon (er. av. 427-347) ustozi Sokratning, umumiy tushunchalar buyumlarning mohiyatini ifodalaydi, degan fikrini davom ettiradi. U umumiy tushunchalarni buyumlardan va insonlardan ajralgan mutlaq g'oyalar sifatida talqin qiladi, ularni birlamchi deb biladi. U hukmni tafakkurning asosiy elementi deb hisoblaydi. Hukm ega va kesimning birligidan iborat bulib, tasdiq yoki inkor ma'noni bildiradi. Agar hukmda birlashishi mumkin bulmagan tushunchalar birlashtirilsa, u xato buladi.

Platon hukmlarni tashkil etuvchi tushunchalarni piramida shaklida tasvirlaydi. Piramidaning uchiga ezgulik tushunchasini quyadi. Borliq, uzgarish, sukunat, ayniyat, tafovut tushunchalarini eng universal tushunchalar, deb ta'riflaydi. Chin bilimga intuitsiya orqali erishiladi. Platon definitsiya masalasiga katta e'tibor bergan, yaqin jins va tur belgisini kursatish orqali ta'riflash usulini, tushunchalarni dioxotomik bulishni bilgan.

Platon tug'ri tafakkurning asosiy qonunlarini ta'riflab bermagan bulsa ham, ularning mohiyatini tushungan. Masalan, kontradiktor tushunchalar, hukmlar, bir vaqtda bir xil munosabatda bir buyumga nisbatan chin bula olmasligini ta'kidlagan. «evtidem» dialogidagi «bir narsaning ham bulishi, ham bulmasligi mumkin emas», degan fikri uning nozidlik qonunini bilganligidan dalolat beradi.

Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Aristotelning nomi bilan bog'liqdir. U birinchi bulib, mantiq ilmi urganadigan masalalar doirasini aniqlab berdi. Aristotelning «Kategoriyalar», «Talqin haqida», «Birinchi Analitika», «Ikkinchi analitika», «Sofistik raddiyalar haqida», «Topika» nomli asarlari bevosita mantiq masalalariga bag'ishlangandir. Uning «Ritorika», «Poetika» asarlari ham mantiqiy ta'limotining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. «Metafizika», «Ruh haqida» asarlarida esa mantiq masalalari ma'lum darajada bayon qilingan.

Aristotel` mantiqni «ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi», «chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi» fan sifatida ta'riflaydi. Mantiqning vazifasi chin fikrni, haqiqatni aniqlashdir, deb ta'kidlaydi.

Mutafakkir haqiqatning mavjudligini, ob'ektiv xarakterini e'tirof etgan holda, «bilimlarimizning voqelikka mos kelishi - haqiqatdir», deb kursatadi. U haqiqatni aniqlashda nozidlik va uchinchi istisno qonunlariga amal qilish zarurligini ta'kidlaydi. Aristotel` bu qonunlarni ham ontologik, ham gnoseologik nuqtai nazardan ta'riflaydi. Bir vaqtda, bir xil munosabatda aynan bir predmetga nisbatan uzaro bir-birini istisno fikrlarni bildirish mumkin emasligini, chunki bu fikrlardan biri chin, boshqasi xato bulishi yoki har ikkisi xato bulishi mumkinligini asoslab beradi, uzaro ikki zid fikrning biri chin, boshqasi xato bulganda, uchinchi fikrga urin yuq, ekanligini ta'kidlaydi.

Aristotel` asarlarida tug'ri tafakkurning ayniyat va etarli asos qonunlari maxsus tarzda kurib chiqilmagan. Lekin mutafakkir asarlarining tahlili ularda bu qonunlarga xos talablarning bayon qilinganligini kursatadi.

Aristotelning mantiqiy ta'limotida xulosa chiqarish etakchi urinni egallaydi. U tafakkur shakllari bulgan tushuncha va hukmni xulosa chiqarishning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qiladi. «Ruh haqida» asarida mulohazalarni ruhiy hodisa sifatida tekshirsa, «Metafizika», «Talqin haqida» asarlarida uni mantiqiy shakl sifatida analiz qiladi. Hukm – diarezis - aqliy analizning natijasidir. U hukmni apofansis deb ataydi. Hukm biror narsaga nimaningdir taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida bayon qilingan fikr bulib, u chin yoki yolg'on bulishi mumkin. Har qanday gap ham hukm bulmaydi. Faqat qat'iy fikrlargina hukm hisoblanadi. Mutafakkir hukmning strukturasi mantiqiy ega, mantiqiy kesim va mantiqiy bog'lovchidan iborat buladi, deb kursatadi: S-P (S-P emas). U hukmni quyidagicha turlarga ajratadi:

Takrorlash uchun savollar

5. Yangi davrda mantiq ilmi.

6. XX asrda mantiq ilmining rivojlanishi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.

2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kulanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kulanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Filosofı i filosofiya. M. 1998.

20-mavzu. Mantiq ilmi va til.

Reja:

1. Til-axborot belgilari sistemasi.
2. Tabiiy va sun'iy tillar, ularning uzaro aloqasi.
3. Tilning semantik kategoriyalari.

Til tafakkur bilan uzviy boshlangan, fikrimizning bevosita mavjud bulishini ta'minlaydigan va kishilar urtasida aloqa urnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari sistemasidan iborat. Tilni urganish mantiq fanining muhim vazifalaridan birini tashkil etadi. Ma'lumki, tafakkur olamni mavhumlashtirib va umumlashtirib aks ettiradigan ideal hodisadir. Mavhum narsalarni, umumiylikni faqat til yordamidagina qayd qilish mumkin.

Til va tafakkurning birligi nutqda uz ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bulib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni xissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bulib qoladi.

Til kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlana borgan. Ana shuning uchun ham u chuqur ijtimoiy mazmunga ega hamda madaniyatimiz va tariximizning muhim bir qismini tashkil etadi.

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, tuplanadi va bir avloddan boshqa avlodga etkazib beriladi. Shu tariqa u ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi.

Belgi bilish jarayonida boshqa bir predmetning vakili vazifasini bajaruvchi hamda u haqda ma'lum bir xabarlar berish, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Har qanday belgi ham til belgisi bula olmaydi. Tilga aloqasi bulmagan belgilar qatoriga nusxa-belgilar (masalan, fotografiya kartochkasi, barmoq izi va shu kabilar), indeks-belgilar yoki kursatuvchi belgilar (masalan, badan haroratining kutarilishi – kasallik belgisi, tutun – olovning belgisi va shu kabilar) kiradi.

Til belgisi simvol-ramzlar shaklida mavjud bulib, uzi ifoda qiladigan predmetlar bilan tuzilishiga kura hech qanday uxshashlikka ega emas. Mantiq uz e'tiborini ana shunday til belgilarini urganishga qaratadi.

Til belgilari uz ma'nosiga va mazmuniga ega. Til belgisining mazmunini u ifoda qilayotgan, kursatayotgan ob'ekt tashkil etadi. Masalan, «auditoriya» suzi real mavjud ob'ektni - auditoriyani aks ettiruvchi fikr mazmunini ifoda etadi. Til belgisining ma'nosini esa u ifoda qilayotgan ob'ektning xarakteristikasi (tavsifi) tashkil etadi. Masalan, «Auditoriya» suzining ma'nosini « Mashg'ulot utkazish uchun muljallangan xona», «Maxsus jixozlangan xona» va shu kabi ekanligi xaqidagi axborotlar tashkil etadi.

Belgilarning bilishdagi vazifasini urganishga Aristotel, Leybnits kabi mutafakkirlar katta e'tibor berganlar. Belgilar haqidagi ta'limotni taraqqiy ettirish XIX asrda aktual masalaga aylangan. Mana shu davrda amerikalik faylasuf Charl'z Pirs (1839-1914) belgilar haqidagi fan-semiotikaga asos solgan. Bu fan til belgisini uch xil yunalish buyicha analiz qiladi. Birinchisini **semantika** tashkil qilib, u belgi bilan u ifoda qilayotgan ob'ekt urtasidagi munosabatni urganadi. Ikkinchisi **pragmatika** bulib, u kishilarning belgilarga munosabatini hamda belgilar yordamida kishilar urtasida vujudga keladigan munosabatlarni urganadi. Uchinchisi, **sintaksis** deyilib, u belgilar urtasidagi munosabatlarni (tilni qurish qoidalarini) urganadi. Mantiq fanini kuproq til belgilarining semantikasi qiziqtiradi.

2. Tilning ikkita turi mavjud. Ular tabiiy va sun'iy tillardir. **Tabiiy** yoki **milliy tillar** tarixan shakllangan tovushlar (nutq) va grafika (yozuv) ning axborot belgilari sistemasidan iborat. Tabiiy tilning alohida olingan har qanday belgisi uz xolicha hech narsani ifoda qilmaydi. Bu belgilar inson amaliy faoliyati va tafakkuri taraqqiyotining negizida vujudga kelgan til sistemasiga kirgandagina ma'lum bir ma'no va mazmun kasb etuvchi belgilarga aylanadi.

Tabiiy til ob'ektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli bulgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantik jixatdan yopiq sistema hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda, mustaqil ravishda uzini qurishi va ifoda qilishi mumkin.

Shuning bilan bir qatorda, tabiiy tildan foydalanish bilish jarayonida ayrim qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Ular quyidagilar bilan bog'liq: 1) tabiiy tildagi suzlarning ma'nosi vaqt utishi bilan uzgarib turadi; g`) tabiiy tilda bir suz bir qancha tushunchani ifoda qilishi (omonimlar) yoki bir tushuncha bir qancha suzlarda ifoda qilinishi (sinonimlar) mumkin; q) tabiiy tildagi ba'zi suzlar yordamida ifoda qilingan fikr aniq ma'noga ega bulmay qoladi (masalan, «Karim chet tilini yaxshi bilmaydi» degan fikrda Karimning kimga nisbatan yoki qanday vazifani bajarishga nisbatan chet tilini yaxshi bilmasligi kursatilmagan). Tabiiy tildagi mana shu kabi hodisalardan xoli bulish uchun ilmiy bilishda atamalardan (terminlardan) foydalaniladi. Atama uzining qat'iy va aniq ma'nosiga ega bulgan suz bulib, bu ma'no definitsiya (ta'rif) yordamida kursatiladi. Shuningdek, tabiiy tilda aniqlikka sun'iy tildan foydalanish yuli bilan ham erishiladi.

Sun'iy til tabiiy til negizida yaratilgan yordamchi axborot belgilari sistemasidan iborat bulib, u mavjud xabarlarini aniq hamda tejamli bayon qilish va uzatish uchun xizmat qiladi. Sun'iy tilda sun'iy yul bilan yaratilgan maxsus belgilar, ya'ni simvollar-ramzlar ishlatiladi. Tabiiy tildagi konkret mazmunga ega bulgan fikrlar ilmiy bilishda ana shunday simvollar bilan almashtiriladi. Demak, sun'iy til fikrimizning konkret mazmunidan chetlashgan holda, faqat simvollar bilan ish olib borishni ta'minlaydi.

Sun'iy tillar hozirgi zamon fani va texnikasida keng qullaniladi. Ularning ayniqsa matematika, fizika, kimyo, kibernetika, hisoblash texnikasi va shu kabi sohalar rivojlanishida hissasi katta. Sun'iy tillarning ishlatilishiga misol qilib matematikadagi tug'ri burchakli uchburchak tomonlarini ifoda qiluvchi $\cos^2 \alpha + \sin^2 \alpha = 1$ formulasini, kimyodagi suvni ifoda qiluvchi N_2O formulani, mexanikadagi tezlikni ifoda qiluvchi $v = \frac{S}{t}$ formulasini va shu kabilarni kursatish mumkin. Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzishda esa maxsus algoritmik tillar ishlatiladi. Ular «Algol – 60», «Algol – 60'», «Fortran», «Kobol», «PL – 1», «Assembler», «Beysik» va boshqalardan iborat. Sun'iy tildan mantiq fani ham fikrimiz tuzilishini nazariy jihatdan analiz qilishda foydalanadi.

Demak, ilmiy bilishda tabiiy tildan ham, sun'iy tildan ham foydalaniladi. **Ilmiy til** esa tabiiy til, sun'iy til va maxsus atamalardan tashkil topgan buladi.

Umumiy mantiq uzining maxsus ilmiy formallashtirishga ega. U inson tafakkurining tuzilishini aniq va ravshan holda ifoda qilish maqsadida yaratilgan. Buning mohiyatini tushunish uchun formallashtirishning uzi nima ekanligini aniqlab olish zarur.

Formallashtirish konkret mazmunga ega bulgan fikrlarni simvollar bilan almashtirish, ya'ni propozitsional funktsiya hosil qilish, formulalar kiritish, mantiqiy qoidalarni yaratish orqali tafakkurning (fikrning) strukturasi ifoda qilish demakdir. Tafakkurning strukturasi bilan mantiqning tilda ifoda qilinishi strukturasi urtasida uzaro muvofiqlik mavjud, ya'ni har bir konkret fikr strukturasi ma'lum bir til strukturasi muvofiq keladi. Buni propozitsional funktsiya hosil qilish misolida kurishimiz mumkin. «Toshkent-ozbekistonning poytaxti» degan fikrdagi «Toshkent» tushunchasini – S, «ozbekistonning poytaxti» tushunchasini – R bilan almashtirsak, S–R kurinishiga ega bulgan propozitsional funktsiya hosil buladi. **Propozitsional funktsiya** uzgaruvchi qiymatga ega ifoda bulib, bu qiymat argument bilan almashtirilganda konkret mazmunli fikr hosil buladi.

Formallashtirish til quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Asosiy belgilar aniq ifoda qilingan bulishi kerak. Bu belgilar asosiy tushunchalar, atamalarni ifodalaydi.
2. Ta'riflashning barcha qoidalari kursatilgan bulishi kerak. Bu qoidalarga asoslangan holda mavjud belgilar yordamida yangi, qisqaroq belgilar hosil qilinadi.
3. Formulalarni tuzishning barcha qoidalari berilgan bulishi kerak. Bunga misol qilib tushunchalardan gap hosil qilish qoidalarini kursatish mumkin.
4. Xulosa chiqarish qoidalarining barchasi kursatilgan bulishi kerak. Bu qullaniladigan belgilarning (suz, gap, simvollar) grafik usul bilan ifodalanishiga tegishlidir.
5. Qullaniladigan belgilarning ma'nosini talqin qilish qoidalari kursatilgan bulishi kerak.

Formallashtirish tilga ega bulgan mantiq chin fikrni ifoda qiluvchi bir formula yordamida xuddi shunday chin fikrni ifoda qiluvchi boshqa formulani keltirib chiqara oladi. Bunda berilgan fikrning konkret mazmuni e'tiborga olinmaydi.

Formallashtirilgan tilning ustunligi shundaki, unda mantiqiy xulosa chiqarishda kuzda tutilmagan asoslarning qatnashib qolishi mumkin emas. Matematika va mantiqning kup masalalari faqat mana shu yul bilan echilishi mumkin.

Nihoyat, formallashtirilgan tilning yana bir qimmatli tomoni shundaki, unda bir sohada yaratilgan formallashtirilgan tildan boshqa bir sohaga oid masalalarni echishda foydalanish mumkin. Masalan, mantiqda sinflar bilan buladigan amallarda matematika tilidan (qushish, kupaytirish, tuldirish kabi atamalardan hamda ularni ifoda qiluvchi belgilardan) fikr tuzilishini ifoda qilish uchun foydalanish mumkin. Bunda, albatta foydalanilayotgan belgilarga maxsus ma`no beriladi.

Formallashtirilgan tilning kamchiligi esa shundaki, u tabiiy tilga qaraganda ob`ektni yuzaki holda ifoda qiladi. Hozirgi davrda mavjud formallashtirilgan tillar borliqning va bilishning juda kam sohalarini qamrab olgan. Bilishning qaysi sohalarida formallashtirilgan tilni yaratish mumkinligini oldindan aytish qiyin.

Shuningdek, formallashtirilgan til empirik tadqiqotlarning urnini bosa olmaydi. Ana shuning uchun ham ilmiy til formallashtirilgan tildan foydalanish bilan chegaralanib qolishi mumkin emas.

Shunga qaramasdan formallashtirilgan til hozirgi paytda ilmiy bilishda va amaliy hayotda muhim ahamiyatga ega. U ayniqsa fikrning tuzilishini urganishga, uning mantiqiy qiymatini, ya`ni chin yoki xatoligini aniqlashga tuliq qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun mantiqning formallashtirilgan tilini yaratishga va uni chuqurroq urganishga qiziqish katta.

3. Tafakkurning mantiqiy shaklini urganishda semantik kategoriyalar muhim ahamiyatga ega. **Semantik kategoriyalar** til ifodalarining sinflaridan iborat bulib, ular bir-birlaridan qanday ob`ektlarni aks ettirishi bilan farq qiladilar. Asosiy semantik kategoriyalar qatoriga gap va uning tarkibida nisbatan mustaqil xolda mavjud bulgan qismlari-deskriptiv va mantiqiy atamalar kiradi.

Gap hukmni, savolni va normani ifoda qilishi mumkin. Hukmni ifoda qiluvchi gap predmetga birorta belgining (xossa yoki munosabatning) xosligini tasdiqlaydi va inkor qiladi. U darak gapdan iborat.

Gapda predmetlarni, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar deskriptiv atamalar deyiladi. Deskriptiv atamalar predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar tuplamini aks ettiruvchi ifodalar) va predikatorlarga (predmetlarning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar) bulinadi.

Predmetlarning nomlari ayrim suzlar va suz birikmalari bulib, ular moddiy (planeta, elektr toki) va ideal (sezgi, tafakkur) predmetlarni ifodalaydi. Predmet nomi belgidan iborat bulganligi uchun uz mazmuni va ma`nosiga ega. Nomning mazmuni predmetni ifoda qiladi va mantikda **denotat** deb ataladi. Nomning ma`nosi esa predmetning muhim, umumiy belgilarini ifoda qiladi va **kontsept** deb ataladi. Masalan, «Aristotel», «Mantiq fanining asoschisi», «Topika asarining muallifi» kabi ifodalarning mazmuni bir xil, ya`ni bitta predmetni ifodalaydi, ma`nosi esa turli xil, ya`ni fikr kilayotgan ob`ektning xar xil belgilarini qayd kiladi.

Shuningdek, nomlar yakka («Toshkent shahri») yoki umumiy («shahar») bulishi mumkin. Bunda yakka nom bitta predmetni, umumiy nom esa predmetlar sinfini aks ettiradi.

Takrorlash uchun savollar

- 1 Tafakkurning mantiqiy shaklini
2. Tilning semantik kategoriyalari

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan leksiya matnlari. T. 2004.
3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebник). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kullanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kullanma). T. «Uzbekiston», 2007.

11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Filosofы i filosofiya. M. 1998.

21-mavzu. Formal mantiqning asosiy qonunlari (printsipalari).

Reja:

1. Tafakkur qonunlarining umumiy tavsifi.
2. Ayniyat qonuni.
3. Nozidlik qonuni.
4. Uchinchisi istisno qonuni.
5. etarli asos qonuni.

Olamdagi narsa va hodisalar harakati uziga xos ichki qonunlar asosida yuzaga keladi. Bu harakatning inson ongidagi in'ikosi, ya'ni tafakkur jarayoni ham uziga xos ob'ektiv qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiqda ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari urtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga buysunadi. Ular dialektika qonunlari va formallashtirilgan mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob'ektiv olam va bilish jarayoniga xos bulgan eng umumiy qonunlar bulib, dialektik mantiq ilmining urganish sohasi hisoblanadi. Formallashtirilgan mantiq qonunlari esa, faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib urgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning tug'ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bulishini e'tiborga olgan holda urganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog'lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob'ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning tug'ri amalga oshishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bulgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va uzaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlari yuzaki qaraganda sub'ektiv qonunlardek bulib tuyulsa ham, aslini olganda, ob'ektiv mazmunga egadir. Bu qonunlar hamma kishilarning fikr yuritishida bir xil amal qiluvchi umuminsoniy qonunlardir. Ularni buzish, almashtirish, uzgartirish, yangilash mumkin emas.

Tafakkur qonunlariga amal qilish tug'ri, tushunarli, aniq izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bulish va isbotlilik (asoslanganlik) tug'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bulganligi uchun ularning har birini alohida-alohida kurib chiqamiz.

Inson tafakkuriga xos bulgan muhim xislatlardan biri fikrning aniq bulishidir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi har bir buyum, hodisa uziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Bu belgi va xususiyatlar buyum va hodisalarni bir-biridan farqlashga, ularning uziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, uz navbatida, buyum va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Fikrning noaniqligi fikrdagi mantiqning sayozlashuviga, mantiqsizlikka olib keladi. Masalan, ob'ektiv va sub'ektiv sabab tushunchalarining mohiyatini aniqlab olmasdan birorta hodisaning kelib chiqish sabablari tug'risida aniq fikr yuritib bulmaydi. Shu sababdan fikrdagi aniqlik tug'ri tafakkurlashning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisaning joylashishi, uzaro munosabati va bog'lanishida muayyan tartib, izchillik, ketma-ketlik mavjuddir. Buyum va hodisalarning bu xususiyatlari fikrlash jarayonining izchil amalga oshishida uz ifodasini topgan. Tafakkurga xos bulgan izchillik belgisi har bir fikrning muayyan tartibda uzaro bog'langan holda bayon etilishini talab qiladi. Fikrdagi izchillikning buzilishi, fikr ma'nosining uzgarishiga olib keladi va bunday fikrni tushunib olish qiyinlashadi. Masalan, birorta faylasuf - mutafakkirning umumfalsafiy qarashlarini urganmasdan turib, uning ijtimoiy yoki ahloqiy ta'limotining mohiyatini tuliq tushunib bulmaydi.

Tafakkurga xos bulgan belgilardan yana biri fikrlash jarayonining ziddiyatsizlik xususiyatiga ega bulishligidir. Bu belgi ham ob'ektiv asosga ega. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikda har bir buyum yoki hodisa bir vaqtning uzida biror sifatiga kura ikki zid belgiga ega bulmaydi. Masalan, biror buyum bir vaqtning uzida ham bor, ham yuq bula olmaydi yoki inson ham e'tiqodli, ham e'tiqodsiz bula olmaydi.

Fikrda mantiqiy ziddiyatlarning mavjud bulishi uning noaniq, chalkash, tushunarsiz bulishiga olib keladi.

Buyum va hodisalar urtasidagi sababiy bogʻlanishlar tafakkurga xos bulgan asoslilik belgisining obʻektiv negizidir. Inson fikr yuritish jarayonida iloji boricha chinligi asoslangan mulohazalarni bayon qilishga intiladi.

Yuqorida bayon qilingan belgilar tafakkur qonunlarining mazmunini tashkil etadi.

Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bulgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, uzgarmas va qatʻiy mazmunga ega buladi. Tafakkurga xos bulgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga kura maʼlum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda uz-uziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, yaʼni mulohazalar mantigʻi va predikatlar mantigʻida uziga xos kurinishda ifodalanadi:

Mulohazalar mantigʻida $a \rightarrow a$ va $a \leftrightarrow a$. (Bunda a - har qanday fikrni ifodalovchi belgi, $\rightarrow$ implikasiya belgisi, $\leftrightarrow$ ekvivalentlik belgisi).

Predikatlar mantigʻida ($\forall x(R(x) \rightarrow R(x))$). Bu ifoda quyidagicha uqiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bulsa, X shu belgiga ega, degan fikr tugʻri buladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, uzaro aynan bulgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni, bilib yoki bilmasdan, buzish qolatlari uchraydi. Baʼzan, bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bogʻliq buladi. Masalan: «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga kura turlicha bulsa ham mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bulgan omonim va sinonim suzlarning qullanishi ham baʼzan turli fikrlarning uzaro aynanlashtirilishiga, yaʼni notugʻri muhokamaga olib keladi. Masalan: falsafiy nuqtai nazardan «sifat» tushunchasi, uziga xos mazmunga ega bulsa, biror hunarmand tomonidan bu tushuncha, boshqa mazmunda (yaroqli, foydali) qullaniladi.

Shuningdek u, bir tushunchaga kasb-hunari, hayotiy tajribasi va dunyoqarashi turli xil bulgan shaxslar tomonidan turli mazmun yuklatilishida ham namoyon buladi.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bulsa ham raqibni aldash va yutib chiqish maqsadida ayniyat qonunining talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi; ularning taʼlimoti esa sofistika deyiladi.

Baʼzan turli maʼnodagi bir xil suzlarni mohirlik bilan ishlatish orqali ajoyib sheʼriy misralar yaratiladi. Sharq adabiyotida «tuyuq» nomi bilan maʼlum bulgan bu sheʼriy misralar guzalligi, insonga uziga xos zavq berishi bilan ajralib turadi. Bunga Fozil Yuldosh ugʻlining quyidagi misralari misol bula oladi:

Kulingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol farzandim,
Yolgʻiz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Yuqoridagi turtlikda «ot» tushunchasining turli maʼnolarda qullanilishi, ayniyat qonuni talabining buzilishini emas, balki unga rioya qilinganligini ifodalaydi.

Shuningdek, uzbek xalqiga xos bulgan askiya sanʼatida ayniyat qonunlari ataylab buzilishini, tushunchalarning uz maʼnosida emas, balki kuchma maʼnolarda qullanilishini kuzatish mumkin. Bu uziga xos suz uyini bulib, unda qullaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini kursatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab buladi.

Demak, hayotda, amaliyotda tushunchaning turli maʼnolarda qullanilishidan gʻarazli yoki begʻaraz, yaxshi yoki yomon maqsadlar uchun foydalanish mumkinligini kuramiz.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning uzgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni tularoq bilib borishimiz bilan uzgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bulgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bulgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular urtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

Nozidlik qonuni

Inson tafakkuri aniq, ravshan bulibgina qolmasdan, ziddiyatsiz bulishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bulgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bulishi, ham ega bulmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning uzida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bulishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz buladi.

Bir vaqtning uzida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bulmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yul quymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bulishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki uzaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bulishi mumkin emasligini, xech bulmaganda ulardan biri albatta xato bulishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bula olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi: $\forall x (r(x) \cdot \bar{p}(x))$, ya'ni har qanday $r(x)$ mulohaza uchun $r(x)$ va uning inkori birgalikda chin bulmasligi tug'ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qullaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bulishi mumkin; uzaro zid mulohazalar esa bir vaqtda xato bulmaydi, ulardan biri xato bulsa, ikkinchisi albatta chin buladi. Karama-qarshi mulohazalarda esa bunday bulmaydi, ya'ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: «Aristotel'-mantiq fanining asoschisi» va «Aristotel'-mantiq fanining asoschisi emas»-bu uzaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bulmaydi. Ulardan birinchisi chin bulgani uchun, ikkinchisi xato buladi. uzaro qarama-qarshi bulgan «Bu dori shirin» va «Bu dori achchiq» mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bulishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq ham bulmasligi, balki bemaza yoki nordon bulishi mumkin.

Ba'zida ikki qarama-qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bulmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan buladi. Masalan: Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirmadi» va «Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirdi». Bu zid mulohazalar turli vaqtga nisbatan chin buladi, ya'ni ular urtasida ziddiyat bulmaydi.

Demak, fikrlash jarayonida, vaqt, munosabat va ob'ekt birligining saqlanishi nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Nozidlik qonuni tug'ri fikr yuritish jarayonida amal qiladi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta'qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida uzaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq dialektik ziddiyatlar bilan mantiqiy ziddiyatlarni chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Mantiqiy tafakkurdagi ziddiyat bilan real hayot ziddiyatlarini, ya'ni dialektik ziddiyatni bir-biridan farqlash, ularni almashtirib yubormaslik zarur. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yul quyib bulmaydigan ziddiyat bulsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi sub'ektiv, ikkinchisi ob'ektiv ziddiyatdir.

Noziddlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

Uchinchisi istisno qonuni

Uchinchi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bulib, fikrning tuliq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga urin yuq ekanligini ifodalaydi. Bu qonun «A V yoki V emasdir» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig`ida bu quyidagi formula orqali ifodalanadi: $r \vee \bar{p}$. Bu formula quyidagicha uqiladi. r yoki r emas.

Uchinchisi istisno qonuni tushunchalar urtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning tuliq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma`lum bulsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a`lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bulishi va talaba imtihonda «urta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a`lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a`lo» baho olmadi», mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga urin yuq ekanligi ma`lum buladi. Chunki «yaxshi», «urta» va «ikki» baholar-«a`lo» baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qullaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida uzaro zid fikr bildirilganda. Masalan,

Toshkent-ozbekistonning poytaxti.

Toshkent-ozbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bula olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisi mulohazaga urin yuq. Uchinchisi istisno qonuni uzaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bulmaydi. Bunday holatda «Ba`zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchisi bir mulohaza chin hisoblanadi.

2. Son va sifatiga kura uzaro zid mulohazalar bayon qilinganda, buyum va hodisalarning sinfi xaqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan shu sinf buyum va hodisalarining bir qismi xaqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga urin bulmaydi.

Masalan:

Hamma faylasuflar tabiyotshunosdir.

Ba`zi faylasuflar tabiyotshunos emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, xato ham bula olmaydi. Ulardan biri (Ba`zi faylasuflar tabiyotshunos emas) albatta chin, ikkinchisi xato, uchinchisi mulohazaga urin yuq.

Demak, Uchinchisi istisno qonuni:

1. Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;

2. Umumiy tasdiq va juz`iy inkor mulohazalarga nisbatan;

3. Umumiy inkor va juz`iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qullaniladi.

Uchinchisi istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bulishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bulishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan tuliq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bulib, inson tushunchasining tuliq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchisi istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob`ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun uz kuchini yuqotadi, fikrning izchilligiga zarar etadi va mantiqsizlikka yul quyiladi.

Uchinchisi istisno qonuni boshqa mantiqiy qonunlar singari ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson uz bilimlariga asoslangan holda uzaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun uzaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bulmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchisi istisno qonunini bilish muhokama yuritishda tug`ri xulosa chiqarish uchun muhim bulib, uzaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yul quymaydi.

etarli asos qonuni

Tug`ri fikrlashga xos bulgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bulmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma`lum bulgan va uzaro mantiqiy bog`langan mulohazalarga asoslaniladi, ya`ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma`lum bulgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati etarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bulgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta`riflab bergan. Uning ta`kidlashicha, barcha mavjud narsalar uzining mavjudligi uchun etarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bulgani kabi, ularning in`ikosi bulgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bulishi kerak.** etarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bulsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

etarli asos qonunida tug`ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bulgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog`lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi kurib utilgan qonunlar bilan uzaro bog`liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning uzi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan ob`ektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog`liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor» degan mulohazani «U shifoxonada davolanayapti» degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Kurinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning etarli asosga ega bulishligining ob`ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bulish xususiyatlarini ham, ya`ni ob`ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bulgan boshqa munosabatlarni ham uz ichiga oladi.

Fikr – mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jaryon bulib, unda bir yoki undan ortiq uzaro bog`langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Keng ma`noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va etarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va etarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bulish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bulgani kabi, empirik va nazariy asoslar urtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bulib, sezgilari bergan ma`lumot esa hamma vaqt ham tug`ri bulmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli xissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Xissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog`lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Nazariy asoslashda keng foydalaniladigan usul-deduktiv xulosa chiqarish usuli, ya`ni umumiy chin mulohazalarga tayanib fikr yuritishdir. Berilgan mulohazani mantiqiy usul orqali boshqa chin mulohazalar yordamida asoslash mumkin bulsa, unda berilgan mulohaza chin, ya`ni asoslangan buladi. Bunda fikrlar urtasidagi bog`lanish umumiylik, xususiylik va yakkaalik urtasidagi uzaro bog`liqlikni ifodalaydi. Masalan, tug`ri tafakkur qonunlarining ob`ektiv xarakterga ekanligini, barcha ilmiy qonunlarning ob`ektiv xarakterga ega ekanligi haqidagi umumiy chin mulohaza yordamida asoslash mumkin.

Umumiy chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta`riflaridan, shuningdek aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning ratsional yoki

demonstrativ usullari bulib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bulgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, asoslashning sub`ektiv xarakterda bulgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bulmagan usullari mavjuddir. Intuitsiyaga, e`tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlariga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan kuproq kundalik ong darajasida foydalanildi.

Intuitsiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz tug`ridan-tug`ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuitsiya - lotincha *intutio* suzidan olingan bulib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma`noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bulib, hissiy va aqliy bilishdan uzgacha bir kurinishini tashkil etmaydi; uziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e`tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi-haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda etarli asos hisoblansa-da, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishonitirish uchun etarli hisoblanmaydi.

E`tiqod-kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bulib xizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E`tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib kurilmagan, chinligi noma`lum boshlang`ich bilimlarga asoslangan bulishi mumkin. Intuitsiya kabi e`tiqod ham sub`ektiv xarakterda bulib, davr utishi bilan uzgarib turadi. «Anglash uchun e`tiqod qilaman» - degan edi Avliyo Avgustin va Ansel`m Kenterberiyskiylar (10q-q-1109).

Fruntsuz faylasufi va teologi P`er Abelyar (1079-114g`) esa aql va e`tiqodning uzaro nisbatini haqqoniy kursatgan holda «E`tiqod qilish uchun tushunaman», deydi. Albatta e`tiqod haqida fikr yuritganda kur-kurona e`tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bulgan, bilimga asoslangan e`tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e`tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda etarli asos buladi. Shuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam urnashib qoladi. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Milliy mafkura – bu halqning, millatning utda yonmaydigan, suvda chukmaydigan ulmas e`tiqodidir»¹, deganda aynan shuni nazarda tutgan edi.

Avtoritet (autoritas - hokimiyat, ta`sir) - keng ma`noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning kupchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta`siridir. etarli asos qonuni bilan bog`liq bulgan masalalarni hal qilishda avtoritet tushunchasi obruli, e`tiborli, nufuzli manba ma`nosida qullaniladi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obruli, e`tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblarda yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli suzlaridan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil buladi. Tor doirada amal qiladigan, qisqa muddatli avtoritetlardan fikr mulohazalarni asoslashda hamma vaqt ham foydalanib bulmaydi. Chunki, vaqt utishi yoki amal qilish doirasining uzgarishi bu avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bulgan avtoritetlarga fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun etarli asos buladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoitning, siyosiy uzgarishlarning ta`sirida uz qadr-qimmatlarini yuqotmaydilar, vaqt sinoviga bardoshli buladilar. Umuminsoniy ma`naviy madaniyat hazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli suzlari, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar, halqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda etarli dalil hisoblanadi. Masalan, «Ilm olish uchun tinimsiz izlanish zarur» ekanligi haqidagi fikrni hazrat Alisher Navoiyning «Bilmaganni surab urgangan olim, orlanib suramagan uziga zolim» suzlari bilan, shuningdek hadislarda keltirilgan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» kabi fikr-mulohazalar yordamida asoslash mumkin.

Avtoritetlarga asoslanish bilan avtoritar tafakkurni uzaro farqlash zarur. Avtoritarlik - asoslanganlikning uzgargan, buzilgan kurinishi bulib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

¹ И.А. Каримов. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. / Президент И. Каримовнинг «Фидокор» газетаси муҳбири саволларига жавоблари. «Фидокор», 8 июн 2000 йил.

Avtoritar tafakkur biror muammoni urganishdan avval uzini «asosiy mulohazalar yig'indisi» bilan cheklab quyadi. Bu mulohazalar yig'indisi tadqiqotning asosiy yunalishini belgilab beradi va kupincha avvaldan ma'lum bulgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bulgan fikrlar sistemasi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga buysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bulsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bulgan fikr yuritish usuli bulib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a'zolari, xususan yoshlarda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Shu urinda matbuotning, ayniqsa radio va televideniyaning u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e'tiborlidir. Bu haqda Prezidentimiz I. Karimov: «Bizning matbuotimiz, televideniemiz ham tarixga oid maqolalar chop etganda, kursatuvlar tayyorlaganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yul quymasligi darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim»², – deb ta'kidlagan.

Avtoritetlar masalasi murakkab va kup qirralidir. Shu sababdan fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, meyorga amal qilgan holda foydalanish zarur.

Urf-odat avloddan avlodga meros bulib utadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi hatti-harakat, xulq-atvor usuli bulib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma'lum darajada ta'sir kursatadi. Urf-odatlariga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish kupincha kishilarning turmushi, ahloqiy me'yorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon buladi. Milliy g'oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a'zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bulgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga kura...» - deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bulib, unda bir yoki undan ortiq uzaro bog'langan muhokamarlar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim hususiyatlaridan biri bulib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bulishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, tug'ri tafakkurning yuqorida kurib utilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga kura fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat'iy mazmunga ega bulishi, aynan shu fikr doirasida uzgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini tuldirgan holda, yaxlit mantiqiy tafakkurning chin bulishini ta'minlaydi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tafakkur qonunlari nimalarni aks ettiradi
 2. Tafakkur qonunlarining ob'ektivligi va universalligi nimada
 3. Ayniyat qonunidan kelib chiqadigan asosiy talab nimadan iborat
 4. Nozidlik qonunining mohiyati nimada Uning ob'ektiv ziddiyatlarga bulgan munosabati qanday
 5. Uchinchisi istisno qonuni fikr yurituvchi sub'ekt oldiga qanday talabni quyadi? Bu qonun qanday hukmlarga nisbatan amal qiladi
 6. etarli asos qonuni uzida tug'ri muhokama yuritish uchun zarur bulgan qanday talabni ifoda etadi
- U xulosa chiqarish, argumentlashda qanday ahamiyatga ega

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,

² И. Каримов. Тарихий хотирасизкелажак йўқ.//Мулоқот 1998, №5. 15-6.

3. Islom Karimov. Barkamol avlod-ozbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «ozbekiston», 1998.
4. Islom Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «ozbekiston», 1999.
5. I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., ozbekiston, 2000.
6. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.
7. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
8. I. Raximov. Logikadan amaliy mashg`ulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
9. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar`-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

22-mavzu. Tushuncha.

Reja:

1. *Tushunchaning umumiy tavsifi.*
2. *Tushunchaning mazmuni va hajmi, ularning uzaro aloqasi.*
3. *Tushunchalarning turlari.*
4. *Tushunchalar urtasidagi munosabatlar.*

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga uxshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bulganligi uchun kup belgilarga ega. Ularning ba`zilari faqat bitta predmetga xos bulgan, uning **individual, yakka**lik belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma`lum bir guruhiga tegishli bulib, **umumiy belgilar** hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat uzigagina xos bulgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma`lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilari) xos bulgan umumiy belgilarga ega.

Individual va umumiy belgilarning ba`zilari predmetning mavjud bulishi uchun zarur bulib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning **muhim belgilari** deyiladi. Masalan, davlatning mavjud bulishi uning uz maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bulishini taqoza etadi.

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning yuqolishi bilan predmetning tabiati uzgarmaydi. Masalan, qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bulishi individning inson sifatida mavjud bulishi uchun muhim emas.

Shuni xam aytish lozimki, predmet belgisining muhim yoki nomuhim bulishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bulishimizga qarab xam belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bulmagan belgilar, boshqa munosabatda muhim bulishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bulsa, inson sifatida mavjud bulishi uchun muhim emas. Bunday muhim belgilar predmetning ma`lum bir munosabatdagi muhim belgilari deyilib, ob`ektiv muhim belgilardan (predmetning mavjud bulishi bilan zaruriy aloqada bulgan belgilardan) farq qiladi.

Nihoyat, predmet tuxtovsiz harakatda, taraqqiyotda bulganligi uchun, vaqt utishi bilan uning muhim bulgan belgisi nomuhim bulgan belgiga yoki, aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Masalan, bevosita kuzatiladigan faktlar empirik bilish bosqichida muhim ahamiyatga ega bulsa, nazariy bilish bosqichida unga kamroq murojaat qilinadi.

Demak, tushunchada predmet uzining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bulishi mumkin. Masalan, «Hamza Hakimzoda Niyoziy» tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, yozuvchi) bilan bir qatorda, individual muhim belgilari (xususan, «Boy ila xizmatchi» dramasining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e`tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, uzimiz yozib utirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u tug`risida tasavvurga ega bulishimiz mumkin. «Umuman qalam»ni idrok qilib bulmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. Kalam tushunchasi uzida konkret qamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bulgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Ayni paytda bu belgilar qalamni boshqa predmetlardan, masalan, kitobdan farq qildirib turadigan spetsifik beliglar bulib ham xizmat qiladi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak uni tulaligicha aks ettira olmaydi. Bu ma`noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in`ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, tularoq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli ularoq, inson miyasida tugʻridan-tugʻri aks etmaydi. U maʼlum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar uzaro solishtirilib, ularning uxshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qildiruvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash analizni taqoza qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bulmaydi. Ular u yoki bu xossasiga kura taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. **analiz** yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida urganiladi.

Sintez analizga teskari usul bulib, u analiz davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holiga keltirishdan iborat. Sintez bulmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bulmaydi. Analiz va sintez uzviy bogʻliqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa **abstraksiyalash** yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga kura sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi suz bilan uzviy bogʻliq. Ular urtasidagi aloqadorlik tafakkur va til urtasidagi bogʻlanishning konkret tarzda namoyon bulishidir.

Tushunchalar suz va suz birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan «talaba», «tarix fakulteti», «oʻzbekiston milliy universiteti» va shu kabilar suzlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va suz aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, baʼzan bir tilda ham turli xil suzlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalari suz va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, suzning kup maʼnoga ega bulishi baʼzan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada kuproq terminlardan foydalaniladi. **Termin** qatʼiy bitta tushunchani ifoda qiluvchi suz bulib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil maʼnoda ishlatiladi.

gʻ. Tushuncha uzining mazmuni va hajmiga ega. **Tushunchaning mazmunini** unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yigʻindisi tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, yaʼni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, printsiplar shaklidagi obʼektiv chin (haqiqiy) bilimlar sistemasidan iborat bulishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yigʻindisidan iborat. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni uzida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bogʻliq bulib, u tushunchaning mazmuni va hajmi urtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «Fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»ga oid bulish» belgisini qushish bilan hajm jihatidan undan torroq bulgan «mantiq fani» tushunchasiga utiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bulgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos bulib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan sanʼatda bulmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

q. Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi buyicha bir qancha turlarga bulinadilar. Xususan, hajmiga kura yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «er planetasi», «oʻzMU asosiy kutubxonasi» va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bulishi mumkin. Masalan, «ximiyaviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. Ularni hisobga

olish mumkin. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz, ularni hisobga olib bulmaydi.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va tuplovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfnig har bir predmetiga xosdir. Masalan, «ozMU talabalari ikkinchi chaqiriq ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiya materiallarini urganmoqda» degan fikr ozMUNing har bir talabasiga tegishli. Demak, «ozMU talabalari» tushunchasi bu erda ayiruvchi tushunchadir."ozMU talabalari ikkinchi chaqiriq ozbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi yakunlarini muhokama etishmoqda» degan fikrda esa, «ozMU talabalari» tushunchasi tuplovchi tushuncha sifatida ishtirok qiladi, chunki fikr ularning tuplamiga nisbatan bildirilgan.

Mazmuni buyicha tushunchalar, avvalam bor, abstrakt va konkret tushunchalarga bulinadilar. Konkret tushunchalarda predmet uzining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan «Inson», «Tabiat» tushunchalari-konkret tushunchalar, «qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «Guzallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni buyicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bulgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bulishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «oqituvchi» va «oquvchi», «Ijobiy qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba`zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar xam farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bulmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «Savodli kishi», «Vijdonli kishi» - ijobiy tushunchalar, «Savodsiz kishi», «Vijdotsiz kishi» - esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «Talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli ozbekiston davlat kutubxonasi»-yakka, tuplovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

4. Ob`ektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar uzaro aloqada bulganligi uchun, ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham uzaro ma`lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Bu munosabatlar turli xil bulib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bulgan, mazmuni va hajmi jixatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «Metallurg» va «Ishchi» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa, bir-biri bilan uzoq aloqada bulgan, kup hollarda moddiy yoki ideal bulishdan boshqa umumiy belgiga ega bulmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «Ideal gaz» va «Guzallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda taqqoslanmaydigan tushunchalar urtasidagi mantiqiy munosabatlar urganilmaydi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig`ishadigan va sig`ishmaydigan buladi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Tushunchalarning turlari.*
2. *Tushunchalar urtasidagi munosabatlar.*

Adabiyotlar.

1. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maksadimiz. T. 2000.
2. Karimov I. Falsafa fanidan lektsiya matnlari. T. 2004.

3. Aristotel` «Metafizika». Rostov N/D. «Feniks». 1999.
4. Yuldoshev S, Usmonov M. Kadimgi va urta asr Garbiy evropa falsafasi. T. 2003.
5. Skirbekk G, Gil`e N. Falsafa tarixi. T. 2002.
6. Spirkin A. Filosofiya. (Uchebnik). M. Gadariki. 2000.
7. Tulenov J. Falsafa tarixi. (Ma`ruzalar matni). T, 2001.
8. Falsafa: komusiy lugat. T. «Shark», 2004.
9. Falsafa. (Ukuv kulanma. E.Yusupovning umumiy taxriri ostida). T. «Shark», 1999.
10. Falsafa asoslari. (Ukuv kulanma). T. «Uzbekiston», 2007.
11. Falsafa. (Darslik). T. 2007.
12. Falsafa. (Uquv qo`llanma. M.Axmedovanning umumiy tahriri ostida). T. 2006.
13. Filosofiya (Uchebnik). M. YuNITI, 2000.
14. Философы и философия. М. 1998.

23-mavzu. Argumentlashning mantiqiy asoslari.

Reja:

1. Argumentlash (dalillash) va ishonch-e`tiqodning shakllanishi.
2. Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari.
3. Raddiya, rad etish usullari.
4. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar.

Vatanimiz-ozbekistonning gullab-yashnashi, barqaror, mustahkam bulishi ma`lum bir darajada yoshlarning ongli, bilimli komil inson bulishlariga bog`liq. Bu haqda Prezidentimiz I. A Karimov shunday deb ta`kidlagan: «Komil inson deganda biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan uzgalarga ibrat bula oladigan, bilimli, ma`rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bulmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib kuradi. oz fikr-uyi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam buladi»³.

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chang`itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan tug`ri xulosalargina haqiqatni bilishga yul ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning uziga xos qonun qoidalari mavjud. Bu qoidalami bilish har bir insonga, shu jumladan talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, tug`ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

1. Argumetlash (dalillash) va ishonch-e`tiqodning shakllanishi.

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari uzaro farqlanadi. Dalillash deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yuli bilan (kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytiladi. Dalillash bevosita yoki vositali buladi. Bevosita dalillash hissiy bilishga, ya`ni kurish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish kurinishida namoyon buladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bulganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Dalillashning xususiy kurinishi mantiqiy isbotlashdir. **Mantiqiy isbotlash** deb, biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar orqali asoslashga aytiladi. Isbotlashdan maqsad-biror fikrning chinligini aniqlash bulsa, dalillashdan maqsad ham fikrning chinligini aniqlash, uning ahamiyatini va muayyan faoliyat uchun qullash mumkinligini asoslashdir. Isbotlash jarayonida qullaniladigan chin mulohazalar (asoslar) berilgan fikrning chinligini tasdiqlash uchun xizmat qilsa, dalillash, bundan tashqari, dalillanayotgan fikrning boshqa shu kabi fikrlardan afzalroq ekanligini asoslash uchun ham xizmat qiladi. Dalillash uchun keltirilgan argumentlar (asoslar) isbotlash uchun keltirilgan argumentlarga nisbatan rang-barang buladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chiqarish kurinishida amalga oshadi. Dalillash kuproq suhbat (dialog) kurinishida bulib, uning ishtirokchilaridan har biri uz fikrining chinligini isbotlashga, raqibining fikrini rad etishga va tinglovchilarning uzini ham fikr qilishga, uz fikrlariga ishontirishga harakat qiladi.

Dalilillash jarayonida retsipientlarga (lot - qabul qiluvchi) – tinglovchilarga biror fikrning tug`ri yoki xatoligi asoslab beriladi va ularda shu fikrga nisbatan ishonch tuyg`usi shakllantiriladi. Dalillovchi shaxsning suz san`atini qay darajada egallaganligi, ya`ni notiqlik mahorati tinglovchilarda ishonch-e`tiqodning shakllanishida muhim rol uynaydi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega buladi, kishilarda ishonch-e`tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bulgan e`tiqodni yaratishdan iborat. Dalillash va isbotlash ishonch-e`tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e`tiqod bu kishilarning xulq-atvori va hatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

2. Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari.

³ И.А. Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ, «Мулоқот», 1998, №5, Б.3.

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qullayotgan bilimlarning qay darajada chin bulishiga, ya'ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik tug'ri aks ettirishiga bog'liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib kursatadi, bilishda kup chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni tug'ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan kursata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni hodisaning (faktning) uzi bilan solishtirish mumkin. Lekin kup hollarda bilish jarayonida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bulgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli-demonstratsiya.

Tezis-chinligi asoslanishi lozim bulgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini kursatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning uzidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremlardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan yoki hodisalarning sababini kursatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat buladi.

Argumentlar-tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bulib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, uzaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bulishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bulib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat - bu har qanday uzgarishdan iborat» degan ta'rif-chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi uz-uzidan ravshan bulgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida kup martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan buladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli-demonstratsiya tezis bilan argumentlar urtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida buladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavoita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi tug'ridan-tug'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bulgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis kup hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan qonundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan «O'zbekiston - mustaqil davlatdir» degan hukm (tezis) ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavoita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bulgan hukmning (antitezisning) xatoligini kursatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bulishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) urtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bulgan «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (g'-bosqich), sungra bu natijalarning xatoligi kursatiladi (q-bosqich) va demak tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm chin bulsa «Modiy predmetlar strukturasiz mavjud» degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin buladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar strukturasiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning uzaro aloqasisiz) mavjud emas. demak «Materiya harakatsiz mavjud» degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan fikrning chinligi asoslanadi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar.
2. Mantiqiy isbotlash

1. Islom Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,
3. Islom Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «O'zbekiston», 1998.
4. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston», 1999.
5. I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., O'zbekiston, 2000.
6. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.
7. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
8. I. Raximov. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
9. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar'-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

24-mavzu. Muammo. Gipoteza. Nazariya.

Reja:

1. Muammo va uning tafakkur jarayonida tutgan urni.
2. Gipoteza - bilimlarning mavjud bulish va taraqqiy etish shakli.
3. Nazariyaning mohiyati, strukturasi, funktsiyalari va turlari.

Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, printsiplar yordamida amalga oshirib bulmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati urtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo buladi. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilishda, fanda esa, tub burilishlar davrida yaqqol namoyon buladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiyotshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xarakterga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiyotshunoslikning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va printsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni tushuntirish uchun etarli emasligida, deb bilmoq zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qullanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bulgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar urtasidagi ziddiyatning paydo bulishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlarning uzining etarli darajada sistemaga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, **muammoli vaziyat** bilish taraqqiyotining turli bosqichlari va bug'inlarida olam va uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini uzgartirishning ob'ektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Ilmiy muammoni quyish va hal qilish.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni quyishga olib keladi.

Muammo - javobi bevosita mavjud bilimda bulmagan va echish usuli noma'lum bulgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni quyish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha echish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Kanday muammolarni ilgari surishni, uni muhokama qilishning xarakterini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni tug'ri quyish va aniq bayon qilishdan iborat. Tug'ri quyilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni echishning yarmidan kuprog'ini tashkil etadi.

Muammoni tug'ri quyish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning uzi etarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan kura bilish kerak.

Muammolarni quyishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega buladi. Shuning uchun ham, odatda kup hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassisleri, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining quyilishi va tadqiq etilishi misolida kurish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bulishimiz mumkin»⁴.

Uni shakllantirish uchun kuchli ist'edod va «yorqin tafakkur»ga ega bulgan Konfutsiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Baxouddin Naqshband kabi buyuk zotlar zaxmat chekkanlar.⁵

⁴ И.А. Каримов Донишманд халқимизнинг мустахкам иродасига ишонаман. Президент Ислом Каримовнинг «Fidokog газетаси мухбири саволларига жавоблари». «Fidokog», 2000 йил, 8 июн.

⁵ Қаранг, ўша ерда.

Hozirgi paytda esa, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlanganidek, «Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bulsa, mutafakkirlari, ziyolilari mehnat qilishi lozim»⁶.

Muammoli vaziyatni analiz qilishga turli xil munosabatda yondashish mumkin bulganligi uchun ham, hal qilinishi lozim bulgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilar bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xarakterga ega buladi. Kup hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va echish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni tug'ri quyish va bayon qilish ularni echishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni tug'ri quyish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan urni va ahamiyatini tug'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda quyilishi mumkin bulgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va tug'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yunalishini va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni quyish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari urtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon buladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar quyiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi (Nazariya haqida ma'ruzaning oxirida kengroq ma'lumot beriladi).

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bulgan muammoni umumiy holda belgilashga va uni tug'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa, muammo mavjud nazariyani modifikatsiya qilishni, muammoni echishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni echish uchun dastlabki tayyorgarlik ishlari qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

- a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bulmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;
- b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish va ularga baho berish;
- v) muammoni hal qilish tipini, maqsadini, olingan natijani tekshirish yullarini belgilash;
- g) muammoning negizi bilan uni echish uchun ilgari surilgan g'oyalar urtasidagi aloqaning xususiyatlarini kursatish.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilib bulgandan keyin muammoni echishga bevosita kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib utish kerakki, muammoning echilishi nisbiy xarakterga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq tula echimini topish qiyin. Chunki urganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bulmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bulib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. N'yuton tomonidan jismlarning uzaro tortishishi muammosining quyilishini kursatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar urtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini, uqtirib utgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning uzaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi.

Jismlarning uzaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha tula ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bulmagan.

Ba'zi hollarda muammolarning echimini uzoq vaqtgacha topib bulmaydi. Masalan, rak kasalining sababini urganish bilan bog'liq muammo hozirgacha tula hal bulmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay echimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida echib bulmaslikni kursatadi, xolos va shu tariqa echishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

3. Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

Gipoteza-urganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

⁶ И.А. Каримов Донишманд ҳалқимизнинг мустахкам иродасига ишонаман. Президент Ислоҳ Каримовнинг «Fidokog газетаси мухбири саволларига жавоблари». «Fidokog», 2000 йил, 8 июн.

Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bulim shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil bulgunga qadar quyilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bulib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud buladi.

Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi xaqidagi bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bulib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuqlikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. «Jismlar mayda, bulinmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday hodisalar bulmas edi», degan fikr uzining ma`lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma`noda u bilimlarning mavjud bulishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Gipotezani qurish, urganilayotgan hodisani tushuntiradigan taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat buladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bulgan qonuniyatlar haqidagi hukmlar (mulohazalar) yoki hukmlar sistemasi tarzida buladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza) da, odatda, gipotezaning bosh g`oyasi aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va ma`lum bir ishchi gipotezalar-vaqtincha quriladigan, muljalni tug`ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish: analogiya, tuliqsiz induksiya, turli kurinishdagi ehtimoliy sillogizmlar-eng kamida bitta qoidasi buzilgan, asoslaridan biri ehtimoliy hukm bulgan sillogizmlar (shartli, ayiruvchi-qat`iy, shartli ayiruvchi sillogizmlar shakllarida) hisoblanadi.

Shuningdek, gipoteza ba`zi hollarda qat`iy xulosa chiqarish shakllarida hamda turli xil xulosa chiqarish usullarining kup qavatli mantiqiy qurilmasi tarzida ham shakllantirilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo buladi. Ana shuning uchun ham gipoteza-bu har qanday taxmin emas, balki ma`lum bir darajada asoslangan, uzining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, farazdir.

Gipoteza qurishning murakkab mantiqiy jarayon ekanligini quyidagi misol tasdiqlaydi. Issiqlik dvigatellari nazariyasi asoschilaridan biri frantsuz injeneri Sadi Karno birinchi bulib, faqat issiqlikning qattiqroq qizigan jismdan sovuqroq jismga utishidagina foydali ish vujudga kelishi, va, aksincha, issiqlikni sovuq jismdan qizdirilgan jismga berish uchun ish sarflanishi zarur, degan fikrni ilgari surgan. Ayni paytda Karno shu davrda keng tarqalgan, issiqlikning namoyon bulish sababi uning tarkibida alohida vaznsiz suyuqlik-teplorodning bulishidir, degan fikrga tayanuvchi teplorod kontseptsiyasini ham tug`ri, deb hisoblagnan. Teplorodni suvga, haroratlar (temperaturalar) urtasidagi farqni – suv darajasiga qiyos qilib, Karno, xuddi suv darajasining pastga tushishida ish suv og`irligining uning darajalari urtasidagi farqga bulinishi bilan ulchangani kabi, bug` mashinasida ish, ishchi moddaning (suv, spirt va boshqalar) tabiatidan qat`iy nazar, teplorod miqdorining xaroratlar (temperaturalar) farqiga bulinishi bilan ulchanadi, degan xulosaga keladi. Bu issiqlik mashinasining ish hajmining (miqdorining) isitgich va sovutgich xaroratlarining qiymatlariga bog`liqligini anglatardi. «Karno printsipi» keyinchalik termodinamikaning ikkinchi qonunining yaratilishiga asos bulgan.

Adabiyotlar

10. Islom Karimov. «zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «zbekiston», 1998.
11. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,
12. Islom Karimov. Barkamol avlod-«zbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «zbekiston», 1998.
13. Islom Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «zbekiston», 1999.
14. I.A. Karimov. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., «zbekiston, 2000.
15. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.

16. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
17. I. Raximov. Logikadan amaliy mashg`ulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
18. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar`-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

25-mavzu Axloqshunoslik fani, uning tadqiqot doirasi, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Axloqshunoslik fanining tadqiqot doirasi.
2. Axloqshunoslikning uziga xos falsafiy fan sifatidagi urni.
3. Axloqshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
- 4 Axloqshunoslik fanining ahamiyati va vazifalari.

Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bulgan qadimiy fan. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi axloq», «Axloq ilmi», «Odobnoma» singari nomlar bilan atab kelingan. Ovrupoda esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qullar edik. Uni birinchi bulib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga buladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga – etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa – san`at, hunurmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta`limotni fan darajasiga kutarganlar va «Etika» (ta ethika) deb ataganlar.

Hozirgi kunda bu fanni ilmiy va zamonaviy talablar nuqtai nazaridan «Axloqshunoslik» deb atashni maqsadga muvofiq deb uylaymiz.

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini urganadi. «Axloq» suzi arabchadan olingan bulib, «hulq» suzining kuplik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma`noga ega: umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot ob`ektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe`l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bulsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg`otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bulmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni uz ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-kuy miqyosida ahamiyatli bulgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta`sir kursatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bula oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig`indisidir.

Bu fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, metroda yoshgina yigit, talaba hamma qatori utiribdi. Navbatdagi bekatdan bir keksa kishi chiqib, uning ruparasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: «otiring, otaxon!» deb joy bushatsa, u chiroyli a`mol qilgan buladi; chetdan qarab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb quyadi. Aksincha, talaba yo teskari qarab olsa, yoki uzini mudraganga solib, qariyaga joy bushatmasa, g`ashimiz keladi, kunglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr utadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg`otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bushatgani yoki bushatmagani oqibatida vagondagi yulovchilar hayotida biror-bir ijobiymi, salbiymi – muhim uzgarish ruy bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha quni-qushnilarning barcha ma`rakalarida xizmatda turadi, hech kimdan qulidan kelgan yordamini ayamaydi, ochiq kungil, ochiq qul, doimo uz bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq, oila a`zolariga mehribon va h. k. Unday odamni biz hushxulq inson deymiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bulsa, u quni-qushnilar bilan qupol muomala qilsa, tuy- ma`rakalarda janjal kutarsa, sal gapga udag`aylab, musht uqtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi, ba`zi shaxslar jabr kuradi, mahalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-harakatlari jamiyat ijtimoiy hayotiga yoki insoniyat tarixiga biror bir ta`sir utkazmaydi.

Axloqqa kelsak, masala jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yohud viloyat prokurori uzi mas`ul hududda doimo qonun ustuvorligini, adolat qaror topishini kuzlab ish yuritadi, lozim bulsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida na faqat uz kasbini e`zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u – umrini millat, Vatan va inson manfaatiga bag`ishlagan yuksak axloq egasi; u,

uzi yashayotgan jamiyat uchun namuna bularoq, usha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi bulaturib, uzi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yulida oqni qora, qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan buladi: oddiy fuqoro nazdida birgina kishi prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg'onadi. Bu tasavvurning muntazam kuchayib borishi esa, oxir-oqibat usha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi.

Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. Chunonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan uz yakka hukmronligi yulida millionlab begunoh insonlarni ulimga mahkum etgan Lenin, Stalin, Hitler, Pol Pot singari shaxslar orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizligi bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib keladi.

Bu urinda shuni alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik-xushxulqlilikka, xushxulqlilik – yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yulga quyilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan – badxulqlilikka, badxulqlilikdan – axloqsizlikka utishi mumkin.

Shunday qilib, axloqshunoslik mazkur uch axloqiy hodisani bir-biri bilan uzviylikda va nisbiylikda urganadi.

2. Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan sung) alohida falsafiy yunalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribrog talqin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni xaqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning tadqiqot ob'ektini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin.

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yunalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) urgatadi. Shunga kura, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmona-me'yoriy tabiatga ega. Kadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero sof nazariy axloqshunoslikning bulishi mumkin emas. U insoniyat uz tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqlar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga urgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya'ni, axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Tsitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, Cazzoliy, Spinoza, Kant, Hegel, Shopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nittsshe, Vl. Solov'yov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda «Patanjali», «Kobusnoma», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul - qulub», Montenning «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ham uz mustahkam urniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, uziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaligidadir.

3. Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan uzaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning nafosatshunoslik (estetika) bilan aloqasi qadimiy va uziga xos. Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli buladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki guzallik) ham nafosat (tashqi guzallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar kup hollarda axloqiylikni ichki guzallik, nafosatni tashqi guzallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, san'at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari kutariladi va san'atkor doimo uzi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali bevosita yohud bilvosita aks ettiradi. Demak, nafosatshunoslik urganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan buladi.

Axloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo – axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bulgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir kursatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir utkazganlar.

Chunonchi, islom dinini oladigan bulsak, Kur'oni karim, Hadisi sharif, Ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida

katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondoshadi.

Axloqshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda kup hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil buladi. Shunga kura, axloqni jamoatchilik asosdagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan huquqshunoslikning tadqiqot ob'ektlari kup jihatdan uxshash, ular faqat yondoshuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni huquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanktsiyalar vositasida yulga quyiladi: axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, huquqshunoslik kasbi uchun muhim bulgan amaliy axloq jihatlarini axloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiiya etadi.

Axloqshunoslik pedagogika bilan ham chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnoma darslarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Shu bois axloqshunoslik uzining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlarini bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Zero, maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya uzini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida namoyon qiladi.

Kadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psihologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bulgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini urganadi. Lekin bu urganish ikki xil nuqtai nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv) larning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Axloqshunoslikning ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi uziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy muruvatlaridan bulmish axloqni urganadi. Lekin axloqshunoslikning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, uz mohiyatiga kura, lozim bulganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini urganadi.

Axloqshunoslikning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, uziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqazo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari urtaga chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona buladi. Bu hozirgi kunda axloqshunoslik ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, partiyaviy odob, etiket singari axloqshunoslikning muomala madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Bundan tashqari, keyingi paytlarda axloqshunoslikning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan axloqshunoslik kuproq insonning uzi, uzgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil tish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bulgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan.

Takrorlash uchun savollar

1. Axloqshunoslikning huquqshunoslik bilan aloqasi
2. Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan uzaro aloqadori

Adabiyotlar

19. Islom Karimov. «zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «zbekiston», 1998.
20. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,

21. Islom Karimov. Barkamol avlod- o'zbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «o'zbekiston», 1998.
22. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «o'zbekiston», 1999.
23. I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., o'zbekiston, 2000.
24. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.
25. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
26. I. Raximov. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
27. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar`-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

26-mavzu Turkiston marifatchi jadidlarning axloqiy qarashlari

Reja:

1. Turkiston ma`rifatchiligining uziga xos xususiyatlari.
2. Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa dastlabki ma`rifatchilarning asarlarida kutarilgan axloqiy muammolar.
3. Abay, Anbar otin, Abdulla Avloniy va Fitratning axloqiy qarashlari.
4. Jadid matbuotining axloqiy tarbiya borasidagi xizmatlari.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston ulkasi general-gubernatorlaridan biri A.N. Kuropatkinning uz kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va tsivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan suzlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati ham chor ma`muriyati tusiqlari orasidan sizib kirar edi. Shu ijobiy ta`sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg`onish davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida uz xalqini ozod kurishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg`onish Ovrupa ma`rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli buldi. Shuningdek, urta asrlar urtaga tashlagan ma`rifatparvarlik g`oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha-ma`rifatchilik tarzida namoyon bulish imkoniyati yaratildi. Zero usha g`oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan faoliyatli ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar.

Ma`rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular – maorif (yangicha maktablar ochish, ta`lim usulini yangilash), san`at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmi-ma`rifatli qilish bulsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg`unlashuvi natijasida uzligini, uz qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga etkkazish edi. Turkiston ma`rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yulida katta ishlar qilindi.

Turkiston ma`rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g`oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda uz aksini topdi. Shu jihatdan uzbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827-1897) «Navodir ul-vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish uz asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta`kidlaydi. Ayni paytda, an`anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho-hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san`atning gullab yashnashiga yul ochib bersa – xalq hayoti farovon buladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bulishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma`rifatli va yuksak axloq egalari bula oladi.

Shuningdek, Ahmad Donish uz davridagi johillik, riyokorlik, poraxurlik singari illatlar jamiyatni tanazzulga olib borishini ta`kidlar ekan, din peshvolarining notug`ri yulga kirib ketganini, shayxlarning yolg`onchiligini, ulamolarning poraxurligini fosh qiladi.

Koraqalpoq xalqining buyuk mumtoz shoiri Berdaq (1827-1900) she`rlarida ham usha davr axloqiy muhiti uz aksini topadi; u ham din peshvolarining uzi oxiratga ishonmasliklarini, tovlamachilik, ochkuzlik, tekinxurlik illatlariga muhtalo bulganliklarini va bu bilan islom ildiziga bolta urayotganliklarini qattiq tanqid ostiga oladi.

Buyuk uzbek mumtoz shoirlari Furqat (1878-1909), Muqimiy (1879-1903), Dilshod-Barno (1800-1906) asarlaridagi axloqiy muammolar taraqqiyparvarlik g`oyalari bilan chambarchas bog`lanib ketadi. Chunonchi, Furqat «Ilm hosiyati», «Gimnaziya», «Tarjimai hol» kabi asarlarida ma`rifatli bulish yuksak axloq egasiga xos xislat ekanini, lekin, nodonlik oxir-oqibat turli xulqiy notavonlikka olib kelishini ta`kidlaydi. Shoir g`azallaridan birida shunday deb alam bilan yozadi:

Charxi kajraftorining bir shevasidin dog`men,

Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur.

Muqimiyning hajviy asarlarida esa usha davrda avj olgan firibgarliklar, amaldorlarning noinsofliqi, adolatsizligi qattiq tanqid qilinadi. Shoirning «Voqeai Viktor», «Voqeai kur Ashurboy hoji»,

«Tanobchilar», «Tuy» singari asarlari Turkiston xalqlari oyog`idan tobora tubanlikka tortayotgai illatlarni ayovsiz fosh etadi. «Usha davrdagi boylarning nafsdan boshqa narsani bilmasliklarini, fahshu maishatga yuztuban ketganliklarini, chor atrofda adolatsizlik hukmronlik qilayotganining alam bilan yozadi. Endi Dilshodning bir muxammasidan olingan quyidagi parchaga diqqat qiling:

Alam utidin kuyodir bu jon
Dudi oh ila tula osmon,
Betoqat ulib chekaman fig`on,
Menga rahm etib yig`laydi makon,
Titrab boqadir zaminu zamon.
Boyonlarimiz nafsa ovora,
Tug`yoni oshib to bora-bora,
Atlas tuqig`on qizi bechora,
Yasanmay yuzga surtadi qora,
Kora kunlarga qoldi Marg`ilon.

Olma anoru mevalar koni,
Ammo mevaga zor bog`boni,
Bug`doy nonini kurmas dehqoni,
Paxta ekadi, yirtiq choponi,
Farg`ona zamin husni Namangon.

Bu satrlarda kutarilgan adolatsizlik muammosi orqali usha davrdagi ijtimoiy-axloqiy manzara yaqqol namoyon buladi.

2. Turkiston xalqlarining axloqiy yuksaklik va ma`rifat vositasida milliy uzligini anglash darajasiga kutarishda qozoq xalqining buyuk farzandi Abay (1847-1908) axloqiy qarashlarining ahamiyati katta.

Abay she`rlarida, shuningdek, «Iskandar», «Mas`ud» dostonlarida ezgulik, adolat, mardlik shijoat singari fazilatlar urnini illatlar egallab borayotganidan, xalqning yaxshilik bilan yomonlikni farqlay olmaydigan darajaga tushib qolganidan faryod chekadi:

Otalarga uxshamay qoldi turqing,
Yopiray muncha ketdi, elim, xulqing!
Birlik yuq, baraka yuq, buzildi fe`l,
Kani yiqqan davlating, boqqan yilqing

«Xulqi ketgan», «fe`li buzilgan», «aldamchi», «suq», «ochkuz» singari, sirtidan qaraganda uz xalqiga nisbatan beshafqatlarcha, xatto haqorat darajasiga kutarilgan bu suz va iboralar aslini olganda, millatni jondan ortiq sevgan buyuk shoir qalbining alamli yig`isidir.

Shunisi qiziqarliki, Abayning axloqiy qarashlari ma`lum jihatlari bilan g`arblik mashhur zamondoshi, buyuk olmon faylasufi, adibi Fridrix Nittssening ba`zi qarashlariga yaqin. Ammo, ta`kidlash kerakki, Nittsshedagi uta keskinlik, uta beqarorlik Abayga yot. Shunga qaramasdan, qadriyatlarini qayta baholash, lozim bulsa, butun millatni qayta tarbiyalash kabi g`oyalar Abayga ham xos. Xususan, u xalqni uz fe`lini uzgartirishga, bu yulda lozim bulsa, an`anaviy hayot tarzidan, ota-bobolardan qolgan ugit – maqollardan, xatto asrlar mobaynida urgangan chorvachilikdan kechishiga da`vat etadi. Chunonchi, Abay uzining mashhur «Nasihatlar» deb atalgan axloqshunoslikka va amaliy axloqqa doir kitobida shunday deb yozadi; «Kozoqlarning bir-biriga dushman bulishining, birining tilagini ikkinchisi tilamasligining, rost suzi kam, mansabparast, yalqov bulishliklarining sababi nimadaO` Bunga dunyoda utgan barcha donishmandlar shunday javob qiladi: har qanday yalqov kishi – qurqoq va g`ayratsiz buladi; har qanday maqtanchoq qurqoq kishi – aqlsiz, nodon buladi; har qanday aqlsiz nodon kishi – orsiz buladi; har qanday orsiz kishi –yalqov, kishi oldida tilamchi, ochkuz, suq buladi; bunday hunarsiz kishilar hech qachon birovga dust bulmaydi. Bu illatlarning hammasi turt oyoqli molni kupaytirishdan boshqa narsa xayoliga kelmaydigan kishilardan chiqadi. Agar inson ekin-tikin, ilm-hunar, savdo ishlari bilan shug`ullansa, bunday yomon fazilatlar (ya`ni illatlar) unga dorimagan bulur edi».

«Nasihatlar» risolasininng boshqa bir urnida Abay, maqollarni tahlil etish orqali, yuqorida aytganimizdek, ma`lum ma`noda an`anaviy qadriyatlarini qayta baholashga intiladi: «Bizning qozoqlarni aytib yurgan maqollari ichida, – deydi Abay, – ishga yaroqlisi ham, yaroqsizi ham bor. Ba`zilari yaroqsiz bulishi u yoqda tursin, xatto na musulmonchilikka va na odamgarchilikka tug`ri

keladi. Avvalo: «Faqir bulsang – orsiz bul!» deyishadi. Ordani ayrilib tirik yurgandan kura, ulgan afzal... «Oltinni kursa farishta ham yuldan ozadi», deyishadi. Sadqai farishta ketgurlar-ey! Bu shunchaki ularning uz shum niyatlarini ma`qullamoqchi bulib aytganlari emasmiO`... «Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol yig`», «uzingda yuq bulsa, otang ham dushman», «mol – odamning jigar gushti», «Moli kupning – yuzi yorug`, moli yuqning yuzi – choriq», «egan og`iz uyalar», «Olag`on kuzim berag`on»... Bundan ma`lum buldiki, qozoqlar tinchlik uchun g`am emas ekan, balki aksincha mol-dunyo uchun g`am chekar ekan... Agar moli bor bulsa, uz otasi bilan ham yovlashishdan uyalishmas ekan... Ishqilib, ug`rilik, shumlik, tilanchilik, quying-chi, shunga uxshash yaramas fazilatlar (ya`ni illatlar) bilan mol topsa ham buni ayb sanamasligimiz kerak ekan». Boshqa bir urinda buyuk mutafakkir imon haqida suz yuritib, yana ba`zi maqollar tug`risida shunday deydi: «Imonga shak keltirgan bandalarni Olloh taolo afu etmaydi va payg`ambarimiz ham shafqat qilmaydi, bu mumkin ham emas. «Kilich ustida shart yuq», «Xudoy taoloning kechmas gunohi yuq» – degan qalbaki maqollarga suyanganning basharasi qursin!».

Abay uz millatini nihoyatda sevgan mutafakkir. U hech kimni haqorat qilmoqchi yoki kamsitmoqchi emas; bu achchiq gaplar xalq dardida urtangan mutafakkirning alamli fikrlaridir. Abay odamlarning torlashib, maydalashib ketayotganidan, erdagi uz insoniy vazifasi va ma`suliyatini bajarmayotganidan g`azablanadi: «Suqrotga og`u bergan, Ionna Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, payg`ambarimiz salollohu alayhi va sallamni tuyaning ulimtigiga kumgan kimO` Xalq! Shunday bulgach, xalqda aql yuq. Yulini top-da, xalqqa rahnamolik qil». Kurinib turibdiki, buyuk qozoq mutafakkirining axloqiy ideali xalqqa rahnamolik qila biladigan odam. Albatta, u alo odam emas, lekin alo odam vazifasini ma`lum ma`noda bajara oladigan inson. Bunday insonni tarbiyalash voyaga etkazish, lozim bulsa, yaratish (ma`naviy jihatdan) mumkin; «Odam onadan aqli bulib tug`ilmaydi, – deydi Abay,-balki tug`ilganidan keyin, dunyoda nima yaxshi, nima yomon ekanligini eshitib, kurib, ushlab, topib, zehn quyib aqli buladi». Boshqa bir urinda esa, mutafakkir, mana bunday deydi: «Agar davlat mening qulimda bulganida, inson farzandini tuzatib bulmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...»

27-mavzu Axloqning kelib chiqishi, unda ixtier erkinligining ahamiyati va axloq tizimlari ***Reja:***

1. Axloqning kelib chiqishi.
2. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.
3. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar va axloqiy taraqqiyot muammosi.
4. Axloq tuzilmasi.

Kadimiy ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat deb qabul qilingan. Bular – nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning uzaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Har uchalasiga ham paydo bulish, rivojlanish, uzini muhofaza qilish, nasl qoldirishga intilish instinkti berilgan va hayotining bir kunmas-bir kun ulim bilan nihoya topish qismati belgilangan. Chunonchi, usimlik urug`dan paydo buladi, rivojlanadi, singan shoxlari urnini sirach chiqarib, davolaydi – muhofaza qiladi, urug`ini qoldirib, bir kun quriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a`zolari va qobiliyatiga hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi, bir suz bilan aytganda, aql bor. Uni Imom ƣazzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqazo etadi.

Bu fikrni yoyibroq tushuntirish uchun insonning paydo bulishi tarixiga nazar tashlamoq joiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning paydo bulishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir-biriga qarama-qarshi ikki qarash mavjud. Biri – diniy, ikkinchisi – dahriycha qarash. Diniy-e`tiqodiy nuqtai nazardan odamni Xudo yaratgan. Dahriycha qarash esa, buni inkor etib, odamni tabiat yaratgan, u tabiatning bir qismi, degan g`oyani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiiyyotshunosi Charl`z Darvin (1809-1882) fikrlari alohida e`tiborga molik. U tabiiy turlarning tanlov yuli bilan kelib

chiqishi haqidagi evolyutsion ta'limotni yaratdi. Darvin odam bilan odamsimon maymunlarning qardoshligini isbotlashga urindi va odam maymundan paydo bulgan jonzot degan xulosa chiqardi. Darvincha-dahriycha qarash yaqin-yaqingacha «sotsialistik lager» hududiga kirgan mamlakatlarda rasmiy, davlat yondoshuvi sifatida hukm surib keldi. Totalitar tuzumga asoslangan bu davlatlar tanazzulga uchragach, yana insonni Xudo yaratgan degan fikr ularda etakchilik mavqeini egalladi. Umuman, olganda, insoniyatning intellektual tarixida, hatto nisbatan dahriylik asri bulmish XX asrda ham, insonni Xudo yaratgan, degan fikr kamida tuqson foyizni tashkil etadi. Biz ham ana shu kupchilik tomonidamiz. Ayni paytda, kamchilik bildirgan va bildirayotgan aksil fikr ham yashash huquqiga ega ekanini tan olamiz.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zilar, diniylik bilan dunyoviylik bir-biri bilan sig'ishadigan hodisalarni, degan havotirli savol tug'iladi. Biz unga «Ha!» deb javob beramiz. Ular na faqat sig'ishadi, balki bir-birini taqozo etadi. Xususan, dunyoviylik diniylikning mavjudlik sharti, ya'nibu dunyo bulmaganda, umumjahoniy dinlar va muqaddas kitoblar nozil qilinmagan bulur edi. Ular bir-biri bilan sig'ishgani uchun ham bugun biz Arastuga, Forobiya, Ibn Sinoga, Kantga, Ulug'bekka, N'yutonga egamiz. Hamma tushunmovchilik bizda hali ham shurolar davridan qolgan sarqit-odatdan kelib chiqadi: biz hali-hanuzgacha dunyoviylikni emas, dahriylikni, dunyoviy ilmlarni emas, markscha-lenincha deb atalgan soxta «fan»ni inkor etadi. Dunyoviylik esa jamiyatdagi diniylikni ham, dahriylikni ham fuqarolarning vijdon erkinligi sifatida qabul qiladi. Shu bois bizning davlatimiz aslo dahriy davlat emas. Frantsiya, Olmoniya, Yaponiya, AKSh kabi dunyoviy davlat, ta'lim tizimimiz ham dahriylikka emas, dunyoviylikka asoslanadi.

Yuqorida keltirganimiz, XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshqa jonzotdan keltirib chiqarishning nojoizligi haqida gapirib, inson transtsendental bog'liqlikka ega, uning imkoniyatlarini, erkini hech bir jonzotniki bilan qiyoslab bulmaydi, inson hatto imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanini uzi ham bilmaydi, deganida uni ulug'laganida, bizningcha, tamomila haq edi. Agar diqqat qilsak, asrimiz mutafakkirining fikri Kur'oni Karim «Baqara» surasida marhamat qilingan quyidagi oyatlarga hamohangdir: «30. Eslang (Ey Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men erda (Odamni) xalifa (yordamchi) qilmoqchiman», deganida, ular aytdilar: « U erda buzg'unchilik qiladigan, qonlar tukadigan kimsani (xalifa) qilasanmi Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug'laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz». (Ollloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman» va u zot odamga barcha narsalarning ismlarini urgatdi. Sungra ularni farishtalarga rubaru qilib dedi: «Agar xalifalikka biz haqdormiz degan suzlaringiz rost bulsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!» 32. Ular aytdilar: «Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta Sen uzing ilmu hikmat sohibisan». 33. (Ollloh): «Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir», dedi. (Odam) ularga barcha narsalarning ismlarini bildirganidan keyin (Ollloh) aytdi: «Sizlarga, Men eru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidimO'». 34. Eslang (Ey Muhammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim qiling, deyishimiz bilan sajda ga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan buldi».

Vaholanki, sajda bungacha faqat Tangrigagina bajo keltirilar edi. Demak, Xudo bu bilan barcha mavjudotlardan oliy, daraja nuqtai nazaridan uzidan keyin turadigan buyuk zotni yaratganini e'lon etdi. Odam – Xudoning erdagi xalifasi. Shu urinda «xalifa» suzining amaliy ma'nosi haqida tuxtalmoq urinli. Uni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bulsak, kosiblikka, hunarmandchilikka murojaat qilish maqbul. Ma'lumki, kosib yoki hunarmand ustaning qadimda bir necha shogirdi bulgan. Ular orasidagi eng aqlli, tadbirkori, ustaning muhabbatini qozongani usta tomonidan xalifa etib tayinlangan. Xalifaga usta uzining bir qancha vakolatlarini, jumladan, biror yoqqa safarga ketsa, shu muddat mobaynida boshqa shogirdlarni boshqarib, rahbarlik qilib turishni topshiradi. Shunday qilib, usta qaytib kelgunga qadar xalifa uning irodasini amalga oshirish bilan mashg'ul buladi. Odam ham Ollohga nisbatan ana shunday xalifadir: to u qiyomatga qadar, ya'ni Tangri dargohiga borgungacha nabotot va hayvonot olami ustidan hukmronlik qilib turadi. hukmronlik qilish uchun, ma'lumki, muayyan darajada erkinlikka, erkin harakatni ixtiyor etish huquqiga ega bulish, falsafiy ibora bilan aytganda, ixtiyor erkinligi zarur. Ana shu ixtiyor erkinligi faqat insonga berilgan. Farishtalar bunday ma'naviy ne'matdan mahrum – ular faqat Ollohning buyrug'ini bajaradilar. Lekin insondagi ixtiyor qilish erkinligi ham cheklangan – u Ollloh tomonidan Kur'oni karimda umumiy tarzda belgilab berilgan doiradagina mavjud bulishi kerak. Shu bois mutlaq erkinlik insonga emas, faqat Yaratganga xos.

2. Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga buysundirilgan ravishda, cheklanadi, ya'ni nisbiylashadi. Aks holda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruhning betiyiq erkin ixtiyori na faqat boshqa insonlar va guruhlar, balki nabotot, hayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning, aqlga buysundirishning asosiy vositasi axloqdir.

Shunday qilib, axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manba'dandir. Ana shu ilohiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois uz-uzini va, iloji bulsa, uzgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat hissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, uzgalar va uz vijdoni oldida javobgarlikni sezmagani kishi xohlagan ishga qul urishi mumkin – uni uz qilmishining oqibati qiziqitirmaydi, u faqat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir xatti-harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasi.

Umuman, inson va jamiyat axloqiy hayotida tanlovning ahamiyati beqiyos. Masalan, tarixdan bir ta'sirchan voqeani olib kuraylik: Bozorda mutasavvif alloma, ozarboyjon, eski uzbek (turkiy), fors tillarida ulmas asarlar yaratgan buyuk shoir Imoiddin Nasimiyning g'azalini yod uqiyotgan bir yosh yigitni kufrda ayblab, hibsga oladilar. Yigit oldida ikki yuldan birini tanlash turardi: yo piri Nasimiyni sotish va tavba qilib, banddan ozod bulish yoki g'azalni uzimniki, deb ulimga tik borish. Pokdomon, or-nomusli yigit ikkinchi yulni tanlaydi. Kozi uning terisini shilishga buyuradi. Olomon – tomoshabinlar yig'iladi. Shu payt Nasimiy kelib qoladi. Voqeadan xabar topgan Nasimiy oldida ham endi tanlov turardi – tanlamaslikning iloji yuq edi: yo uzini oshkor qilib, yosh yigitni jallod qulidan qutqazishi va uning urnini egallashi, yoki olomon orasidan sekin sirg'alib chiqib ketib, shogirdining ulimga mahkum etilishi evaziga uz jonini asrab qolishi kerak. Buyuk mutasavvif shoir birinchi yulni tanlaydi: uzini jallod quliga tutqazib, begunoh yigitni ozod etadi. Kozi Nasimiyning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga qon sachraydi. Shunda qozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning tomchi qoni biror eringizga tegsa, usha erni kesib tashlash kerak buladi, deydi. Kozi gapini tugatar-tugatmas, Tangri irodasi bilan bir tomchi qon sachrab kelib uning jimjalog'iga tegadi. Olomon qozidan barmog'ini kesib tashlashini talab qiladi. Endi qozining oldida tanlov turardi: yo barmog'ini kesishga berib, gapining ustidan chiqishi yoki gapidan qaytib, sharmisor bulishi kerak. Kozi axloqiy nopok, qurqoq va xudbin odam sifatida gapidan qaytadi. Nasimiy esa qiynoqqa mardonovor chidab, churq etmaydi, aksincha qozining ahvolini kurib, istehzoli kuladi va sunggi g'azalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan-asrlarga utdi, ne-ne shoirlarning she'rlarida madh etildi, uzi esa insoniy poklik va yuksak axloqiylikning ulmas timsoli bulib qoldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtumqulining «Savol-javob» she'ridan quyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin:

Maxtumquli – U nimadir, emadilar-tuydilar
 U nimadir, ulug` kunga quydilar
 Ul kim edi tovonidan suydilar
 Shoir bulsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir – U diydordir, emadilar-tuydilar,
 U namozdir-qiyomatga quydilar,
 Nasimiyni tovonidan suydilar,
 Bizdan salom bulsin, javobimiz shu!

Shunday qilib, ushbu misolda uch xil tanlovni, uch xil mas'uliyatni va ixtiyor erkinligidan uch xil foydalanishni kurdik. Demak, har bir insonning bu dunyoda axloqiy tanlov sinovidan utmasligi mumkin emas.

3. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar ana shu tanlovni ruyobga chiqarishga, yana ham aniqroq aytganda, uni osonroq amalga oshirishga xizmat qilgan. Ilk axloqiy qoida «uzingga ravo kurmagani narsani boshqaga ham ravo kurma» mazmunida dunyoga kelgan. Uning hozirgi zamondagi uzbekchasi «pichoqni avval uzingga ur, og`rimasa uzgaga ur», «uzingni er bilsang, uzgani sher bil» kabi

maqollarda aks etgan. «Axloqning oltin qoidasi» deb atalgan ushbu qoida, bizningcha, eng qadimiy axloqiy talablardandir. Zero xun olish talabi keyinroq paydo bulgan va insonning asl mohiyatiga tugʻri kelmaydigan qoidalar. Barcha muqaddas kitoblarda insonni zurlik bilan jonsiz qilishning mumkin emasligi taʼkidlanadi. Biz kurib utganimiz, bundan deyarli XXX asr muqaddam tarqala boshlagan zardushtiy dinining muqaddas kitobi «Avesto»dayoq axloqiy qonun-qoidalar ishlab chiqilgani diqqatga sazovor. Unda insonni inson tomonidan uldirishgina emas, balki it, ot kabi hayvonlarni jonsiz qilish, daraxt va usimliklarni behuda halok etish qatʼiyan man qilinadi, inson faqat ezgu uy, ezgu niyat va ezgu aʼmollar bilan yashashi lozimligi taʼkidlanadi. Bibliyoda Kobilni uldirgan Hobildan Tangri xun olmaslikni va uni uldirmaslikni talab etadi. Buddha taʼlimoti jonlini jonsiz qilishni eng katta gunoh deb biladi. Injilda «uz qavmdoshingni sev», «odam uldirma», degan daʼvatlar asosiy qoidalar sifatida namoyon buladi. Kurʼoni karimda esa xun olishdan kura tovon olmoq maʼqulligi aytiladi va musulmonlar uzaro faqat guzal munosabatlar qilishi lozimligi kursatiladi. Demak, dastlabki axloqiy qonun-qoidalar muqaddas kitoblarda uz aksini topgan zuravonlikka zuravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.

Ana shu, inson axloqiy hayotining asosi bulgan qonun-qoidalar hozir ham uz ahamiyatini yuqotgani yuq. Odamlar ularni ogʻir majburiyat deb bilmasdan, dil-dildan bajaradigan zamonning tezroq kelishi uchun tinmay harakat qilishlari axloqiy taraqqiyotdan dalolatdir. Zero ana shu yulda inson uz Yaratganiga maqbul komil inson bulib etishadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar va axloqiy taraqqiyot muammosi.
2. Axloq tuzilmasi.

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. «zbekiston buyuk kelajak sari». - T.: «zbekiston», 1998.
2. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,
3. Islom Karimov. Barkamol avlod-«zbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «zbekiston», 1998.
4. Islom Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «zbekiston», 1999.
5. I.A. Karimov. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq eʼtiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., «zbekiston, 2000.
6. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.
7. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
8. I. Raximov. Logikadan amaliy mashgʻulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
9. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar`-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

28-mavzu Axloqning tizimidagi urni

Reja:

1. Ma`naviyat haqida umumiy tushuncha.
2. Axloqning boshqa ijtimoiy-ma`naviy hodisalar bilan uzaro aloqalari: axloq va din, axloq va huquq, axloq va siyosat, axloq va san`at, axloq va fan, axloq va mafkura.
3. Axloqning ma`naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik ahamiyati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin dastlabki urtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri-ma`naviyat buldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero ma`naviyatsizlikning har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shak-shubhasizdir. Shu munosabat bilan, ma`naviyat uzi nima-yu, u qanday kelib chiqqan, degan masalaga tuxtalib utmoq urinli. Bu masala esa bizni yana odamning paydo bulishi muammosiga murojaat etishimizni taqozo qiladi.

Tangri insonning jismini loydan – moddiy materialdan yaratgach, unga jon, ruh ato etdi. Endi inson ruh va vujudning yaxlitligi sifatida faqat ruhdangina iborat farishtalardan ulug`roq maqomga ega buldi. Ruhning vazifasi – vujudni boshqarish. Demak, odamda moddiylikdan kura ruhiylik-ma`naviylik mantiqan birlamchi. Buni inson sezgilarining «moddiylik» va «ma`naviylik» nisbatida kurish mumkin. Insondagi besh sezgidan faqat ikkitasi – biror moddiy narsaga tegib his etish va biror narsaning ta`mini bilish orqali his etishgina bevosita «moddiy sezish»ga taalluqli. Kolgan uch sezgi – kurish, eshitish, hid bilish esa muayyan moddiy narsaga tegmagan holda, «ma`naviy sezish» orqali u haqda tasavvurga ega buladi. Buning ustiga avvalgi ikki sezgining biri inson jismoniy kuchini qullashda – qurish, buzish, jismoniy boshqarishda, ikkinchisi inson vujudi uchun zarur bulgan moddalarni ovqat sifatida qabul qilishda zarur. Kolgan uch sezgi esa insonga guzallikni kurish, uni xunuklikdan farqlashda, yoqimli tovush bilan yoqimsiz tovushni anglashda, xushbuy hiddan badbuylikni ajratishda kerak. har ikkala toifadagi sezgilar orqali ham inson rohatlanadi. Jismoniy mehnatdan olinadigan rohat va gastrologik lazzat –bir tomondan, guzallikdan, yoqimli tovushdan, xushbuylikdan olinadigan lazzat – ikkinchi tomondan. Har ikkala toifa sezgilar «xizmat»ini fikr tarozusiga solib kuradigan bulsak, buning ustiga «oltinchi sezgi» – aqlning mavjudligini hisobga olsak, «ma`naviy sezgilar» tosh bosib ketadi. Zero bu «qorin tuydirmaydigan» sezgilar insonning oliy mavjudot ekanini anglatuvchi belgilardir. Tug`ri, inson qorin tuydirishi kerak, lekin u qorin tuydirish uchun yashamaydi, balki yashash uchun qorin tuydiradi. Insoniy hayotning hayvoniy hayotdan farqi ham shunda.

Aytilganlardan xulosa chiqaradigan bulsak, uch «ma`naviy sezgi» orqali olinadigan lazzat, inson hayotining mazmuni-maqсад, ikki «moddiy sezgi» esa ana shu maqsadni amalga oshirish yulida vosita. haqiqiy ma`naviy lazzatga erishish, tom ma`noda ma`naviyatli yashash uchun, tabiiyki, «vosita-sezgilar» ham pokiza, haromdan yiroq bulishi lozim. Zero nopok vositalar bilan erishilgan lazzat – ma`naviyat emas, u xuddi bir uyum gung ustida usgan atirgul kabi kishida afsus hissini uyg`otadi.

«Korin falsafasi»ga asoslangan, insonni faqat qorni tuq, bir xilda fikrlovchi kommunistik jamoa a`zosi qilib tarbiyalashga uringan shurolar tuzumi materializmni – moddiyatchilikni ilohiylashtirish barobarida ma`naviyatga etarli e`tibor bermadi, uni ikkinchi darajali unsur deb hisobladi. Bizning hozirgi erkin jamiyatimiz esa, moddiyatchilikning ahamiyatini inkor etmagan holda, ma`naviyatchilik yunalishini ustuvor sanab, insonni eng avvalo, ma`naviyatli shaxs, uz fikriga, uz suziga, uz erkiga ega ma`naviy individ, qolaversa fuqarolik jamiyatining a`zosi ekanini, e`tirof etadi. Na faqat e`tirof etadi, balki ana shu yunalishda juda katta ishlarni amalga oshirishni asosiy vazifasi deb biladi.

Endi ma`naviyatning hayotda namoyon bulishi qanday ruy beradi, u qanday sohalarini uz ichiga oladi, degan savollarga e`tiborni qarataylik. Bu borada hozirgi paytda turli xil qarashlar, fikrlar mavjud. Zero ma`naviyat qamroviga kiradigan sohalar juda kup va xilma-xil. Shu bois faqat ularning eng asosiylari, ya`ni ma`naviyatning shohtomirlari bulmish unsur-sohalar haqidagina gapirish mumkin.

Ulardan biri va birinchisi – ezgulik; ikkinchisi – guzallik; uchinchisi – e`tiqod, ya`ni ana shu ezgulik va guzallikning tom ma`nodagi timsoli bulmish Yaratganga e`tiqod.

Mutlaq ezgulik egasi bulmish Yaratgan insonni ezgu ishlar qilish, ezgulikka ezgulik bilan javob berish uchun yaratdi. Zero Tangri insonni yaratib, buyuk ezgulik namunasini kursatgan ekan, uning bandasi bulmish odamzot ham ezgulikka ezgulik bilan javob berishi kerak: Ollohni sevishi, faqat ezgu a`mollarga, yaxshilikka

kamarbasta turishi, uz qavmdoshlariga ham, atrof- muhitga ham ezgulik nuqtai nazaridan munosabatda bulishi shart. Ezgulik esa, bizga ma`lumki, axloqning, oqilona xatti-harakatlarning asosi, axloqshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, axloqiylik inson ma`naviyatining asosiy ustuni.

Mutlaq guzallik sohibi bulmish Yaratgan insonni guzal mavjudot, uzidan keyingi ikkinchi guzallik yaratuvchi zot qilib bunyod etdi. Ayni paytda odamzot Ollohning erdagi xalifasi sifatidagi Tangri in`om etgan atrof-muhitdagi guzallikni, guzal xulqni, guzal a`mollarni asrashi, ardoqlashi lozim. Zero «Olloh guzal va u guzallikni sevadi». Ushbu hadisi sharif suzlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: Ollohnı sevgan bandasi albatta guzal bulishi va guzallikni sevishi shart. Aks holda u farishtalarga ham nasib etmagan xalifa degan sharaflı nomga noloyiq. Guzallik esa nozik hissiyotlarning, qalbni yumshatuvchi, mayinlashtiruvchi, insonga hımlilik baxsh etuvchi, qalbni forig`lantiruvchi nozik hissiyotlarning asosi, nafosatshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, guzallikka muhabbat ham ma`naviyatning asosiy ustunlaridan.

E`tiqodni esa, ezgulikka va guzallikka muhabbatning, ularga iqtido qilishning eng oliy darajasi deyish mumkin. Uning eng mukammal kurinishi uzini din shaklida namoyon etadi. Dinlar har xil bulishiga qaramay, muqaddas kitoblarning mohiyati bir: inson mutlaq ezgulik va mutlaq guzallik sohibiga e`tiqod orqali komillikka erishadi. Zero, barcha dinlarning maqsadi komil insonni tarbiyalash. Shu bois ham Kur`oni karimda haqiqiy mumin barcha nozil qilingan kitoblarning muqaddasligini tan olishi shart, deya qayta-qayta ta`kidlanadi.

Demak, har bir inson uz hayotini ana shu uch asosga qursagina, ma`naviyatli hisoblanadi. Axloq, – ma`naviyat tizimida eng salmoqli urinni egallaydi va undagi boshqa sohalar bilan mustahkam aloqada ish kuradi. Endi ana shu aloqalarning eng muhimlariga qisqacha tuxtalib utamiz.

2. Avvalo, axloq bilan din masalasini olib qaraylik. Bu borada yana, yuqoridagi fikrlarga qushimcha qilib, shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. Shu bois diniy-shar`iy tamoyillar va me`yorlar, hadisi sharifdagi ugitlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog`liq. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat`iy muhofaza etiladi. Odam uldirish mumkin emas, odam uldirish eng ulkan axloqsizlik hisoblanadi. ug`rilik, birovning haqini eyish, munofiqlik, aldash, yolg`on gapirish va shu kabi boshqa turli illatlar ham diniy-shar`iy, ham axloqiy nuqtai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e`zozlash, odamlarning bir-biriga kumakdosh bulishi, tug`rilik, rostguylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bulmasin, unga xushomad qilishdan tiyinish, faqat Yaratgangagina sig`inish singari fazilatlar ayni paytda ham diniy taqvo, ham axloqiy talab tomonidan ma`qullangan xatti-harakatlardir. Shu bois axloqni dindan mustaqil, muxtor ma`naviy hodisa sifatida talqin etuvchi markscha-lenincha qarashlar mantiqiy va ilmiy asosga ega emas. Din, ta`kidlaganimizdek, insonni axloqiylashtirishning vositasi tarzida ish kuradi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. har ikki holatda ham vijdon kuzga kurinmaydigan boshqaruvchi murvat sifatida namoyon buladi. Bu-botiniy kurinish; zohiriy kurinish esa shar`iy hukmlar va huquqiy qonunlarda uz aksini topadi.

Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda uz aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero aslida ham shunday. Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar usha mintaqa xalqi tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me`yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bulgan urf-odatlar zahirida vujudga keladi. Lekin ba`zi bir urf-odatlar, an`analalar huquqiy me`yorlar darajasiga kutarila olmasligi ham mumkin. Buning sababi, ularning, avvalo, nisbatan xususiy tabiatga ega bulganida, qolaversa, axloqiy va huquqiy taraqqiyot talablariga javob bera olmasligida. Masalan, johiliyat davrida arablarda qiz tug`ilsa, uni tiriklay kumib tashlash odati bulgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odat g`ayri muslimlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, unday hodisa huquqiy qonunlar asosida jinoyat deb qaraladi. Yoki bizning mintaqada qadimda mavjud bulgan xun olish odati ham hozirda jinoyat sifatida jazoga loyiq hisoblanadi. Bunday misollarni kuplab keltirish mumkin.

Kurinish turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bulsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand-ugitlar vositasida ish kursa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi. Ayni paytda, shuni ham aytish kerakki, huquq axloqqa nisbatan ancha aniq va ancha muayyan ichki bulinishlarga ega. Chunonchi, xalqaro huquq, fuqaro huquqi, jinoiy huquq, mehnat huquqi va h. k. nisbatan qat`iy chegaralangan huquqiy me`yorlar mavjud. Axloq esa huquqqa nisbatan ancha keng qamrovli. Chunonchi, huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbıq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar,

pand-ugitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagi kishilarga taalluqli buladi. Shuningdek, huquqiy me`yorlar aniq adresni taqozo qiladi, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi.

Axloqning siyosat bilan aloqasi ham nihoyatda qadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XUIII asrda Bobilon podshosi Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmui huquqiy hujjat bulsa-da, uning asosida axloqiy fazilat – adolatni barqaror etish yotadi. Zero Xammurapi bu qonunlarni mamlakatda haqiqat qilish, adolat urnatish, etim-esirlar va beva-bechoralarga himmat, rahm-shafqat kursatish maqsadida joriy etganini ta`kidlaydi.

Axloqshunoslik tarixida axloq bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki xil qarash mavjudligini kurish mumkin. Ularning biriga kura, siyosat axloqiy bulmog`i lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axloq bilan sig`ishmaydi.

Birinchi qarash mohiyatan axloqni siyosatdan yuqori quyadi: siyosat axloqqa buysundirilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, maqsadlar va vositalar birligiga erishmoq lozim, ya`ni buyuk, pokiza ideallar faqat axloqiy pok vositalar orqali amalga oshirilmog`i kerak. Lekin bunda axloq siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks holda muayyan davlat institutlarining, xususan, huquq-tartibot va harbiy idoralar singari tashkilotlarning ishini ortiqcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib quyish mumkin.

Ikkinchi qarash esa, mohiyatan siyosatning axloq bilan hisoblashmasligini taqozo etadi. Bu qarash tarafdorlari axloqni siyosatga buysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz ugirish lozimligini ta`kidlaydilar. Ular nazdida, axloq buyuk ideallarga erishuv yulidagi bir g`ov, jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar bilan uralashtirib quyadi, kungli bushlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh-boshdoqlikka olib keladi. Shu bois buyuk maqsadlarga tezroq erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin. Zero oxir-oqibat erishilgan maqsad yul quyilgan razilliklar, qattolliklar, aldovlar va firiblarni yuvib ketadi. Vaholanki, bu usul orqali faqat vaqtinchalik g`alabaga erishish mumkin. Oqibatda esa, bu g`alaba na faqat yuqqa chiqadi, balki mag`lubiyatga aylanadi. Misol tariqasida yana shurolar tuzumiga murojaat qilish mumkin. Zurlik, aldov va qatag`onlar bilan xalqni baxtli qilishga urinish, «xalq baxti» uchun millionlab odamlarning yostig`ini quritish evaziga erishilgan g`alaba oxir-oqibatda buyuk mag`lubiyat sifatida nihoya topdi. Yuqorida keltirganimizdek, u ulug` maqsadlarni iflos vositalar bilan amalga oshirish usha maqsadlarning ham toza emasligini amalda isbotlaydi. Endilikda sobiq Shurolar Ittifoqi tarkibiga kirgan xalqlar axloqsiz siyosat tufayli jahondan ajralib qolgani, yolg`on, poraxurlik, kuzbuyamachilik bu mintaqalar uchun odatga aylanib ketgani hammaga ma`lum. Bu illatlardan tozarish, qutilish uchun yana necha un yillar kerak ekani kuzga kurinib turgan reallikdir. Demak, siyosatda axloqdan kuz yumish, uni axloqiylashtirishda yuzaga keladigan ba`zi nuqsonlardan yuz bor, ming bor kup va fojeiydir. uz siyosatini tubdan axloqiylashtirish – har bir zamonaviy davlatning hozirgi kundagi birlamchi vazifasi.

Axloq bilan san`atning uz aro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, uni et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlik ekanini ta`kidlamoq lozim. Chunki har bir haqiqiy san`at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in`ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatguylik, tug`rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, ulim va ulmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar urtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Jul`ettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Takrorlash uchun savollar

1.

Adabiyotlar

10. Islom Karimov. «zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: «zbekiston», 1998.

11. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. «Muloqot», 1998,
12. Islom Karimov. Barkamol avlod-«zbekiston taraqqiyotining poydevori. /Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulida: T.6-T.: «zbekiston», 1998.
13. Islom Karimov. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «zbekiston», 1999.
14. I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurası – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir: «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., «zbekiston, 2000.
15. M. Xayrullaev, M. Haqberdiev. Mantiq, 4-bob.
16. Yu.V. Ivlev. Logika, 3-bob, 3-paragraf.
17. I. Raximov. Logikadan amaliy mashg`ulotlar va metodik tavsiyalar, 4-bob.
18. N.I. Kondakov. Logicheskiy slovar`-spravochnik. Mavzuga oid maqolalar.

29--mavzu Axloqshunoslikning asosiy mezoniy tushunchalari, axloqiy tamoyillar va meorlar Reja:

1. Axloqshunoslik mezoniy tushunchalari (kategoriyalari) ibtidosining hissiyotga borib taqalishi.
2. Axloqshunoslik asosiy mezoniy tushunchalarining mohiyati.
3. Axloqiy tamoyillar, me'yorlar hamda ularning inson va insoniyat jamiyati taraqqiyotidagi ahamiyati.

Avval biz axloqiy hissiyotlarni axloqiy anglash uchun muayyan ma'noda material ekani tug'risida bir rov tuxtalib utgan edik. Bu haqda mumtoz faylasuflar ham e'tiborga sazovar fikr bildirganlar. Chunonchi, buyuk ingliz mutafakkiri Jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval hissiyotda mavjud bulgan, deb ta'kidlaydi. «Tabiat qonuni borasidagi tajribalar» asarida u shunday deb yozadi: «Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi etkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan buladi va aql bilishin taraqqiy ettirishi borasida tosh, yog'och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz me'mor bino qurishda qanchalik ish qila olsa, shunchagina ish bajara biladi». Aqlni ideallashtirish, hissiyotni ikkinchi darajali omil chifatida talqin etish, afsuski, Lokk va unga uxshash ba'zi mutafakkirlar fikrlarini hisobga olmaslik keyingi davrlarda, ayniqsa, kuchaydi. hegel` singari faylasuflar esa butun borliqni mantiqiylashtirish yulidan bordilar. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, farb allomalari bu yulning kup jihatdan yanglish ekanini angladilar. XX asr mutafakkirlari, ruhiy tahlil falsafasidagi yangi froydchilik oqimining atoqli namoyandalaridan biri Karl Yung shunday deb yozadi: «farb kishisi» ruhiy («psixologik», suzini eshitganida, uning uchun «u shunchaki ruhiy» tarzida jaranglaydi. Uning uchun «psixe» – qalb qandaydir, achinarli darajada kichik, e'tiborga noloyiq, shaxsiy, sub`ektiv v.h... Shu sababli «ruh» (qalb) urniga «aql» suzini ishlatishni ma'qul kuradi...» Boshqa bir urinda: «... barcha metafizik mulohazalar uchun ijodiy zamin aynan qalbning (ma'naviylikning) kuzga kurinmas, etishib bulmas tarzidagi in'ikosi hisoblangan ongdur...», degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, «yurak va aql», «hissiyot va ong» bahsida farb, ayniqsa, bizning XX asrda, suzsiz, birinchilikni aqlga, onnga beradi. Yuqoridagi kabi fikrlar istisnoli hollardir. Shu bois axloqshunoslik nuqtai nazaridan muhabbat haqida gap ketsa, uni hissiyot, deb yana buning ustiga, ta'riflash qiyin bulgan tuyg'u, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib qarashdan chuchiydilar. Vaholanki, muhabbat aynan axloqiy hissiyot va axloqshunoslikning bosh mezoniy tushunchasidir.

2. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda uz «hissa»siga ega. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vataparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bulmaydi. utgan ma'ruzalarning ba'zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi Ilohiy Og'ustin, Imom farzoliy, Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Kushimcha qilib shuni aytish mumkinki, u – insonni tashqi va tarnstsendentral` olam bilan bog'lovchi, uni yolg'izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning ob`ekti doimo guzallik, manfaatsiz guzallik. U – Ollohmi, Vatanmi, yormi – muhabbat egasiga undan-da guzalroq narsa yuq. Ayni paytda bir ob`ektni sevgan kishi boshqa ob`ektlarni ham sevmasligi mumkin emas. Deylik, yorga bulgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero «uz-uzicha», yakka, «xudbin» muhabbatning bulishi mumkin emas. Inson uzi uzgaga aylanganida, uzgani uziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob`ekt bilan sub`ekt orasidagi farqning yuqolishi eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nihoyatda guzal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishqdir ul, nasha'i komilkim, andandir mudom
Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado.

Komil nash'a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy xayotining chuqqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo va Jul'etta, Otabek va h.

Shuni ta'kidlash lozimki, muhabbat – oliy tuyg'u, shu ma'noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa – hodisalarga nisbatan ham qullash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g'arblik mutafakkirlar, ba'zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini ulikka (nekrofil), mol-dunyoga,

pulga nisbatan qullaydilar. Ularga nisbatan «uchlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qullash ma'qul emasmi

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi kupgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bulgan ob'ektdan chetlashish, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushidagi tor, «mayda» kurinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bulishidir. Ayni paytda, bu tushuncha g'azabdan keskin farq qiladi. U, g'azabga uxshab, uz ob'ektini yuqotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Kurinishdan, nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg'otsa-da, aslida u asosan illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi borki, u –ijtimoiy hodisa emas, faqat jinsiy muhabbat bilan yonma-yon keladi. Ma'lumki, muhabbat egasi uz sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissa me'yoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik – me'yorning buzilishi, illat.

Mezoniy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik, ezgulik axloqshunoslikdagi eng asosiy kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon buladi. «Ezgu uy, ezgu suz, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha muqaddas kitoblarda etakchi urinni egallashi ham shundan. Ezgulik – inson shaxsining komillikka, baxtga, jamiyati esa yuksak taraqqoyitga etkazuvchi vositadir. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yohud partiyaviylik qobig'iga urash mumkin emas. Chunonchi, «sinfiy dushmani», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bulgani uchun jisman yuqotish, qanchalik buyab-bujalmasin, ezgulik bulolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Shu bois totalitar tuzumlarda ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan ulchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog'liqligi ham shundan. Shu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni uz ichga oladi.

Shuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir-birini tamomila inkor etadi. Na faqat inkor etadi, balki ular orasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon buladi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir uziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faolyaitini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug'ligi va tubanligini ulchaydigan muqaddas torozuga uxshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan-erishmagani shu mezon bilan ulchanadi. Chunonchi, Stalinning yovuz inson, sobiq shurolar ittifoqini esa jamiyat sifatida «yovuzlik saltanati» degan nom bilan atalib kelgani hech kimga sir emas.

Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum uzbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yug'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. Tug'ri, yaxshilik tushunchasining kugina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalilllar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bula olmaydi. Ular orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. U asosan shaxsning odobiga, hulqiga bog'liq bulgan ijobiy hodisa. Zero unda, mardlik, ochiqkungillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq u qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga kutarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag'ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul-maoniy»dek, «Hamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu ezgulik – abadiy, zero Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, u kuplab yaxshiliklar qildi – muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzidan kechib yubordi v.h. Uning bu yaxshiliklari, ajoyib ijobiy hodisa bulgani holda, utkinchilik xususiyatiga ega, shuningdek, qahramonlik ham, buyuk jasorat ham, vatanparvarlik ham emas. Demak, yaxshilikni

yirik ijtimoiy hodisa – ezgulik bilan aynanlashtirish tug`ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bulib qoliveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror ob`ektga qilingan yaxshilik boshqa har bir ob`ekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub`ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur uzbek xalq ertaklaridan biridagi ovchilar quvib kelayotgan burini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: buri uziga yaxshilik qilib, ulimdan qutqargan odamni emoqchi buladi, xayriyatki, tulki dehqonning joniga ora kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik ham ancha qamrovli mezoniy tushunchalardan.

30-mavzu Oila, fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy asoslari hamda shaxs axloqiy tarbiyasi

Reja:

1. Oilalik axloqiy maskan sifatida.
2. Fuqarolik jamiyati va davlatning axloqiy mohiyati.
3. Axloqiy madaniyat va kasbiy odob muammosi.
- 4 Axloqiy tarbiya hamda uning yullari va vositalari.

1. Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyishadi. Chunki har bir jamiyat a'zosining, bulajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: uzining bevosita kurinishi bulmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxurlikni; bolalar tarbiyasini uz ichiga oladi.

Avvalo, nikoh xaqida tuxtalib utaylik. Konunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari – nikohga kiruvchilarning uzaro roziligi va ularning nikoh yoshiga etganliklari. Bizda yigitlar uchun – 18, qizlar uchun – 17 nikoh yoshlari qilib belgilangan. Bu – masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi – axloqiy tomoni ham borki, u sevgi bilan bog'liq. Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq sevgi – muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki orqavorotdan bir-birini yoqtirishi hollari bulishi mumkin. Har ikkala holda ham rozilik uzgarmas shart hisoblanadi.

Ba'zan, qadimda Sharq xalqlarida, shu jumladan uzbeklarda qizning yoki yigitning rozilgisiz tuy qilib yubora berishgan, ota-onalar kelishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar shurolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, bunday hol kam bulgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom uylariga sovchi kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik suraganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi quyganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandninng roziligini olish bizga payg'ambarimizdan qolgan sunnat.

Hozirgi kunda ham kuppina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir-birini ma'qul kursagina, fотиha qilinib, tuy taraddudi kuruladi. Juda kup hollarda bunday yoshlar urtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Kodiriy «utgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush urtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa buladi. Ochig'ini aytish kerakki, muhabbatning ham uz darajasi bor: Layli bilan Majnunning muhabbati hamma sevishtganlarga ham nasib etavermaydi. Bunday romantik-sururiy sevgi real hayotda kamdan-kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muhabbat ma'lum ma'noda salobatli, kuproq yashirin tarzda namoyon buladi.

Keyingi paytlarda nikoh bilan muhabbatning uzaro chiqishmasligi haqida farb mutafakkirlari tez-tez yozadigan bulib qolganlar. Chunonchi, Erix Fromm industrial jamiyatda muhabbat kamdan-kam xam uchraydigan hodisa ekanini, nikohning asosida boshqa–moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy sabablar yotishini ta'kidlaydi. Umuman, farb olamida bunday hodisa anchadan buyon mavjud. Shu jihatdan Jorj Bayronning «Don Juan» she'riy romanidagi quyidagi satrlar diqqatga sazovor:

Bu juda qayg'uli hodisa shaksiz,
Insonning kajligi, jinoyati bu;

Ildizi gar bitta bulsa ham, hargiz
Chiqishmas nikoh va muhabbat mangu:
Sirkaga aylangan vinodak, esiz,
Nikoh mast qilmovchi taxir, nordon suv,-
Vaqt undan jannatiy buyni oladir,
Ruzg'oru oshxona hidi qoladir.

Garchi bu satrlar yarim kinoya, yarim hazil qabilida bulsa-da, ularda ma'lum ma'noda hayotiy asos bor. Agar muhabbat har ikki tomondan e'zozlab, avaylab-asralmasa, undagi jannatiy buyni yuqotib quyish hech gap emas. Zero dunyodagi hamma narsa -hodisalar kabi muhabbat ham parvarishga

muhtoj.

Nikoh uz mohiyatiga kura axloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa buysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy ehtiyotni qondirish birinchi urinda turadi, nikohda u ikkinchi darajali mavqe egalaydi.

Oilaning yana bir jihati – uning uz mulkiga egaligi. Agar nikoh oilaning botiniy kurinishi bulsa, oilaviy mulkni uning tashqi kurinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bulishi uchun ishlab topiladigan mablag` ham zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag`, shubhasiz axloqiy tabiatga ega: oila boshlig`i oila a`zolarini halol edirib-ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani erkak kishi boshqaradi. U nafaqat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xujayinchilik qilish, uni taqsimlash huquqiga ham ega.

Oilada bolaning ahamiyati nihoyatda katta. Ota bolada uz jufti halolini, ona esa sevimli erini kuradi: bolada er xotinning muhabbati predmetlashadi, jonlanadi. Bola – oilani tutib turuvchi jonli muhabbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk hisobiga eb-ichadilar, tarbiya oladilar.

Oilada bolalar intizomli bulib usmoqlari, ota-onaga buysinishlari lozim. Lekin bu intizom qullikka urgatish emas, balki bolalariga hos erka-tantiqlik, uzboshimchalik singari salbiy hususiyatlarni yuqotishiga xizmat qilishi kerak. Ota-onaga buysunishdan bosh tortishga yul quyish bolaning kelajakda qupol badxulq nokamtarin bulib etishuviga olib keladi. Shu bois oila ilk axloqiy tarbiya uchog`i sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Oila buzilishi ham mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri – oilani axloqiy nuqtai nazardan buzilishi. Bunda bolalar balog`atga etgach, erkin shaxs sifatida yangi oilaga asos bulishlari – ug`il bolalarning uylantirilishi, qizlarning erga berilishi nazarda tutiladi.

Uylantirilgan farzandlarga ham, erga berilgan qizlarga ham yangi oila qurish va uni moddiy jihatdan dastlabki paytlarda muhtojlikdan saqlab turish uchun etarli bulgan uy-ruzg`or ashyolari ajratiladi. Shuningdek, oilaning tabiiy buzilishi ham mavjud. Unda ota-onaning, yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros bulib bir yoki bir necha farzandga utishi munosabati bilan oila buzilishi mumkin.

Bundan tashqari, nikoh bekor qilinishi munosabati bilan oila buziladi. Aslida nikoh ham diniy, ham dunyoviy nuqtai nazardan buzilmasligi kerak. Lekin urtada xiyonat sodir bulishi yoki yana boshqa bir xil sabablar tufayli nikohni faqat axloqiy obruga ega, qonun bilan tan olingan idoralar, masalan sud, va vakolatli ruhoniy bekor qilishi mumkin, zero u, aytganimizdek, axloqiy hodisa. Har bir jamiyat mana shu sunggi turdagi oila buzilishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi qancha kamaysa, u usha jamiyat axloqiy takomillashib borayotganini anglatadi.

g`. Dastlabki axloq maskani bulmish oilalar yig`indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat urtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinroq ruy bersa haa, u albatta davlatni taqozo etadi, ya`ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir bulishi kerak. Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi haqiqatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam uzi uchun maqsad. Biroq, u boshqalar bilan uzaro munosabatda bulmasdan turib, uz maqsadiga tula erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadga etishishi yulidagi vositadir. Natijada har bir alohida maqsad boshqalar bilan uzaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, uzi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bulgan har bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning ushunday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U uz a`zolarining shaxsiy erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yul quymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ruy berishi mumkin emas. Chunki bunda shaxs – davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi urinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi.

